“Hayvon → odam” qolipi doirasida odamning peyorativ va meliorativ tavsifi uchun turli tillarda qo‘llaniladigan zoomorfizmlar tilda aniq ifodaliligi bilan ajralib turishi bilan birga quyidagi xususiyatlarga ham ega bo‘ladi: a) ular har doim baholash qiymatiga ega (masalan, *xameleyon* - o‘zgaruvchan, prinsipsiz shaxs haqida); b) bunday zoomorfizmlar aniq ifodalangan ekspressivlikka ega (masalan, *cho‘chqa* iflos odam haqida); c) antropotsentrik zoomorfizmlar nominativ funksiyani emas, balki obrazli tavsiflash funksiyani bajaradi (masalan, *maymun* - xunuk yoki qiyshanglaydigan odam haqida); d) bunday zoometaforlar odatda odamning tashqi ko‘rinishi, xarakteri yoki xatti-harakatining ma’lum bir xususiyatini hayvon obrazini idrok etishning dominant parametrlariga muvofiq baholaydi (masalan, fil – “jussasi pishiq odam haqida”, jirafa – “bo‘ydor odam haqida”); e) shaxsni tavsiflovchi zoomorfizmlar etnomadaniy qoliplarga bog‘liq holda ham asosiy baho, ham qo‘shimcha baho berishi mumkin (masalan, it odamga nisbatan umumiy baholovchi - ham ijobiy, ham salbiy tavsiflovchi funksiyaga ega zoomorfizmdir; qiyoslang: *ko‘ch. haqorat*. Sen yomon itsan va *ijobiy*, bilimdon, it! It zoomorfizmining juz’iy baholovchi ma’nolari “battol/badjahl”, “sodiq” va hokazo)[2].

“Hayvon → odam” zoomorfizm turi shaxsni metaxarakterlash usullaridan biridir. Bunday zoomorfizmlarning maqsadi har doim yoki deyarli har doim baholovchi ma’noga ega bo‘lgan ba’zi belgilar orqali shaxsga nisbat berishdir, ya’ni hayvon xususiyatlarining odamlarga ko‘chirilishi baholovchi konnotatsiyalarni nazarda tutadi. “Zoonimlarning o‘zlari baholashga nisbatan neytraldir, lekin odam hayvonlarda tabiat tomonidan berilgan belgilarni payqab, ularning axloqiy, ruhiy, xulq-atvor tavsiflarini o‘ziga ko‘chiradi”[3]. “Hayvon → odam” modeli bo‘yicha shakllantirilgan zoomorfizmlar (“hayvon → odam” modelining metaforik qayta anglanishi) yoki boshqacha qilib aytganda, hayvonot dunyosi bilan assotsiatsiyalarga va o‘xshatishlarga asoslangan metaforalar zoomorfizmlar deb ataladi, keng va ko‘p qirrali aloqalar bilan tavsiflanadi. A.P.Chudinovning so‘zlariga ko‘ra, “zoomorfik metafora yaratishda hayvon obraziga, avvalo, insonning tashqi belgilari, yoshi, xarakter xususiyatlari, turmush tarzi va xulq-atvori kabi antropomorfik xususiyatlar yoziladi, so‘ngra bu obraz shaxsga o‘tkaziladi, unga zoomorfik belgilar (hay-

[1] Огдонова Ц.Ц. Зооморфная лексика как фрагмент русской языковой картины мира: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Иркутск, 2000. – 21 с.

[2] Miller G.A. Images and models, similes and metaphors. // Metaphor and Thought, 2nd edition, by A. Ortony, Cambridge University Press, 1993. – P. 357-400.

[3] Bisschops R. Die Metapher als Wertsetung. Novalis, Ezechiel, Beckett. Paperback Published November 1st 1994 by Peter Lang Gmbh, Internationaler Verlag Der Wissenschaften, 1994. - 401 S.

vonning tashqi ko‘rinishi, tabiati, odatlari) proyeksiyalanadi”[1].

V.M.Mokienkoning ta’kidlashicha, “turli tillardagi ko‘plab turg‘un o‘xshatishlarning o‘xshashligi hayvonlarning fe’l-atvori va odatlari ustida inson kuzatishlarining aynan umumiyligiga asoslanadi. Albatta, bunday o‘xshashlikning zaruriy sharti hayvonot olamining umumiyligi va/yoki bu hayvonning xalq orasida mashhurligi bo‘lishi kerak”[2]. Demak, “zoomorfizm” atamasidan metafora ma’nosi nazarda tutiladiki, unda hayvonning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishi odamning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishiga ishora qiladi hamda, tom ma’noda, ko‘pincha qo‘shimcha yoki murakkabroq ma’noni juda nozik tarzda ifodalaydi. Bu “ifodalab bo‘lmaydigan narsani ifodalash” yoki “aytib bo‘lmaydigan narsani aytish” usuli sifatida qaralishi mumkin. Obrazli o‘xshatishlarning har xil turlari asosida shaxsni tavsiflashning lingvokognitiv mexanizmi sifatida zoomorfizmlarni tadqiq etish, o‘z navbatida, til tizimlaridagi alohida zooobrazlarning milliy o‘ziga xosligini, etnik guruhlarning milliy mentaliteti va ma’naviy madaniyati an’analarnining xususiyatlarini aniqlash zaruratini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ma’lumki, “qardosh bo‘lmagan milliy tillar hayvon obrazi orqali odamni tavsiflovchi nominatsiyalar sohasidagi o‘xshash bilimlarni ham turlicha verballashtirishi mumkin”[3]. Yuqorida aytilganlar zoomorfizmni odam va hayvonning xulq-atvor reaksiyalari o‘rtasidagi assotsiativ o‘xshashliklar asosida turuvchi milliy va madaniy standartlarni aniqlaydigan ong stereotiplarini qamrab oluvchi hodisa sifatida o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi.

S.M. Tolstayaning ta’rifiga ko‘ra, bu hodisa “faqat til va madaniyatning mazmun tomoniga tegishli bo‘ladi, ya’ni birinchi navbatda, aqliy stereotip sifatida tushuniladi va olamning oddiy manzarasi bilan o‘zaro bog‘lanadi. Bunday stereotipni lingvistik deb ham atashadi, bunda uning namoyon bo‘lish shakli, so‘zning lug‘aviy ma’nosida, uning konnotatsiyasida, semantik derivatsiyasida, sintaksisda, birikishida, idiomada, til troplarida, ayrim turdagi matnlarda, xususan, xalq og‘zaki ijodida ifodalanish doirasi nazarda tutiladi”[4].

Kognitiv manbai sifatida odamga ko‘chirilgan hayvon “obrazi” xizmat qiladigan zoomorfizm kollektiv va individual ong stereotiplarini metaforik ifodalashning eng samarali modellaridan biridir. Bunday metaforalar, shubhasiz, etnomadaniy belgiga ega bo‘ladi, bu ularni har tomonlama o‘rganishga alohida qiziqishni belgilaydi. Lingvokognitiv tahlil metafora talqiniga ontologik asosning tilda o‘zgacha ma’no kasb etishi asosida (ya’ni tafakkur strukturasidan bilish aktining lingvistik ifoda tuzilishi tomon) yondashish imkonini beradi.

Tahlil qilish tartibi psixolingvistik, lingvokulturologik va qiyosiy tavsiflarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tilni o‘ziga xos “shaxsiy proyeksiyaning o‘ziga xos maydoni” sifatida ko‘rib chiqishning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda subyekt, bir tomondan, belgilar tizimi tomonidan berilgan olamni idrok etishning (ijtimoiy qat’iy) stereotiplariga muvofiq harakat qiladi, boshqa tomondan, belgi birliklarini tushunishga o‘zining kognitiv va tajribasini kiritib hamda o‘zining til va aqliy afzal ko‘rishlariga mos ravishda harakat qilib “ijodiy faoliyat” ko‘rsatadi[5].

Zoomorfizmlar semantikasida belgi va tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi denotativ komponent va belgi namoyon bo‘lishida his-tuyg‘u, baho, obrazlilik va intensivlik semalarini ma’no tarkibida mustahkamlovchi konnotativ komponent birlashtiriladi. O‘xshatish asosi sifatida ongda paydo bo‘ladigan assotsiativ o‘xshashlik, bir tomondan, intuitiv tarzda topilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aqliy tasavvurni lingvistik tarzda taqdim

[1] Чудинов А.П. Структурный и когнитивный аспекты исследования метафорического моделирования // Лингвистика: бюл. Урал. лингвист. о-ва. – Екатеринбург, 2004. – Т. 6. – С. 108 – 116.

[2] Miller, G.A. Images and models, similes and metaphors. // Metaphor and Thought, 2nd edition, by A. Ortony, Cambridge University Press, 1993. – P. 357-400.

[3] Исмаилов С.И. Семантическая характеристика образных сравнений во французском языке (на материале художественных произведений XIX-XX вв.): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. - Ленинград, 1980. – 23 с.

[4] Толстая С.М. Стереотип в этнолингвистике // Речевые и ментальные стереотипы в синхронии и диахронии. - М., 1995. – С. 124-127.

[5] Гридина Т. А., Пятинин А. Э. Проективная активность личности в речевой деятельности // Психолингвистические аспекты речевой деятельности. 2003. №1. - С. 5–14.

etishning mumkin bo‘lgan usullaridan biridir. Bu fakt ma’noning metaforik ko‘chishini bir xil ma’noda talqin qilishning mumkin emasligini izohlaydi. Bu borada to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “til sohiblari ongida u yoki bu obrazdan foydalanishda yuzaga keladigan assotsiativ tavsiflar juda xilma-xildir”. Bitta metaforik obraz ortida turli xil predikativ tavsiflar biriktirib qo‘yilishi mumkin va aksincha, bir xil belgiga turli metaforik subyektlar mos kelishi mumkin. “Agar til sohiblarining ongida bir xil belgini ifodalash uchun bir nechta konnotativ obrazlar mavjud bo‘lsa, yakuniy tanlovni amalga oshirishda ko‘plab omillar hisobga olinadi: ... obrazning salbiy yoki ijobiy holati, undan foydalanish chastotasi, uning nutq adresati tomonidan potentsial idroki”[1]. Masalan, *quyon kabi izni yo‘qotmoq* (ayyor odam haqida) iborasidagi quyon obrazining ramziyligini, agar faqat *quyon qo‘rqoq* degan propozitsiyadan kelib chiqiladigan bo‘lsa, bir ma’noda talqin qilish mumkin emas.

Zoomorfizmning, xususan, zoomorfik analogiyalarda ham namoyon bo‘ladigan yana bir muhim xususiyatini qayd etamiz: o‘xshatish uchun asos sifatida tanlanadigan obraz voqelikni idrok etish va baholash bo‘yicha milliy ko‘rsatmalarga tayanadi. Masalan, o‘zbek ongidagi eshak obrazi mashaqqatli mehnatni itoatkorlik bilan bajaradigan (ertalabdan kechgacha eshakday ishlamoq) mehnatkash, chidamli odam bilan fikran bog‘lanadi. Biroq, u til sohiblarning ongida o‘ziga xos jozibadorlikka ega emas, aksincha, achinish va qandaydir mensimaslik tuyg‘usini uyg‘otadi. Nemis ongida bu obrazga “ahmoq, befahm” baholovchi komponent ham berilgan. Shu munosabat bilan shaxsning obrazli nominatsiyasi uchun zoonim tanlash prizmasi orqali namoyon bo‘ladigan turli xalqlarning hayvonlarga nisbatan munosabatini ifodalash bo‘yicha kuzatishlarni qiyoslash mumkin: “Biz qiz yoki bolani yoqimli so‘z bilan chaqirmoqchi bo‘lsak, ularni kabutarlar deb ataymiz; kaltafahm va parishonxotir odamni qarg‘a deymiz. Yonma-yon yashovchi xalqlar ko‘pincha odamlarga murojaat qilish uchun hayvonlarning o‘xshash belgilaridan foydalanishadi. Agar milliy madaniyatlar sezilarli darajada farq qilsa, zooo‘xshatishlarda nomuvofiqliklar kuzatiladi. Masalan, qozoqlarda *qizqush* ochko‘zlik bilan, *boyqush* tartibsizlik va parishonxotirlik bilan, *bolari* badjahllik va norozilik bilan, *toshbaqa* dangasalik va beparvolik bilan bog‘lanadi. Rus ongida bunday bog‘lanishlarlar yo‘q”[2].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, zoomorfizmlarni tahlil qilish tartibi sifatida quyidagilarni o‘z ichiga olgan algoritm taklif qilinadi: 1) hayvon haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog‘liq turli xil situativ presuppozitsiyalar asosida obrazli o‘xshashlikning kognitiv asosini aniqlash, 2) muayyan til madaniyatida zoomorfizmning obrazli ramziy ma’nosidagi aksiologik dominantni aniqlash; 3) zoonimdan metaforik foydalanishning universalligi yoki o‘ziga xosligini frazeologik va paremiologik birliklar tarkibida qo‘llanishi doirasida ham aniqlash. Masalan, “o‘zbek lingvomadaniyatida *fil* zoomorfizmi doimiy ravishda baquvvat, qudratli, katta imkoniyatlarga ega odamning tavsiflari bilan assotsiya orqali fikran bog‘lanadi”. Ushbu zoonimning metaforik ma’nosini tushunib yetish “fil Afrika va Osiyoda yashaydigan, sut emizuvchilar sinfiga mansub, sirtga chiqqan ikkita uzun, kurak tishli va baquvvat xartumli, o‘simliklar bilan ovqatlanuvchi ulkan jussali hayvon” presuppozitsiyasiga asoslanadi. Xuddi shu presuppozitsiyalarga asoslangan nemis tilidagi ushbu zoomorfizmning qadriyatli dominanti atrofidagi hamma narsani ag‘darib tashlaydigan qovushmagan shaxsning tavsifi bilan bog‘liq bo‘lib (*sich benehmen wie ein Elefant im Porzellanladen*), nemis xalqi mentaliteti uchun muhim bo‘lgan aksiologik orientirlarni voqelantiradi. Zoomorfizm ma’nosini tushunish “fil - bu katta vaznli, terisi qalin, yo‘lidagi har qanday to‘siqlarni “ezib tashlashga” qodir bo‘lgan katta hayvon haqidagi mavjud presuppozitsiyaga asoslanadi”.

Zoomorfik (animalistik) metafora mavzusi metaforaga bag‘ishlangan barcha ishlarda ko‘rib chiqiladi, ammo barcha tillarda “hayvonlarning nomlari (zoonimlar)” tematik guruhi juda katta bo‘lishiga qaramasdan “hayvon → odam” tipidagi ma’no ko‘chishini to‘liq tasvirlovchi tadqiqotlar mavjud emas. Belgilarning o‘xshashligi asosida

[1] Глазунова О. И. Логика метафорических преобразований. - СПб, 2000. - 190 с.
[2] Горелов И. Н., Седов К. Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. - М.: Издательство «Лабиринт», 2001. -304 с.

nomlarning ko‘chirilishi barcha tillarga xosdir, lekin har bir tilda nomlashdagi tasavvurlar o‘rtasidagi aloqalar ma’lum bir tarixiy asosda va ma’lum bir milliy muhitda paydo bo‘lgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan belgilanadi. Bu turli tillardagi bir xil nomlash assotsiatsiyalarda tanish qismning mavjudligini istisno qilmaydi. Biroq, har bir tildagi metaforalash natijasida paydo bo‘lgan so‘zlarda sezilarli farq va xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Olamning metaforik manzarasi nafaqat milliy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki insoniyat tafakkurining umuminsoniy xususiyatlarini ham o‘zida aks ettiradi.

Zoomorfizmlarni qiyosiy tipologik aspektda o‘rganishda “zoomorfizm” atamasidan metafora ma’nosi nazarda tutiladiki, unda hayvonning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishi odamning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishiga ishora qiladi hamda, tom ma’noda, ko‘pincha qo‘shimcha yoki murakkabroq ma’noni juda nozik tarzda ifodalaydi. O‘zbek va nemis tillarining leksikografik manbalarida qayd etilgan zoomorfizmlar, frazeologik va paremiologik birliklar madaniy kodning til tizimiga o‘tish natijasidir. Ularni o‘rganish, ulardagi madaniy kodlarni aniqlash o‘zbek va nemis xalqlari zoomorfik olamining lingvistik manzarasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Resume. This article is devoted to the comparative-typological study of zoonyms and zoomorphisms incorporated into the language system. The research analyzes the lexical-semantic features of zoonyms, their nominative and connotative meanings, as well as their metaphorical potential in expressing human character, behavior, and social status. Zoomorphisms are examined as figurative units formed within the phraseological, paremiological, and literary layers of language.

Резюме. В данной статье исследуются зоонимы и зооморфизмы, введённые в языковую систему, в сравнительно-типологическом аспекте. В работе анализируются лексико-семантические особенности зоонимов, их номинативные и коннотативные значения, а также их метафорический потенциал в выражении характера человека, его поведения и социального статуса. Зооморфизмы рассматриваются как образные единицы, сформировавшиеся во фразеологическом, паремиологическом и художественном слоях языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

EPITET – BADIIY MATNNI OBRAZLI IFODALOVCHI VOSITA

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti doktaranti (DSc)

Badiiy tasvir badiiy nasr poetikasining muhim tarkibiy qismi, matnning badiiy-bo‘yoqdorligini, estetik-ta’sirchanligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Badiiy nutqda qo‘llaniladigan barcha so‘zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so‘z matnda o‘ziga xos ma’no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo‘lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri epitetlar bo‘lib, badiiy obrazlilikni ta’minlovchi tasviriy vosita sifatida qaraladi[1]. Epitet umumuslubiy vosita. U nutqning barcha turlarida qo‘llaniladi, narsa, hodisaning biror xususisyatini belgi sifatida alohida ta’riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir.

Epitet – bu tasvirni yaratadigan ta’rif. R.Qo‘ng‘irov sifatlashlarning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, epitetlardek ko‘chma ma’noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta’kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi[2]. Darhaqiqat, epitetlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchidan keskin farq qiladi. Epitetlar borasida olib borilgan tadqiqotlar har xil ilmiy qarashlar asosida shakllangan bo‘lib, har biri bu badiiy vositaning mohiyatini, vazifasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tilshunoslar epitetni leksik-semantik, sintaktik-stilistik nuqtayi nazardan o‘rganishgan. Ba’zi olimlar epitetni obrazlilik va emotsional-eksperssivlik vositasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, boshqalari uni poetik tafakkurning maxsuli sifatida qarashgan.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida epitetlarning mazmun-mohiyati yetarlicha tadqiq qilinmoqda. Ularning fikricha, epitetlar biror-bir narsa hodisaning belgisini nutq kechimida atash hisoblanadi. Epitetlar sifat va ot turkumidagi so‘zlardan hosil bo‘lib, bu so‘zlar epitetli birikma tarkibida qo‘llanar ekan, hamma vaqt o‘xshatish qurilmasiga ham qurilish ham ma’no jihatidan juda o‘xshab ketadi. Bizga ma’lumki, epitet biror birikma tarkibiga kirganda, bu birikma epitetli birikma deb qaraladi[3]. Odatda epitetning metafora va metonimiyaga o‘xshash tomonlari ham bor, ayni chog‘da ulardan keskin farq qilinishini ham anglash lozim[4]. Epitet obraz yaratishda, uning sifatiy belgisini ifodalashda mihim ahamiyat kasb etadi, epitetli birikmalarning tiplari shu birikmaning hokim bo‘lagiga qarab belgilanadi. Epitetli birikmaning ma’nosi qaysi turkumga oid bo‘lmasin, agar tarkibida o‘xshatish qurilmasining subyekt va etaloni bilan bir xil kelsa, o‘xshatish qurilmasi ma’nosi bilan bir xil shakllanadi. Masalan, *Hovli zimiston. Kungurador devor bilan o‘ralgan Ko‘ksaroy, maqbaralarga o‘xshash tepasi gumbaz, muazzam binolar, ...– hammasi jimjit va qorong‘u edi.* (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”) Ushbu matnda *muazzam binolar* epitetli birikma, juda ulkan, beqiyos, nihoyatda buyuk, ulug‘vorlik o‘xshatish qurilmasining ma’nosini ifoda etib kelgan. Lekin ular uslub nuqtayi nazardan farq qiladi. O‘xshatish qurilmasida birinchi o‘rinda ulug‘vorlik bo‘lib, bu ulug‘vorlikni binoga qiyoslash ikkinchi o‘rinda turadi. Epitetli birikmada birinchi o‘rinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri binoning muazzamligi ifodalangan bo‘ladi. Ot epitetli birikma bilan sifat o‘xshatish qurilmasi tarkibi nuqtayi nazaridan o‘xshash va farqli tomonlarga ega.

Fe’l epitetli birikmalar fe’l asosli o‘xshatish qurilmasiga juda yaqin turadi. Masalan, *Lochin ko‘kragini kerib, Burgutning o‘ziga o‘xshab qirg‘iy qarash qildi.* (O.Yoqubov. “Adolat manzili”) gapidagi epitetli birikma *qirg‘iy qarash qildi* birikmasi bo‘lib, uning ma’nosi *qirg‘iydek qaradi* o‘xshatish qurilmasini beradi. Ya’ni epitetli birikmaning *qaradi* kesimi o‘xshatish qurilmasining *qirg‘iy qarash qildi* kesimining garchi ixchamlashgan ko‘rinishi bo‘lsa ham, uning bir *yomon qaraganlik* semasiga reallashgan va obrazli, majoziy ifodani aks etadi. Epitetni ayrim tadqiqotchilar aniqlovchiga tenglashtirishlarini, holbuki, bu ikki hod-

[1] Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М., 1961; Стилистика русского языка. – М., 1969; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л., 1973; Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л., 1978.
[2] Qo‘ng‘irov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – B. 46.
[3] Shukurov I. Nutqiy ko‘chma ma’nolarning hosil bo‘lishi va konversiya. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1975, 5-son. – B. 68.
[4] Tohirov Z. Matoforik leksema semasining pragmatik semasi. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1983, 1-son. – B. 76.

isa bir-biridan farqlanishini, aniqlovchi umumnutqqa xos bo‘lib, til hodisasi sanalib, predmetning rangini, shaklini, xususiyatini, miqdor-darajasini, yoki biror predmetga qarashliligini bildiradi. Epitet esa badiiy nutqqa xos bo‘lib, tasviriy vosita sifatida predmetning belgi, xususiyatini ko‘rsatadi. O‘xshatish qurilmasining tarkibidagi so‘zlar nominativ ma’nosi bilan qo‘llanishi unda subyektiv munosabat ifoda topmasligi, epitetli birikmalardagi epitetlar esa, albatta, majoziy ma’noga ega ekanligi va emotsional ekspressivlik ifodasini berishi bilan farqlanadi. Epitetli birikmalar o‘xshatish qurilmasining o‘xshatish formanti tushib qolgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shuning uchun mana shu formant asosida o‘xshatish qurilmasini epitetli birikma, epitetli birikmani o‘xshatish qurilmasiga aylantirish imkoniyati nutqda saqlanadi[1]. Epitetli o‘xshatish formanti vositasida qayta o‘xshatish qurilmasiga aylantirib bo‘lmaydi. Epitet ikki komponentdan iborat: sifatlovchi va sifatlanmish. Masalan, *oltin qo‘llar, tizginsiz dard, g‘amnok yurak, aqlli soat, otash qalb, muz yurak* kabi. O‘xshatish to‘rt komponentdan iborat bo‘ladi: o‘xshatiluvchi obyekt, o‘xshovchi obraz, shakliy ko‘rsatkich, o‘xshatma belgi. Masalan, *ayiqdek pahlavon yigit, popukday qiz, marmarday silliq bo‘yin, qo‘rg‘oshindek qop-qora bulut, marmarday oppoq bilak, shalg‘omday qizil bosh* va boshqalar. Aksar hollarda o‘xshatishli qurilmalarni epitetga aylantirib bo‘lmaydi: *anorday qip-qizil ko‘ylak, marmarday oppoq bilak, qo‘rg‘oshindek qop-qora bulut* kabi. Aytish joizki, ayrim o‘rinlarda epitet metaforaga o‘xshab ketadi, ammo ularning farqli jihatlari mavjud: Epitetlarda aniqlovchi yoki sifatlovchi ko‘chma ma’noda qo‘llanadi: *mudhish o‘y, ma’yus chehra, tizginsiz iztirob, mas’ud damlar, mungli ovoz, o‘ychan nigoh, so‘lg‘in yuz, g‘am-anduhga to‘la ovoz, sovuq muomala, kinoyali tabassum* kabi. Metaforada esa aniqlanmish ko‘chma ma’noda qo‘lanadi: *esdaliklar tug‘yoni, shamol qamchisi, qish qahri, ga‘flat uyqusi* kabi. Masalan, *Qalandar esdaliklar tug‘yoni bilan olishib, rasadxonani bir aylanib chiqdi*. (O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi”) Aslida metafora ham epitet ham bir so‘z doirasida shakllanadi, ya’ni shakl jihatidan qaralsa, epitet sifatida qo‘llangan so‘z ma’nosi bir sema orttirgandagina metaforaga aylanadi. Epitet va matafora bir-biriga shu qadar singishib ketganki, ularning qat’iy chegarasini qo‘yish imkoni yo‘qdek tuyuladi. Ko‘pgina tadqiqotchilar epitetni mataforadan o‘sib chiqqan deb hisoblasalar, ayrim tilshunoslar o‘ziga xos bo‘lgan farqli jihatlarini ko‘rsatadilar: Epitetning vazifasi aniqlovchisi, metaforaning vazifasi aniqlanmish ko‘chma ma’noda kelishi bu ikkisining farqini anglatadi. Umuman olganda, metafora, epitet, o‘xshatish o‘rtasida ichki o‘xshashlik mavjud: metafora, epitet va o‘xshatishning asosida o‘xshatish munosabati mavjud bo‘ladi. Shu bois ba’zan matnda qaysi uslubiy vosita ekanligini aniqlash qiyinchilik tug‘diradi. Uslub talabi bilan epitet va metafora grammatik vositalari qisqargan o‘xshatishga teng kelib qoladi. Bu tilshunoslikda chigallikka olib keladi. O‘xshatishli qurilma tarkibi kelgan so‘zlar denotativ ma’noda, metafora va epitet vazifasidagi so‘zlar konnotativ ma’no ifodalashi bilan xarakterlidir. O‘xshatishning yaqqol ko‘rinib turgan grammatik vositasi mavjud: dek, -day qo‘shimchalari bilan ifodalangan *paridek qiz, burgutdek yigit, mushukdek muloyim, onasidan ayrilgan bo‘taday* kabi birikmalarda o‘xshatish aniq ko‘zga tashlanib tursa, metafora va epitetda bunday grammatik vositalarni qo‘llab bo‘lmaydi. *Mungli ko‘zlar, sehrli yulduzlar, qora xayol,oppoq orzular* kabi epitetli birikmalar orasida -dek, -day qo‘shimchasini qo‘llab bo‘lmaydi. Metafora obrazli, majoziy ma’nolar ifodalasa, epitet narsa va predmet, hodisani tasviriy ifodalab, badiiy matnda qahramonlar harakterining, tabiat hodisalarining emotsional-ekspressivligini va belgi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Mirzo Ulug‘bek o‘pkasi to‘lib, kalima keltira boshladi, lekin ko‘z yoshi aralash tepasiga kelib to‘xtagan Sayid Abbosning* ***qora quzg‘un vajohatini****, boshi uzra ko‘tarilgan qilichini ko‘rdi, ko‘rdi-yu ijirg‘anib ko‘zlarini yumarkan,* ***bandalikning g‘urbatini*** *tan olib: “Alvido Ali! ... – deb pichirladi.* (O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi”) Ushbu matnda berilgan ***qora quzg‘un vajohat*** epitetli birikma hisoblansa, ***bandalikning g‘urbati*** birikmasi metafora hisoblanadi. Chunki *qora quzg‘un* epitetida aniqlovchi ko‘chma ma’noda qo‘llangan, *bandalikning g‘urbati* metafora, aniqlanmish ko‘chma ma’noda ifodalangan.

Nasr milliy tilning yashash shakllaridan biri, adabiy til uslubining o‘ziga xos nutqiy ko‘rinishi, tilning badiiy-estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan nutqiy jarayon, nutqiy san’at, til vositalaridan foydalanish mahoratini namoyon etuvchi lisoniy maydon.

Badiiy nasrning tasviriy vositalaridan biri hisoblangan epitet fikrning obrazliligi, tasviriyligini kuchaytiruvchi, favqulodda poetik ifodadorlik ko‘lamining kuchliligi bilan ajralib turuvchi ifoda usullaridan biridir. Epitetlar badiiy nasrning mohiyatini namoyon qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan. Binobarin, bu vositalar badiiy matnlarda nutqning boshqa turlariga nisbatan keng ko‘lamda qo‘llaniladi va turli nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Shu xususiyatlariga ko‘ra ham ular badiiy yoki tasviriy vositalar deb yuritiladi. Ulardagi ma’no ko‘chishi orqali fikr ifodalanishi, narsa, predmetdagi muayyan belgilar asosida predmetlarning qiyoslanishi va ta’riflanishi ushbu tasviriy vositalarn-

[1] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: 1976. – В. 19

ing uslubiy vazifalarini kengaytiradi. Tasviriy vositalar badiiy nutqda turli vazifalarni bajarsa ham, ular funksional nuqtayi nazardan qisman alohidaliklarga ega. Chunonchi, metafora asosan obrazlilikka, badiiylikka xizmat qilsa, epitet tasviriylikka xizmat qiladigan vositadir. Biroq har qanday holatda ham ushbu tasviriy vositalar badiiy nutqning tub mohiyati estetik ko‘lamini namoyon etadi. Shu boisdan, badiiy nutqni ushbu vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Epitetlar borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar har xil ilmiy qarashlar asosida shakllangan bo‘lib, har biri bu badiiy vositaning mohiyatini, vazifasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Tilshunoslar epitetni leksik-semantik, sintaktik va stilistik nuqtayi nazardan o‘rganishgan. Ba’zi olimlar epitetni obrazlilik va emotsional-ekspressivlik vositasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, boshqalari uni poetik tafakkurning mahsuli sifatida qaragan. Umuman olganda, epitetga berilgan nazariy ta’riflar uning san’atkor tilidagi ahamiyati, funksional imkoniyatlari va estetik yukini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, keyingi tadqiqotlar uchun epitetlar bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar bu badiiy vositaning o‘rganilishi, tahlil qilinishi hamda tasniflanishi ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita sifatida badiiy asarlardan olingan matnlar orqali lingvopoetik tahlilga olingan. Epitet obraz yaratishda, uning sifatiy belgisini ifodalashda mihim ahamiyat kasb etishi, epitetli birikmalarning tiplari shu birikmaning hokim bo‘lagiga qarab belgilanishi matnlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan. So‘z turkumlari doirasida ot epitetli va fe’l epitetli birikmalar solishtirlib tasniflangan. Shuningdek epitetning o‘xshatish va metaforadan farqli va o‘xshash jihatlari asoslab berilgan. Metafora asosan obrazlilikka, badiiylikka xizmat qilsa, epitet tasviriylikka xizmat qiladigan vositadir degan umumiy qarashlar bayon etilgan.

Resume. In this article, epithet – is analyzed linguopoetically through texts from works of art as a means of figurative representation of the artistic text. The importance of epithete in creating an image, expressing its qualitative sign, and the fact that the types of epithet compounds are determined according to the dominant part of this compound were analyzed based on the examples taken from the texts. Within word groups, noun epithet and verb epithet compounds are compared and classified. Also, the aspects of the epithet that are different from similes and metaphors are justified. General views are expressed that if the metaphor mainly serves imagery and artistry, the epithet is a tool that serves imagery.

Резюме. В данной статье эпитет – был подвергнут лингвопоэтическому анализу через тексты из художественных произведений как средство образного выражения художественного текста. Эпитет анализируется на основе примеров из текстов, где михим приобретает значение при создании образа, при выражении его знака сифатия, а типы соединений с эпитетами определяются фрагментом наместника этого соединения. В рамках родов слов были классифицированы как сопоставимые соединения с эпитетами существительных и эпитетами глаголов. Обоснованы также различные и сходные с аналогией и метафорой аспекты эпитета. Изложены общие взгляды, что эпитет – это средство, служащее иллюстративности, когда метафора служит в основном образности и художественности.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMIL AVAZNING NASRIY ASARLARIDA DIALEKTIZMLARNING QO'LLANILISHI («SOZANDA» ROMANI MISOLIDA)

Avezova Gulnoza Kamilovna,
Urganch davlat pedagogika institute katta o'qituvchisi

O'zbek adabiyoti boy merosga ega bo'lib, ushbu meros namunalarini lisoniy tadqiq qilish bugungi tilshunoslikning vazifalaridan biridir. Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, «Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar»[1]. Badiiy asarning go'zalligini anglash va tushunish uning tilsimot dunyosini ochish kaliti sifatida so'zni ko'ramiz va umuman, muallifning iste'dodi, mahorati tildan qay darajada ustalik bilan foydalanishiga qarab baholanadi.

Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.[2] Shu nuqtayi nazardan Xorazm adabiy muhiti vakili, o'zbek zamonaviy adabiyotining sermahsul ijodkori sifatida Komil Avaz asarlari tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, adibning Xorazm vohasi farzandi sifatida unga xos dialektizmlardan foydalanish mahoratini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishga XX asr o'rtalaridan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlangan. Bu borada badiiy matn tadqiqi yuzasidan keng ko'lamli izlanishlar olib borilgan[3]. Xususan, N.Mahmudov, M.Yoqubbekova, M.Yo'ldoshev, D.Xudayberganova, D.Andaniyozova[4] va boshqalarning badiiy asar tili hamda o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlariga doir ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, badiiy matn tadqiqi yuzasidan olib borilayotgan izlanishlarning katta qismi alohida olingan mualliflar tili yuzasidan qilinayotgan kuzatishlar hisoblanadi.[5] Bu ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar Komil Avaz asarlari tilining lingvopoetik jihatdan o'rganilishi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

[1] Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрь куни "Давлат тили ҳақида"ги қонун қабул қилинганлигининг 30 йиллигига бағишлаб ўтказилган анжуманда сўзлаган нутқидан.

[2] Шадиева Д. Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. –Б.4.

[3] Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 23 б.; Холманова З. «Шайбонийхон» достони лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 25 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007..; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2008. – 313 б.; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан…фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 52 б.; Қурбонова М. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалсафа док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2019. – 153 б.

[4] Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиѐти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б.34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.12-17; Ёкуббекова М.М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 153 б; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – 91 б.; Шу муаллиф. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент: Фан, 2008. – 111 б.; Shu muallif. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 2009. – 126 б.; Shu muallif. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б; Shu muallif. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 256 б; Анданиёзова Д. Ономастик бирликларнинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 207 б.; Худойберганова Д., Анданиязова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 131 б.

[5] Матназаров Ж. Матназар Абдулҳаким шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фан…фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022. – 149 б.; Тошхўжаева Ш. Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс... автореф. – Фарғона, 2017. – 56 б.; Allaberganova D. Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi lingvopoetikasi: Filol. fan… d-ri (PhD) diss. – Urganch, 2024. – 141 b.

Shevalar xalqning boy va jonli qatlami hisoblanadi. Badiiy adabiyotda sheva vositalaridan foydalanish obrazning tabiiyligini, milliy koloritni kuchaytiradi. O‘zbek adabiyotida hududiy shevalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishi yozuvchi uslubining ajralmas jihatlaridan biri sanaladi. Bu orqali yozuvchi xalq tilining tabiiyligini, ruhiyatini va milliylikni badiiy matnga olib kiradi.

Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig‘ini, moddiy va ma‘naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to‘xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo‘ladi va boyib boradi[1].

Yozuvchi qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirishi bilan birga, «badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liqdir».[2]

Komil Avaz ijodida «Sozanda» romani alohida o‘rin tutadi.[3] Ushbu asarda sozandalikdek ilohiy kasb sohibining umr yo‘li yorqin aks ettiriladi. Unda Xorazm vohasi xalqining yashash tarzi, dunyoqarashi hamda tili o‘ziga xos tarzda ifodasini topgan. Ayniqsa, asarda Xorazm shevalariga oid so‘zlarning qo‘llanilishi badiiy tilga joziba baxsh etgan, obrazlarni tabiiy va ishonchli tasvirlashga xizmat qilgan.

Asarda ishlatilgan dialektizmlarni fonetik va leksik ko‘rinishlarga ko‘ra tahlilga tortish mumkin.

Fonetik dialektizmlar dialektga xos nutq tovushlari yoxud so‘zning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi[4] bo‘lib, asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo‘llash ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.[5]

Pollo duzchi Munisning navoiy muxammasi bilan «Suvoriy»ning yakuniga jo‘ravozlikda qo‘shilar ekan, yuzida xushhol tabassum o‘ynadi. [«Sozanda», 107-b.] O‘zbek tili dialektologik tizimda shevalar adabiy tilga nisbatan ayrim fonetik o‘zgarishlarga uchragan shakllarni namoyon etadi. Jumladagi *duzchi* so‘zi ham shunday hodisalardan biridir va adabiy tildagi *tuz* so‘ziga -chi qo‘shimchasi qo‘shish natijasida hosil qilingan fonetik dialektal shakli hisoblanadi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da *tuzchi* shaxs otiga izoh berilmagan. Fonetik dialektizmlar tilning talaffuz jihatidagi o‘ziga xosliklarini ifodalaydi. *Duzchi* shaklida kuzatilayotgan t>d tovush almashinuvi Xorazm va Qoraqolpog‘iston hududlariga xos o‘zbek shevalarda uchraydigan fonetik xususiyatdir. Bu o‘zgarishning sababi ba‘zida talaffuzdagi soddalashtirish, og‘zaki nutqda qulaylik yaratish yoki shevaga xos tovush tizimining ta‘siri bilan izohlanadi. Ushbu so‘z *tuz* bilan ishlovchi yoki *tuz* mahsulotlariga mas‘ul shaxs degan ma‘noni bildiradi. Biroq uning talaffuz shakli (duzchi) matnda xalqona, og‘zaki nutqqa yaqin, milliy ruhda bo‘yoqlangan ifoda yaratishga xizmat qiladi. Fonetik dialektizmlar matnda jonli til muhitini yaratish, personajlar nutqining hududiy va ijtimoiy muhitini aniqlashtirish, hamda badiiy asarga uslubiy va etnografik boylik olib kirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular muallif tomonidan personajlar orasidagi tafovutni, til unsurlari orqali xarakter ifodasini kuchaytirishda vosita sifatida ishlatiladi.

Ayol dashnomi, isyonkorlik ovozi uyinda, qarindosh tuqqanlarni o‘rtasida ma’qullanishi mumkin («Sozanda», 70-b) *Uyinda* so‘zi adabiy tildagi *uyida* shaklining Xorazm shevalariga xos variantidir. Bu so‘zda *n* undoshi orttirilgan bo‘lib, u grammatik emas, fonetik vazifani bajaradi. Chunki *n* tovushi orttirilishining o‘zi bilan so‘zning lug‘aviy yoki grammatik ma‘nosi o‘zgarmaydi, ammo shevaga xos talaffuz xususiyatini ifoda etadi. Ya‘ni *uyida* so‘zidagi unlilar orasiga *n* undoshining qo‘shilishi so‘zning talaffuzini yengillashtirib, og‘zaki nutqda silliq va ravon ifodalanishini ta‘minlaydi.

Asarda *juvonnamak* – juvonmarg (95-b), *talavon* – talabgor (121), *orvachilar* – aravasozlar (283) va shu kabi bir qancha fonetik dialektizmlar ham qo‘llanilgan.

Leksik dialektizmlar adabiy tilda ekvivalenti mavjud bo‘lgan shevaga xos so‘zlardir. Yozuvchi o‘z asarlarida turli xil mazmunni ifodalovchi shevaga xos so‘zlar, shuningdek, ham shevaga oid so‘z, ham uning adabiy tilda mavjud bo‘lgan ekvivalentini ham qo‘llaydi: *Qutlug‘murod ayvon yonidagi o‘choqda qiyshayibgina turgan qora tunchani suvga to‘ldirib, tagiga o‘t yoqdi.* («Sozanda», 80-b.) *Tuncha* shevag xos so‘z bo‘lib, jo‘mrakli chovgum ma’nosini ifodalaydi.

Borliq ziroat, kuzakki meva-chevaning ayni pishiqchilik davri, … hosillar talaklarga chiqarilib,… («Sozanda», 115-b.) *Tala*k Xorazm shevasida «qishki hosil jamlanadigan boloxona» ma’nosini ifodalaydi. O‘tmishda har bir xonadonning qish uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat zahirasi, shuningdek, ro‘zg‘ordagi ortiqcha buyumlar talaklarda saqlangan.

[1] Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 3.
[2] Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 24.
[3] Komil Avaz. Sozanda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 328 b.
[4] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 199.
[5] Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – B. 39.

Romanda *solma* – ariq (47-b.) *otiz* – dala, *yo‘rinja* – beda, *go‘k* – ilk ko‘karib chiqqan beda, *ildirma* – go‘k, un, tuxum, sariyog‘ aralashtirib tayyorlanadigan atalaga o‘xshash taom, *zag‘ama-tiyr* – don yelpig‘ich (xas-cho‘pdan tozalagich) (50-b.), *yop* – kanal (211), kabi juda ko‘plab leksik dialektizmlar qo‘llangan. Shuningdek, asarda adabiy tilda mavjud, ammo Xorazm shevalarida boshqa ma’noda qo‘llaniladigan so‘zlar ham uchraydi: *U butun qavmina, tuxumina isnod keltirdi* («Sozanda», 95-bet). Voha xalqi tilida *tuxum* so‘zi «urug‘-aymoq» ma’nosida qo‘llaniladi. Adabiy tildagi ma’nosida esa «*yumirta*» leksemasi faol hisoblanadi.

Xon Feruz bu dovdir dorichi harakatlaridan andak zavqlandi va xos mulozimiga: - Bir kosa issiq suv keltir, - deb buyurdi. («Sozanda», 74-b.) *Kosa* shevada piyola ma’nosida qo‘llaniladi, o‘zbek adabiy tilida kosa «suyuqlik va suyuq ovqat solish uchun ishlatiladigan idish»ni ifodalaydi. Shuningdek, asarda ko‘lcha «ekin ekish uchun tayyorlangan kichik yer» – o‘zbek adabiy tilda ko‘lcha «kichkina chuqurlikda yig‘ilib qolgan suv, kichkina ko‘l» kabi boshqa yana o‘nlab so‘zlar uchraydiki, bular asarda o‘g‘uz lahja va shevalariga xos fonetik xususiyatlar, lug‘aviy birliklar, talaffuz me’yorlari o‘z ifodasini topganligidan dalolat beradi.

Komil Avaz ijodi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos til boyligi, xalqona ruhi va milliyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida mahalliy shevalarning qo‘llanilishi badiiy ifoda vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shevaga oid so‘zlar, ayniqsa, xarakter va muhit yaratishda, obrazlarga hayotiylik bag‘ishlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday so‘zlar vositasida muallif milliy qadriyatlarni, xalq hayoti va turmush tarzini yanada mazmunli aks ettirishga erishadi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida shevaga oid so‘zlarning qo‘llanishini o‘zbek tili va badiiy adabiyotining boyligi sifatida e’tirof etishimiz mumkin. Ularning mavjudligi asarlar tilini nafaqat jonlantiradi, balki xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlab qolish va adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish borasida ham katta hissa qo‘shadi.

Rezyume. Mazkur maqolada Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi «Sozanda» romani misolida tahlil qilinadi. Unda asar tilidagi dialektizmlar fonetik va leksik ko‘rinishlarga ajratilgan holda o‘rganiladi. Dialektizmlar xarakter va muhit yaratishda, obrazlarga hayotiylik bag‘ishlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi hamda ular vositasida muallif milliy qadriyatlarni, xalq hayoti va turmush tarzini yanada mazmunli aks ettirishga erishishi ta’kidlanadi.

Resume. This article analyzes the use of dialectisms in the prose works of Komil Avaz using the example of the novel «Sozanda». It studies dialectisms in the language of the work, separating them into phonetic and lexical forms. It is emphasized that dialectisms serve as an effective tool in creating character and atmosphere, giving vitality to images, and through them the author achieves a more meaningful reflection of national values, people’s life and lifestyle.

Резюме. В данной статье анализируется использование диалектизмов в прозаических произведениях Комила Аваза на примере романа «Созанда». Изучаются диалектизмы в языке произведения, разделяя их на фонетические и лексические формы. Подчеркивается, что диалектизмы служат эффективным инструментом создания характера и атмосферы, придавая живость образам, и посредством них автор достигает более осмысленного отражения национальных ценностей, жизни и образа жизни народа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE'LLARNING METAFORIK QO'LLANILISHI

Amonova Zamira,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Tilshunoslikda fe'llar semantik tizimining markaziy birliklaridan biri bo'lib, ular nafaqat harakat va jarayonlarni, balki inson tafakkuri, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini ham ifodalash imkoniga ega. Ayniqsa, destruksiya semali maydon fe'llari dastlab jismoniy buzilish, yemirilish va parchalanish jarayonlarini anglatgan bo'lsa-da, til taraqqiyoti davomida ular metafora asosidagi ko'chma ma'nolarda qo'llanila boshlagan. Ularning ma'no ko'chishidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Mazkur fe'llar ishtirokidagi metafora hodisasi nafaqat leksik-semantik o'zgarishlar, balki kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi aniqlangan bo'lib, ularning ma'no siljish sabablarini o'zaro qardosh bo'lmagan tillarda chog'ishtirish muhimdir. Tadqiqotda nemis va o'zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi fe'llarning metaforik qo'llanilishi tahlil qilinib, ularning konnotativ ma'no kengayishi orqali insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlar va tabiiy hodisalarni ifodalash mexanizmlari o'rganilgan.

Mazkur tadqiqot nemis va o'zbek tillarida destruksiya semantikasi bilan bog'liq fe'llarning metaforik qo'llanilishini qiyosiy va kognitiv yondashuv asosda chuqur o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot usulologik asosi kognitiv semantika, qiyosiy tilshunoslik va konseptual metafora nazariyasiga tayangan holda shakllantirildi. Shu bilan birga, usulologiya destruksiya fe'llarining metaforik qo'llanishi orqali insonning ijtimoiy, psixologik va tabiat hodisalari bilan bog'liq konseptlarni qanday hosil qilishini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot materiali sifatida nemis va o'zbek tillaridagi badiiy asarlar, ilmiy-nazariy matnlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet-resurslardan olingan misollar tanlab olindi. Materiallar tanlashda asosiy mezon sifatida destruksiya fe'llarining denotativ ma'nosi, ya'ni jismoniy buzilish va vayronagarchikni ifodalashi, shuningdek, ularning metaforik, ya'ni mavhum tushunchalarni ifodalashdagi funksiyasi belgilandi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida leksik-semantik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida destruksiya semali fe'llarning lug'aviy ma'nosi, semantik tarkibi, denotativ va konnotativ komponentlari batafsil o'rganildi. Ayniqsa, fe'llarning metaforik qo'llanilishi natijasida yuzaga keladigan semantik siljishlar, ma'no kengayishlari va kontekstga qarab yuzaga keladigan yangi ma'nolar tahlil qilindi. Misol uchun, nemis tilidagi zerbrechen, explodieren va o'zbek tilidagi portlamoq, buzilmoq fe'llari kontekstga qarab ruhiy, ijtimoiy va abstrakt jarayonlarni ifodalashda metaforik kengayishlarga ega ekanligi aniqlanadi. Shu bilan birga, leksik-semantik tahlil destruksiya fe'llarining asosiy ma'nolarini aniq ajratib, ularni metaforik qo'llanishi jihatidan guruhlash imkonini berdi.

Keyingi bosqichda qiyosiy tahlil usuli asosida nemis va o'zbek tillaridagi destruksiya fe'llarining metaforik qo'llanishi chog'ishtirildi. Bu usul tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash, metaforik model va strukturalarni solishtirish, shuningdek, tilga xos konseptual xususiyatlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nemis tilida ba'zi destruksiya fe'llari texnik, ilmiy va siyosiy kontekstlarda keng metaforik qo'llanilsa, o'zbek tilida ularning metaforik qo'llanilishi ko'proq badiiy, psixologik va ijtimoiy diskurslarda kuzatiladi. Shu tarzda qiyosiy tahlil ikki tilning metaforik semantik tizimlarini, ularning konseptual ramkalarini solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda shuningdek kognitiv xaritalash (conceptual mapping) usuli keng qo'llanildi. Bu usul destruksiya fe'llarining metaforik qo'llanilishida ishtirok etuvchi manba va nishon sohalarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, jismoniy portlash va buzilish jarayonlari (manba sohasi) psixologik, ijtimoiy yoki tabiat hodisalariga (nishon sohasi) metaforik ko'chiriladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nemis va o'zbek tillarida destruksiya fe'llarining metaforik qo'llanishi nafaqat leksik va semantik darajada, balki kognitiv konseptlar va diskurs kontekstida ham farqlanadi. Shu bilan birga, kontekstual tahlil fe'llarning ekspressiv funksiyalarini ochib beradi.

Leksik-semantik, qiyosiy, kognitiv xaritalash va kontekstual tahlil usullarining qo‘llanilishi destruksiya semantikasi bilan bog‘liq metaforik jarayonlarni tizimli va chuqur yoritishga imkon beradi. Shu tarzda tadqiqot nafaqat ikki tilning metaforik semantik tizimini solishtirish, balki inson tafakkuri va konseptual faoliyatining lingvistik talqinini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv nemis va o‘zbek tillarida destruksiya semali fe’llarning metaforik qo‘llanilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi va kognitiv, qiyosiy va lingvistik tahlil uchun mustahkam usulologik poydevor yaratadi.

Tadqiqotni amalga oshirish davomida G.Lakoff, M.Johnson, V.Apresyan, V.Teliya, N.Arutyunova, M.Umarxo‘jayev, H.Jamolxonov, Sh.Safarov singari xorijiy hamda o‘zbek olimlarining ushbu masalani yoritishdagi yondashuvlari asosidagi tahlil natijalariga erishildi.

Biron predmet yoki hodisa nomining forma hamda funksiya o‘xshashligi asosida boshqa predmet va hodisaga ko‘chishini[1] anglash bilan bir qatorda, shaxs ongida kechadigan semantik siljish, g‘ayritabiiylik, normadan chetlashish, og‘ish, almashtirish, ifodaning kognitiv tahlil asosidagi analogini qo‘llash amallari aynan metaforada aks etadi.[2] Ta’kidlash joizki, metaforalar milliy madaniyatning muhim elementlarini ifodalovchi so‘zlar - konseptlar sifatida xalqning madaniyati, urf-odatlari, o‘ziga xosligi, turmush tarzi, ayrim hollarda tiqodi, geografiyasi, iqlimini o‘zida aks ettirib, yorqin badiiy obrazlarni yaratishda alohida ahamiyatga ega. H.Jamolxonov tabiricha, metafora «bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida shakllanadi: «urmoq» (qo‘l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq) - bosh leksik ma’no: Bektemir miltiq qo‘ndog‘i bilan uning peshanasiga bir urdi); «urmoq» (tanqid qilmoq - hosila ma’no; Ota-buvamni kovlab, gazetaga urib chiqishdi). «Metaforalashuv ko‘chma ma’no yaratishning eng muhim usullaridan biri hisoblanadi va til nazariyasida so‘z yasalishidan ham ko‘ra muhimroq o‘rin tutadi. Chunki metafora nafaqat nominativ birliklarni, balki tilning grammatik unsurlarini hamda matnning har qanday ma’noli bo‘lagini - gapdan tortib butun matngacha kognitiv qayta ishlaydi».[3]

Ayrim falsafiy tadqiqotlarda til va mif bir xil manbadan kelib chiqqan bo‘lib, ularning umumiy asosi metaforik tafakkurdir. Metafora shunchaki badiiy vosita emas, balki inson ongining dastlabki shakli bo‘lib, aynan u orqali inson tashqi dunyoni anglaydi.[4] Shu sababli metafora mifologik vat il tafakkurining birligi hamda farqlarini tushuntiruvchi asosiy kalit vazifasini bajaradi.[5] Inson borliqni bevosita emas, balki til, mifologiya, san’at, din, ilmda (matematika, mantiq va b.) topadigan ramziy shakllar orqali idrok qiladi. Insonning hayvondan asosiy farqi ham uning aqlida emas, balki tashqi olamni ramzlash, nomlash va ma’no kashf ettirishdadir.[6] H.Werner metaforani bir tushuncha nomining unga o‘xshash yoki muqobiliga ega boshqa soga ongli ko‘chirilishi sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda ikki mustaqil ma’no o‘rtasida hayoliy harakat yuz berib, biri ifoda darajasida boshqasini almashtiradi. Muallifga ko‘ra bunday metaforalarning kelib chiqishi mifologik tafakkur bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa so‘z va nomlarga qo‘yilgan tabular (to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytishdan qochish) muhim rol o‘ynaydi.[7] Metaforaning bevosita inson ruhiyati bilan bog‘liq tarzda vujudga kelishi to‘g‘risidagi tezislar H.Usener tadqiqida keltirilgan. Uning fikricha, inson tashqi olamdagi narsa va hodisalar bilan to‘qnash kelganda kuchli ichki hayajon va sezgi uyg‘onadi. Ana shu hayajon o‘z-o‘zidan tovushli ifodaga chiqadi va bu tovushlar asta-sekin nomga, ya’ni so‘zga aylanadi. Demak metafora paydo bo‘lgan bezak emas, balki tilning eng dastlabki, sezgi-obrazga tayangan shaklidir.[8] Metafora nafaqat so‘zlarni qayta nomlash uchun, balki murakkab va noaniq tushunchalarni ongimizga yaqinlashtirib, ularni tushunishga imkon yaratib, fikrlashning vositasi sifatida murakkab konseptual maydonlarni idrok etishga xizmat qiladi. Ihtiyoriy metaforani tahlil qilganda, ikki obyekt doirasida mavhum komponentlarning aniq, ilmiy aoslangan o‘xshashligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.[9] Bundan tashqari, metafora muammosi so‘z va gapning lug‘aviy (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) ma’nosi bilan so‘zlovchining asl nazarda tutgan ma’nosi o‘rtasidagi farq bilan bog‘liq. So‘zning o‘zida alohida «metaforik ma’no» bo‘lmaydi. U so‘zlovchining niyati orqali yuzaga keladi. Tinglovchi lug‘aviy ma’no chegarasidan chiqib, muayyan tamoyillar asosida yashirin ma’noni an-

[1] Умархўжаев М.Э. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси, Андижон, 2010, - 49 б.

[2] Петров В.В. Язык и логическая теория: в поисках новой парадигмы. Вопросы языкознания, №2, 1998, С.41

[3] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik - Toshkent: Talqin, 2005. – 157 b.

[4] Телия В. Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира И Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М., 1988. – С. 180.

[5] Cassirer E. Die Kraft der Metapher. In Sprache und Mythe. Leipzig – Berlin, 1925, S. 76.

[6] Cassirer E. Die Philosophie der Symbolischen Formen. Bd. 1 – 3. Berlin, 1923-1929. S.41-42

[7] Werner H. Die Ursprünge der Metapher. Leipzig, 1919, Kap. 3. S. 74

[8] Usener H. Göternamen. Versuch einer Lehre von der religiösen Begriffsbildung. Bonn, 1896, S. 3.

[9] José Ortega-y-Gasset. Las dos grandes metáforas. – In: Ortega-y-Gasset J. Obras Completes. Tomo II, Madrid, 1966, p. 387 – 400.

glaydi.[1] Metafora haqidagi taqqoslash va semantik o‘zaro ta’sir nazariyalari bu jarayonni to‘liq tushuntirib bera olmaydi, chunki ular lug‘aviy ma’no bilan so‘zlovchi ma’nosini aniq ajtatib ko‘rsatmaydi. Shuning uchun asosiy vazifa – lug‘aviy ma’no bilan nazarda tutilgan ma’no o‘rtasidagi bog‘lanish mexanizmini izohlashdan iborat bo‘lib qolaveradi.[2] O.Karimov metaforani ijodiy faoliyat mahsuli sifatida tasvirlar ekan, uning zarurati haqida shunday yozgan: «bir tomondan shoirga dilidagini ifodalash, ikkinchi tomondan, she’rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo‘yish muhim. Zero, metafora huddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni taqazo etadi».[3]

Kognitiv tilshunoslik asoschilari Kaliforniya universiteti tilshunos-nazaroyotchisi, professor J.Lakoff va Stenford universiteti faylasufi M.Johnsonlar tomonidan ishlab chiqilgan «Metaphors We Live By» (Biz yashaydigan metaforalar) nomli konseptual metafora nazariyasi yangicha yondashuvlar bilan to‘ldirildi. Kognitiv nazariyaga ko‘ra, matafora nafaqat badiiy vosita, balki inson tafakkurini tartibga soluvchi konseptual tizimdir.[4] Ular ko‘plab mavhum tushunchalar inson (tanasi) duch kelgan tajribalar va fazoviy tasavvurlar orqali anglanilishini aniqlashdi. Bu har bir inson o‘z atrofidagi dunyoni, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatni va kommunikatsiya jarayonlarini individual metaforik modellari ta’sirida tushunishini anglatadi. Demak, konseptual tizim ichki kognitiv olam xaritasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, muallife’lar til orqali inson tafakkuri qanday konseptual asoslar ustida qurilganini yaqqol namoyon etadigan kognitiv-metaforik modellar ustida ishlashdi. Bunda metaforalar ikki soha - «manba sohasi» (source domain) va «nishon sohasi» (target domain) o‘rtasidagi ko‘chish mehanizmi, ya’ni xaritalanish (mapping) asosida shakllanadi. Masalan, manba sohasi ko‘pincha tabiat hodisalari (erish, so‘nish, nurash), biologik jarayonlar (chirish, nobud - bo‘lish, achish), mexanik jarayonlar (buzish, ishdan chiqish, kesish, yanchish, ezish) bo‘lsa, nishon sohasi insonning ruhiy-emotsional holati, ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar yoki iqtisodiy jarayonlar bo‘ladi.

V.Gak ta’biricha metaforaning asosiy vazifasi badiidy obraz yaratishga borib taqalgan, biroq u yangi tushunchalarni belgilash uchun nomlash vazifasini ham bajargan.[5] Ushbu fikrga ergashgan holda, Ye.Kubryakova kognitiv metaforaga «yangi tushunchalarni ifodalovchi va shakllantiruvchi konseptlashtirishning bir ko‘rinishi, uning ishtirokisiz yangi bilimlarni o‘zlashtirib olish mumkin bo‘lmagan kognitiv jarayon» sifatida qaraydi. Olima fikricha, insonga xos qobiliyatlarni ishga solish, ya’ni predmetlar, fikrlar yoki odamlarni tanib olish, aniqlash, o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish bilan bog‘liq yangi ma’lumotlarni olish uchun zaruriy komponent, ya’ni konseptual metafora ishlatiladi.[6] Demak, metafora inson tafakkuri va dunyoqarashining asosiy kognitiv mexanizmi sifatida hayotimizda yangi ma’no va yangi voqelikni yaratish imkonini beradi.[7]

N.Arutyunova metaforani tavsife’lashda uning funksional jihatlariga urg‘u berdi. Olima tomonidan metaforalarga quyidagi turlarga ajratildi:

nominativ – voqelik obyektlarini nomlaydigan hamda konntekstga bog‘liq bo‘lgan metafora;

obrazli – yangi obraz yaratish, shuningdek predmetni individuallashtirishga xizmat qiladigan metafora;

kognitiv – bir predmetning boshqa turkumdagi predmet belgi va xususiyatlarini o‘zlashtirib olishi jarayonida qo‘llaniladigan metafora;

generallashtiruvchi – kognitiv metaforaning o‘ziga xos natijasi sifatida so‘zning ma’nosidagi mantiqning yo‘qolishi sabab bo‘ladigan va obtektlarni qiyoslash imkonini beruvchi mantiqiy polisemiyani hosil qiladigan metafora.[8]

A.Chudinovning kognitiv metaforalar bilan bog‘liq tasnifi ham diqqatga sazovor. Ushbu tasnif semantik tamoyillarga asoslangan bo‘lib, tilshunoslar fikricha turli metaforalarning manba sohasi bo‘yicha kategoriyalashtirilishida muhim ahamiyatga molik. Olim tomonidan odam, buyumlar, jamiyat, tabiatga oid metaforalar tasnifi qayd etilgan bo‘lib, ularning markazida inson turadi, ya’ni olam insonni o‘rab turgan voqelik haqidagi tasavvurlarga asoslanadi.[9] «Metafora tasvorlash va tushuntirish vositasi sifatida

[1] Richards I. A. The Philosophy of Retorics. New York, 1950, p.138.

[2] John R. Searle. Metaphor. In Searle J. R. Expression and Meaning. Cambridge University Press, Cambridge – London – New York, 1979, p. 76-116.

[3] Karimov O. Metafora – poetik tafakkur asosi // Jahon adabiyoti, 2014-yil, 8-son. – 187 b.

[4] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти, 2006,- 7б.

[5] Гак, В.Г. Метафора: универсальное и специфическое / В.Г. Гак. Метафора в языке и тексте: сборник. – Москва, 1988. – С. 11–66.

[6] Краткий словарь когнитивных терминов / Е. С. Кубрякова, В. З. Демьянков, Ю. Г. Панкрац, Л. Г. Лузина; Под общ. ред. Е. С. Кубряковой. – Москва: Филол. фак. МГУ, 1996. – С. 55.

[7] Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С.148.

[8] Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – С. 366.

[9] Чудинов А. П. Очерки по современной политической метафорологии: Монография / Урал. гос. пед. ун-т. –Екатеринбург, 2013 – 176 с.

istalgan sohada qo‘llanilishi mumkin: psixoterapevtik suhbatlarda ham, aviakompaniya uchuvchilari o‘rtasidagi muloqotda ham, marosim raqslarida ham, dasturlash tilida ham, kvant mexanikasida ham. Metafora qayerda uchramasin, u doimo insonga xos harakatlar, bilim va tilni idrok etishni boyitadi».[1]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nemis va o‘zbek tillarida destruksiya semasi bilan bog‘liq fe’llarning metaforik qo‘llanilishi nafaqat badiiy vosita, balki inson tafakkuri va konseptual tizimining asosiy komponenti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Metaforalarning manba va nishon sohasi orqali kognitiv xaritalanishi, semantik siljishlar va polisemik natijalari inson tafakkuri, ijtimoiy va madaniy tajribalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, metaforalar milliy madaniyat, urf-odat, turmush tarzi va ijtimoiy muhitni aks ettiruvchi konseptlar sifatida lingvistik va kognitiv tadqiqotlar uchun boy ilmiy materialni taqdim etadi.

Tilning semantik tizimi doirasida so‘zlarning ichki bog‘lanishlarini aniqlash vazifasi qo‘yilganida, ya’ni ularning strukturaviy va o‘ziga xos ma’no bog‘lanishlarini belgilashda, leksik-semantik guruhlarni tadqiq qilish zarurligi ta’kidlanadi. Leksik-semantik guruhlar tadqiqotining asosi sifatida so‘z, ya’ni tilning ko‘pma’nolilik mezoniga ega asosiy birligi tanlanadi. Leksemaning ma’no ko‘chishi ushbu leksema (mos, uyg‘un ravishda) o‘ziga biriktirib oladigan so‘zlar taksonomik sinfining o‘zgarishi bilan izohlanadi.[2] Masalan: Kemirmoq – qattiq narsani tish bilan qirib, ushatib maydalamoq; g‘ajimoq. Suyak kemirmoq. Uch-to‘rt yashar sap-sariq qizcha po‘sti archilgan sabzi kemirib turibdi. (P.Tursun, O‘qituvchi) Ushbu fe’l leksema ko‘chma ma’noda - «tatalab qiynamoq, azob bermoq» ni bildiradi. U minut sayin yuragini kemirib ketayotgan bu dardni hech kimga ayta olmas… edi. (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari) Birinchi berilgan gapdagi fe’l (sabzini kemirmoq) denotat ma’noda qo‘llanilib, ikkinchi gapda mavhum otni ifodalovchi ega (dard) ga birikkan holda, ruhiy kechinmalar kontekstida insonning ichki emotsional holatini ifodalamoqda. Bunda subyekt rolida kelgan abstrakt tushuncha (dard) jonlanib, go‘yo shaxsni «tishlari bilan kemirishi»ni ifodalashi asosida ikkilamchi ma’no hosil qilgan. Yuqoridagi misolda berilgani kabi so‘zlarning ma’no ko‘chishida taksonomik sinf o‘zgarishi nazarda tutiladigan bo‘lsa, bizni qiziqtiradigan masalalardan biri, destruksiyani ifodalovchi fe’llarning ma’no ko‘chishida aynan qaysi taksonomik sinflar ahamiyatga molik ekanligini tekshirishdir.

Nemis va o‘zbek tillaridagi DIFda metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chishida inson tajribasining turli sohalariga taalluqli konseptual asoslar ochib beriladi. DIF metaforik qo‘llanilishi boshqa leksik-semantik guruhlardan sezilarli darajada farq qiladi. Denotativ ma’noda DIF moddiy dunyodagi predmetlarning buzilishi, yemirilishi yoki yo‘q qilinishini ifodalasa, konnotativ kengayishda ijtimoiy munosabatlar, insoniy his-tuyg‘ular, siyosiy hamda iqtisodiy soha tushunchalari, shuningdek, tafakkurdagi konkret destruktiv tajribalar abstrakt hodisalarga ko‘chirilishi anglatadi: er hat mein Herz gebrochen – u ko‘nglimni sindirdi (jismoniy emas, emotsional destruksiya); jamiyat yemirilmoqda – ijtimoiy destruksiya. DIF semantik yadrosida salbiy harakatning kuchli ifodasi mujassam bo‘lgani uchun, konnotativ ma’noda ham salbiy bo‘yoqdorlik ustuvorlik qiladi - das Erlebnis hat seine Liebe abgekühlt ‘Hodisa uning muxabbatini sovitdi (so‘ndirdi)’. Biroq bu fikr DIF metaforik ko‘chimida ijobiy bo‘yoqdorlik semantikasi mavjud emasligini anglatmaydi – seine Wut war abgekühlt ‘uning g‘azabi sovidi (hovridan tushdi); ihm schmolz das Herz bei diesen Bitten‘- iltijolardan uning yuragi erib ketdi (mehribonlik va rahm-shafqat hissiyotiga to‘ldi).

Insoniyat yaralishi bilan, uning tanasi tabiat hodisalariga moslashib boraveradi. Yoz va qish, issiq va sovuqning ta’sirida yashab kelayotgan inson qishda issiqlikka, yozda sovuqqa ehtiyoj sezishi tabiiy hodisa. Demak, metaforalashuv mexanizmi inson o‘zini o‘rab turgan tashqi moddiy olamdan qabul qilayotgan va idrok etayotgan jismoniy harakatlar va hodisalarning o‘z ichki dunyosida qayta idrok etishi asosida yuz beradi. Shu bois, psixologik-metaforik qatlamda fe’llar insonning g‘azab, tushkunlik, befarqlik, nafrat, bezovtalik, dard, g‘amginlik, tashvishlanish kabi (aksariyat hollarda salbiy) ruhiy holati va iztiroblarini jismoniy jarayonlar - buzilish, sovish, yonish, qizish, qotish, portlash, qaynash kabi turli semantik maydon fe’llari (mexanik, harorat, biologik, kimyoviy va h.k) yordamida ifodalaydi. Kognitiv tilshunoslikda ishlab chiqilgan konseptual xaritalanish (G.Lakoff, M.Johnson, M.Terner) turlariga tayangan holda destruksiyani ifodalovchi fe’llarning konseptual modellarini tahlilga tortdik.

Ichki hissiyot, ruhiy holatni ifodalovchi metaforalar insonning sezgi a’zolari orqali his qilinadigan, asosan, harorat va mexanik destruksiya harakatlarini qayta idrok etilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday metaforik ko‘chimda inson emotsional holati bilan uning tanasi orasida bog‘liqlik mavjud bo‘lib, salbiy

[1] Hoffman R. R. What could reaction-time studies be telling us about metaphor comprehension? // Metaphor and Symbolic Activity: West Publishing Company, 1987. 1987, p.152.

[2] Нахрачева Г.Л. Метафоры эмоций в семантической структуре хантыйских глагольных полисемантов: модели движения и физического воздействия // Мир науки, культуры, образования. № 6 (85) 2020. – С. 665.

ta’sir avvalo, hissiyot makoni (idishi) bo‘lgan ko‘krak, yurak qismiga qaratiladi.[1] Konseptual mazmunda «his-tuyg‘u»- (g‘azab, alam, sog‘inch kabi hissiy muhit «ishtirokchilari») jismoniy obyekt - idish ichidagi modda (energiya)ga yoki narsa-buyumga qiyoslanadi: ularni qizdirish, isitish, sovutish, sindirish, yo‘qotish, saqlash, o‘chirish, vayron qilish mimkin: anwärmen - (iliqlashtirmoq, qizdirmoq) – asta-sekin isib olish, biror muhitga moslashish uchun ruhiy va jismoniy tayyorgarlikni – *Manche Interpreten müssen sich erst anwärmen*; aufkochen – (qaynab chiqmoq) – ichki g‘azabning birdan ko‘tarilib chiqishi, avval tinchlangan mojaroning qaytadan kuchayishi – *In mir kochte die Wut auf*; kochen, sieden (qaynamoq) – o‘ta, haddan tashqari g‘zalablanishni, hayajon yoki kuchli bezovtalikni – *das Blut kochte ihm in den Adern; In ihm siedete es vor Wut* ifodalaydi. O‘zbek tilida muqobil ravishda *yonmoq* fe’li *tutaqmoq, jahli chiqmoq*; *asabiylashib ketmoq* ko‘chma ma’nolari ega. *Olimjon yotig‘i bilan so‘zlagan bo‘lsa-da, rais yonib ketdi*. (H.Nazir, Qanotlar). Bundan tashqari, ushbu fe’l orqali g‘azabning kuchayishi, avj olishi, alangalanishi aks ettiriladi. *Hozir Xalilovning nafrati yonib turibdi*. (I.Rahim, Ixlos). Hissiyotlar darajasi, jadalligining susayishini, pasayishini ifodalash uchun esa *erkalten – seine Liebe zu ihr ist erkaltet*; *unser Verhältnis, unsere Freundschaft erkaltet immer mehr; jmds. Herz, Lächeln erkaltet; abkühlen* fe’llari qo‘llaniladi: *ihr Verhältnis war merklich, spürbar abgekühlt*.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi *sovimoq* fe’li ko‘chma ma’noda ko‘ngli qolib, mehr-muhabbatini, maylini, ixlosini yo‘qotmoq ma’nosiga ega – ishdan sovimoq. *Darslardan sovidim, hech kim bilan ishim yo‘q.* (A.Muxtor, Davr mening taqdirimda). *Muzlamoq* fe’lining ma’no ko‘chishida bir-muncha kuchliroq hissiyot, ya’ni *sezgisiz holga tushmoq, qotib qolmoq* ma’nolari anglashiladi. *Qo‘rqqanimdan, butun vujudim muzlab, taxta bo‘lib qoldim*. (E.Raimov, Ajab qishloq).

Hissiy holatlarni ifodalashda yana bir muhim manba – qotib qolish jarayonidir. *Erstarren* fe’li dastlab jismoniy moddalar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ko‘chma ma’noda u qo‘rquv yoki shok holatida harakat qobiliyatining to‘satdan yo‘qolishini ifodalaydi. *Vor Schreck erstarrt* birikmasida hissiy zarba organizmning «muzlab qolishi» orqali konseptuallashtiriladi. Shunga o‘xshash tarzda *einfrieren* fe’li ham tashqi jismoniy jarayondan ruhiy holatga ko‘chiriladi: *«Ein Lächeln friert auf dem Gesicht ein»* ifodasi tirik va dinamik hissiyotning qimirlamas niqobga aylanishini tasvirlaydi. *Abtöten* fe’li hissiyotlarni tirik mavjudot sifatida tasavvur qilishga asoslanadi – *«Er versuchte, seine Sehnsucht abzutöten»* jumlasida sog‘inchga qarshi ongli kurash obrazi yaratiladi. *Verdauen* esa tashqi va og‘ir ruhiy tajribani asta-sekin qabul qilish va ichki tizimga moslashtirish jarayonini bildiradi, masalan: *«Er konnte den Schock kaum verdauen»*. Aksincha, *aufwühlen* yoki *«Wühlen in der Brust»* kabi ifodalar hissiy muvozanatning buzilishi va ichki beqarorlikni ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, hissiy holatning keskin pasayishi yoki ruhiy inqiroz *abstürzen* fe’li orqali ifodalanadi – *«Nach der Trennung ist er völlig abgestürzt»* jumlasida psixologik barqarorlikning yo‘qolishi, jismoniy qulash metaforasi bilan beriladi. Xuddi shunday, *ausbrennen* fe’li dastlab yonish jarayonini anglatgan bo‘lsa, ko‘chma ma’noda ruhiy holdan toyishni va depressiv holatni ifodalaydi. Ijobiy hissiyotlarning va hayajonning haddan tashqari kuchayishi esa *«Platzen vor Stolz»* kabi ifodalarda jismoniy portlash obrazi orqali tasvirlanadi.

Ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq metaforalar «jamiyat – yaxlitlik (butunlik)» konseptual modeli asosida kishilarning o‘zaro, boshqaruv tizimi yoki hukumatga nisbatan munosabatlarini, ijtimoiy mavqe, nizolar, vakolatlardagi cheklovlar, tuzumning ichki tomondan yemirilishi va boshqa qator vaziyatlarni aks ettiradi – *die Brücken zur Vergangenheit abbrechen* – (so‘zma-so‘z) *o‘tmish ko‘priklarini buzib tashlamoq* – o‘tmish bilan aloqani uzish, eski siyosatga qaytmaslik, ya’ni o‘tmishdagi faoliyatni butunlay to‘xtatmoq, munosabatlarni uzmoq, bir ishni boshqa hech qachon takrolamaslik va unga qaytmaslikni bildiradi. *Russlands Präsident [Wladimir Putin], so glaubt der Außenpolitik Experte [Elmar Brok], habe alle Brücken hinter sich abgebrochen* (Neue Westfälische, 02.04.2022); *Eine Familie hat in Deutschland alle Zelte abgebrochen, um ihren Traum zu leben: einen Roadtrip von Kanada nach Patagonien* (Die Welt, 18.04.2020);

Shuningdek *«Zelte abbrechen»* iborasi «yashab turgan joyini tark etmoq, (tashlab) ketmoq» - *Eine Familie hat in Deutschland alle Zelte abgebrochen, um ihren Traum zu leben: einen Roadtrip von Kanada nach Patagonien* (Die Welt, 18.04.2020); stutzen – (butani, shoxlarni kesmoq) – hokimiyat, kuch, imtiyozlarning cheklanishini kamaytirilishini ifodalaydi.

Auseinanderbrechen fe’li ham ichki uyg’unlik va barqarorlikning yo‘qolishiga ishora qiladi: *«Die Regierung brach auseinander, weil die Grünen die Koalition aufkündigten…»* (Le monde diplomatique, 10.12.2010). Bunda siyosiy yoki ijtimoiy birlik bir butunlik sifatida tasavvur qilinib, u ichki taranglik sababli parchalanadi.

[1] O‘sha asar, 665 b.

Ijtimoiy jarayonlar dinamikasini ifodalaydigan aufwärmen ko‘chma ma’noda jamiyatdagi mojarolar butunlay tugamaganini, eski, ilgari bo‘lgan kelishmovchilikni qayta boshlash, «qizdirib» yana muhokamaga olib chiqish, avjiga chiqarishni ko‘rsatadi: *«Den Streit aus dem vergangenen Jahr wollte sie am Montag nicht mehr aufwärmen* (Südkurier, 15.08.2023)»; *Auch die Idee eines zweistufigen Mechanismus, wie sie der Bundesrat in der Reform 2020 vorsah, wird wieder aufgewärmt* (Bote der Urschweiz, 31.08.2023).

Backen, braten, grillen, rösten kabi yumush fe’llari, avvalo, taom tayyorlash jarayonlaridagi termik ishlov berishni anglatadi. Kognitiv-semantik jarayonda bu fe’llar ijtimoiy hayot, insonlar orasidagi munosabatlar yoki global jarayonlarga ko‘chirilganda, «tirik jism – issiqlik ta’sirida o‘zgaruvchi obyekt» modeli asosida yangi mataforik ma’nolarni hosil qiladi. Harorat ta’siridagi transformatsiya (yumshash, qotish, kuyish, pishish, qizarish) ijtimoiy yoki psixologik holatlarning bosqichma-bosqich keskinlashuvi, pishib yetilishi, kuchayishi yoki izdan chiqishini ifodalash uchun qulay konseptual asos yaratadi. Masalan, nemis tilida *‚Die Diskussion ist völlig ausgeartet und wurde regelrecht angebraten‘* jumlasida *anbraten* fe’lining metaforik qo‘llanilishi bahs jarayonining «qizib ketishi», ya’ni tarafe’lar o‘rtasida kelishuv ehtimoli kamayib, tortishuv keskin tus olganini bildiradi. ‚*Die Stimmung war angeheizt‘* – ijtimoiy muhitning keskinlashuvi, odamlar orasidagi taranglikning ortishi haroratning ko‘tarilishi orqali tasvirlanadi.

O‘zbek tilida ham mojaro pishib yetildi - biror voqea, mojaro, muammo asta-sekin kuchayib, to‘liq shakllanib, portlash darajasiga yaqinlashayotgani, ya’ni yaqin orada sodir bo‘lishi yoki avj olishi kutilayotganini anglatadi: *G‘arbdagi fuqarolik jamiyati muhitida katta mojaro pishib yetilmoqda* (kun.uz 31.10.2022). *Vaziyat qizib ketdi* – odamlar o‘rtasidagi bahs jiddiylashganda, ishlar tartibsizlashganda yoki keskin pallaga kirganda, holat juda keskinlashib, taranglashib, bahs yoki mojaro kuchayib ketishini bildiradi: *«El-Klasiko» har galgidek nafaqat gollar, balki ehtiroslarga ham boy kechdi. O‘tgan yakshanba kuni bo‘lib o‘tgan «Barselona» – «Real Madrid» o‘yinida ham vaziyatlar qizib ketdi* (Zamin.uz, 28.10.2025.).

Hissiyotlar ko‘pincha tabiat va inson tanasida kechadigan jarayonlari orqali tasvirlansa, kognitiv faoliyatlar til tizimida asosan hunarmandchilik, oziq-ovqat tayyorlash hamda mexanik ishlov berish sohalaridan olingan metaforalar yordamida ifodalanadi. Bu holat inson tafakkurining chuqur kognitiv tuzilmasini namoyon etadi: o‘ylash, so‘zlash va ma’lumotni qayta ishlash jarayonlari mavhum jarayonlar sifatida emas, balki moddiy mehnat shakllari sifatida konseptlashtiriladi. Til yog‘och yoki metall kabi ishlov beriladigan material sifatida, fikrlar hazm bo‘lishi lozim bo‘lgan oziqa sifatida tasavvur qilinadi. Natijada kognitiv jarayonlar tana tajribasiga tayangan holda idrok etiladi. Mazkur metaforik tizimning yaqqol namunasini *durchkauen* fe’li tashkil etadi. Ushbu birlik ko‘chma ma’noda muayyan mavzuni qayta-qayta muhokama qilish yoki chuqur tahlil etishni anglatadi. Metaforaning manbai sifatida oziq-ovqatni chaynash jarayoni xizmat qiladi: oziqa tanaga singishi uchun maydalanishi va qayta ishlanishi zarur bo‘lgani kabi, axborot ham ong tomonidan «hazm qilinishi» uchun takroran ko‘rib chiqilishi lozim. Salbiy baho esa chaynash jarayoni ortiqcha cho‘zilib, endi yangi mazmun yoki bilim bermay qolgan holatlarda yuzaga keladi. Bu orqali tafakkur va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib beriladi: fikrlash - hazm qilishga qiyoslanadi. *‚Er hat das Thema, den Stoff in fünf Unterrichtsstunden durchgekaut‘*. O‘zbek tilidagi chaynamoq fe’li esa ko‘chma ma’noda salbiy jihatdan idrok etiladi: bir gapni hadeb qaytaravermoq; gapni cho‘zmoq; hal bo‘lgan masalani yana aylantirib muhokama qilavermoq‘ (Bo‘taboy) O‘zi ham aniq-ravshan bir so‘z aytolmay, gapni chaynay boshladi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Aqliy faoliyatning yana bir muhim konseptual modeli feilen fe’li orqali namoyon bo‘ladi. «Lange an seinem Konzept feilen» birikmasida ijodiy tafakkur hunarmandning puxta mehnati bilan tenglashtiriladi. Bu metafora fikrlar dastlab xom va nomukammal holatda bo‘lishini, ularni aniqlashtirish, silliqlash va takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Shu tariqa kognitiv jarayon mukammallikka yo‘naltirilgan uzluksiz mehnat sifatida tasvirlanadi. O‘zbek tilida sayqallamoq: mukammallashtirmoq, ishlab kamolotga yetkazmoq, silliqlamoq ‚Asarni sayqallamoq. Ijodni sayqallamoq‘ hamda charxlamoq: O‘stirmoq, o‘tkirlamoq, peshlamoq Aqlni charxlamoq kabi fe’llar orqali ushbu jarayon kuzatiladi.

Me’yorlar va shaxsiy xususiyatlar qat’iy va o‘zgarmas emas, balki tashqi bosim ostida shaklini o‘zgartira oladigan material sifatida tasavvur qilinadi. Bu tasavvur biegen va verbiegen fe’llari orqali ham ifodalanadi: «Die Regeln zu seinen Gunsten biegen» yoki «der Charakter wurde verbogen» Ushbu metaforalar manipulyatsiya, hokimiyat va moslashuv tushunchalarini ochib beradi. Qoidalar tabiat qonunlari emas, balki ijtimoiy va madaniy talablar taqazosi bilan «egilishi» mumkin bo‘lgan obyektlar sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilida ushbu jarayon insonning o‘zi yoki uning fe’l atvorini jilovlashga qaratiladi: bukmoq - sindirmoq, yengmoq, tobe qilmoq. Biroq faktlar, hujjatlar, juda ko‘p odamlarning guvohliklari uning qaysarligini asta-sekin qayirib, nihoyat bukib qo‘ydi (H.G‘ulom, Mash’al). Huddi shu kabi buklamoq: bo‘ysundirmoq, tobe qilmoq, yengmoq. Odamga

egiladiganga o‘xshamaydi bu bola, siz bir gap bilan ikki buklab qo‘ydingiz. (I.Rahim, Ixlos).

Parchalanish, vayron bo‘lish semantik maydonining yana bir muhim qatlami sinish va yirtilish jarayonlariga asoslangan metaforalardan tashkil topadi. «Eine Freundschaft zerbricht» yoki «die Regierung bricht auseinander» kabi ifodalar ijtimoiy munosabatlar va institutlarni mexanik bosim ostida sinadigan moddiy obyektlarga qiyoslaydi. Shu kabi «Do‘stlik/qarindoshlik rishtalari uzilmoq» Zerfe’leischen fe’li esa ichki vayronalikni ifodalashda qo‘llanadi: «sich mit Vorwürfen zerfe’leischen» birikmasida shaxsning o‘ziga nisbatan ruhiy tajovuzi tana parchalanishi tasvirlanadi. Shu semantik doirada zerbröckeln, zerfallen va zerfasern kabi fe’llar ham mavjud bo‘lib, ular asta-sekin yemirilish jarayonlarini ifodalaydi. Jamiyatlar, g‘oyalar yoki madaniyatlar vaqt o‘tishi bilan tosh yoki mato singari maydalanib, parchalanib boradi. Bu metaforalar moddiy bo‘lmagan tuzilmalarni moddiy buzilish obrazlari orqali tushuntirish imkonini beradi.

Yana bir asosiy yo‘nalish portlash va yorilish metaforalari bilan bog‘liq. Sprengen, explodieren va zerbersten kabi fe’llar o‘zgarishlarning keskinlik, kutilmaganlik va zo‘ravonlik xususiyatlarini ta’kidlaydi. «Die Preise explodieren» jumlasida iqtisodiy jarayon, ya’ni narx-navoning ko‘tarilishi fizik portlash orqali ifodalanadi, bu esa nazoratdan chiqish va chegaralarning buzilishini anglatadi. Ahamiyatli jihati shundaki, portlash metaforasi faqat salbiy holatlarga xos emas: ijobiy hissiyotlar ham «vor Stolz platzen» kabi birikmalarda ayni obraz manbai orqali ifodalanadi. Bu esa jadallik va keragidan ortiqlik holatini ta’kidlash uchun umumiy kognitiv mexanizm sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tanaga jarohat yetkazish bilan bog‘liq metaforalar ham keng tarqalgan. Ular ruhiy va ijtimoiy darajada chuqur iz qoldiruvchi ta’sirni ifodalaydi. Bu metaforalar destruksiya tushunchasini jismoniy sathdan ramziy darajaga ko‘chiradi va shu orqali nutqning hissiy ta’sir kuchini oshiradi. «Seine Worte verwundeten ihn» jumlasida til (so‘zlar, gaplar) orqali amalga oshirilgan harakat jismoniy jarohat bilan tenglashtiriladi. O‘zbek tilida tig’lamoq – ruhiy yoki ma’naviy azob berib, ezib, yuragini dog’lamoq, yaralamoq ma’nolariga ega. ‚Bu o‘ylar kichik Umidni azoblar, bag’rini tig’lardi‘. Mirmuxsin, Umid. Tirnab tashlash orqali putur zetkayish – zerkratzen: die ständigen Zweifel zerkratzten sein Selbstvertrauen. G‘am-g‘ussa, azob-uqubatlarning insonning yuzida oddiy ajin tushurib emas, go‘yo ariq qazib katta izlar qoldirgandek ifidalanadi: Sorge und Enttäuschung hatten sein Gesicht zerfurcht.

Ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan fe’llar tahlilida alohida ajralib turadigan muhim semantik maydonlardan biri tabiiy inqiroz va yemirilish jarayonlari bilan bog‘liq metaforalardir. Parchalanishga oid metaforalar keskinlik, portlovchanlik va fojeaviy ta’sir bilan tavsiflansa, tabiatga asoslangan obrazlar sekinlik, uzluksizlik va muqarrarlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu metaforalar orqali til o‘tkinchilik, ichki so‘nish, madaniy tanazzul yoki hissiy sovuqlashuv kabi murakkab va bevosita ko‘zga ko‘rinmaydigan jarayonlarni ifodalash imkonini beradi. Bu semantik maydonning eng samarali qatlamlaridan biri – o‘simliklar hayotiga oid metaforalardir. So‘lish va gullashning yakunlanishi bilan bog‘liq fe’llar inson hayoti, go‘zallik yoki ijtimoiy munosabatlarga ko‘chiriladi. Masalan, «go‘zallikning so‘lib borishi» obrazi yoshlik va jozibaning abadiy emasligini, balki gullar kabi vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishini ifodalaydi. Ushbu metafora hayotning davriy va nihoyaga ega tabiatini ta’kidlab, mavhum yo‘qotishlarni aniq, ko‘z oldiga keltirish mumkin bo‘lgan jarayonga aylantiradi. Shu bilan birga *qurib qolish* jarayoni bilan bog‘liq metafora ham muhim o‘rin tutadi. *Qurish* – ho‘l, namlikdan holi bo‘lishni, quruq holga kelishni anglatadi (Ўзбек тилининг изоҳли луғати). Metaforik ma’noda esa bu jarayon insonning ruhiy yoki hissiy holatini ifodalash uchun ishlatiladi. «Ein völlig vertrockneter (unlebendig, starr wirkender) Mensch» – «qurib qolgan odam» deganda jismonan emas, balki ichki jihatdan sovigan, hayotiy quvvatdan ayrilgan, charchagan shaxs nazarda tutiladi. Bu metafora biologik jarayon orqali ruhiy bo‘shashuvni ifodalash imkonini beradi.

Chirimoq, yemirilmoq, buzilib bormoq kabi fe’llar dastlab organik moddalarning asta-sekin yemirilishini bildirsa, ko‘chma ma’noda ular jamiyat, madaniyat, qadriyatlar yoki ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan qo‘llanadi. Bunday qo‘llanilishda tanazzul birdan yuz beradigan hodisa sifatida emas, balki ichdan boshlab, sekin-asta rivojlanadigan jarayon sifatida ko‘rsatiladi. Metaforaning kuchi ham aynan shunda – u faqat yakuniy holatni emas, balki yemirilishning davomiy jarayonini ham anglatadi. Shu bilan birga, ob-havo ta’sirida yemirilish obrazlari ham muhim semantik vazifani o‘zida jamlaydi. Tashqi omillar ta’sirida asta-sekin yemiriladigan moddalar orqali inson qiyofasi, ijtimoiy tuzilmalar yoki g‘oyaviy tizimlar tasvirlanadi. Mazkur turdagi metaforalar tashqi bosim va vaqtning obyekt ichki mohiyatga ta’sirini ko‘rsatadi: foydalanilmay yotgan narsalarning qadrsizlanishi yoki e’tibordan chetda qolishi «chirib ketishi» – *«die Akten verroteten im Keller»*, kitoblar ishlatilmay, o‘qilmay yotib qolishi «mog‘orlab ketishi»– *«Meine Bücher verschimmeln»* kabi misollar orqali ularning ichki zarar ko‘rishiga yorqin misol bo‘la oladi.

Destruksiyani ifodalovchi fe’llarning ko‘chma ma’nolari tahlilida ular orqali munosabatlar, hissiyotlar, ayniqsa, salbiy mazmunga ega obrazlarning

ochib berilishi tiborni tortadi: yemirilish, charchash va og‘riq bilan bog‘liq tasvirlar til amaliyotida kuchli o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, kundalik hayot va jismoniy tajribalarga tayangan sodda, ammo ta’sirchan metaforalar ham mavjud bo‘lib, ular dramatik keskinlik bilan aniqlik o‘rtasida muvozanat yaratadi.

Tadqiqotdagi kuzatuvlar kognitiv metafora nazariyasining asosiy g‘oyalarini tasdiqlaydi: metafora - bu faqat lingvistik hodisa emas, balki inson tafakkurining tub tuzilmasidir. Vaqt, jamiyat, siyosat yoki hissiyotlar kabi mavhum sohalar aynan tana tajribalari asosida tushuniladi va izohlanadi. Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, nemis va o‘zbek xalqlarida, so‘z ma’nolari ko‘chishi, o‘zgarishi jarayoni ba’zi holatlarni hisobga olmaganda, aynan bir xil.

Rezyume. Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillarida destruksiya semantikasi bilan bog‘liq fe’llarning metaforik qo‘llanilish xususiyatlari qiyosiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi destruksiyani ifodalovchi fe’llarning metaforik ma’no kengayish jarayonlarini aniqlash, ularning leksik-semantik tuzilmasi va kognitiv mexanizmlarini ochib berish hamda o‘zaro qardosh bo‘lmagan tillarda mazkur hodisaning o‘xshash va farqli jihatlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun destruksiya semali fe’llarning konnotativ ma’no siljishlarini tahlil qilish, metaforik ko‘chimning konseptual asoslarini aniqlash va tillararo semantik nomutanosiblik sabablarini izohlash vazifalari belgilandi.

Tadqiqot materiali sifatida nemis va o‘zbek tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy matnlar hamda ommaviy axborot vositalaridan olingan namunalar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida leksik-semantik tahlil, qiyosiy tahlil, kognitiv xaritalash va kontekstual tahlil usullari qo‘llanildi. Ushbu usullar yordamida destruksiya fe’llarining metaforik qo‘llanishi orqali insonning ruhiy holati, ijtimoiy munosabatlar va tabiiy hodisalar qanday ifodalanishi tizimli ravishda o‘rganildi.

Tahlil natijalari destruksiyani ifodalovchi fe’llarning metaforik qo‘llanilishi har ikki tilda faol va serqirra ekanini ko‘rsatdi. Bunday metaforik kengayishlar semantik siljishlarga olib kelib, destruksiya konseptining kognitiv talqinida tillararo farqlar mavjudligi qayd etildi.

Olingan natijalar nemis va o‘zbek tillarida destruksiya semantik maydonini chuqurroq anglashga, qiyosiy tilshunoslik va kognitiv semantika doirasidagi tadqiqotlarni boyitishga, shuningdek, tarjima va kompyuter lingvistikasi sohasida yuzaga keladigan semantik muammolarni bartaraf etishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article investigates the metaphorical usage of verbs expressing destruction in German and Uzbek from a comparative lexical-semantic perspective. The primary aim of the study is to identify the mechanisms of metaphorical meaning extension in destruction-related verbs and to reveal their semantic and conceptual characteristics across two typologically unrelated languages. The research seeks to explain how destruction semantics undergoes connotative shifts and how these shifts are motivated by underlying cognitive processes. Special attention is paid to the reasons for the expansion of the destruction semantic field and to the cross-linguistic similarities and divergences in metaphorical conceptualization.

The empirical material of the study consists of examples drawn from literary texts, academic discourse, and mass media sources in both German and Uzbek. A combination of lexical-semantic analysis, comparative analysis, cognitive mapping, and contextual analysis is employed to ensure a comprehensive examination of the data. These methods allow for a systematic exploration of how destruction verbs are metaphorically used to conceptualize abstract domains such as emotional states, social relationships, and natural or societal processes.

The findings demonstrate that metaphorical extensions of destruction verbs are highly productive in both languages. However, despite certain conceptual similarities, notable differences are observed in the scope, frequency, and cognitive motivation of these metaphors. Such differences often lead to semantic mismatches, particularly in translation practices, where literal equivalents fail to convey the intended metaphorical meaning. The study reveals that these mismatches stem from language-specific conceptual models rather than purely lexical discrepancies.

The results of the research contribute to a deeper understanding of destruction semantics within cognitive linguistics and comparative linguistics.

Резюме. В данной статье рассматривается метафорическое употребление глаголов, выражающих разрушение, в немецком и узбекском языках с сопоставительной лексико-семантической точки зрения. Основная цель исследования – выявить механизмы метафорического расширения значения глаголов, связанных с семантикой разрушения, а также раскрыть их семантические и концептуальные

характеристики в двух типологически неродственных языках. В работе объясняется, каким образом семантика разрушения претерпевает коннотативные сдвиги и какие когнитивные процессы лежат в основе этих изменений. Особое внимание уделяется причинам расширения семантического поля разрушения, а также межъязыковым сходствам и различиям в метафорической концептуализации.

Эмпирический материал исследования включает примеры из художественных текстов, научного дискурса и средств массовой информации на немецком и узбекском языках. Для комплексного анализа данных применяются методы лексико-семантического анализа, сопоставительного анализа, когнитивного моделирования и контекстуального анализа. Эти методы позволяют системно исследовать, каким образом глаголы разрушения метафорически используются для концептуализации абстрактных сфер, таких как эмоциональные состояния, социальные отношения, а также природные и общественные процессы.

Результаты исследования показывают, что метафорические расширения глаголов разрушения отличаются высокой продуктивностью в обоих языках. Однако, несмотря на определённые концептуальные сходства, выявлены заметные различия в объёме, частотности и когнитивной мотивации этих метафор. Подобные различия нередко приводят к семантическим несоответствиям, особенно в переводческой практике, когда буквальные эквиваленты не передают предполагаемого метафорического значения. Установлено, что данные расхождения обусловлены языково-специфическими концептуальными моделями, а не исключительно лексическими различиями.

Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию семантики разрушения в рамках когнитивной и сопоставительной лингвистики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«MAXZAN UL-ASROR" DOSTONINING BADIIY-TASVIRIY VOSITALARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ne'matova O'g'iloy Akram qizi,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

«Maxzan ul-asror» dostonida Haydar Xorazmiy badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalangan. Bu san'atlar asarning badiiy qimmatini oshirishga va muallifning g'oyaviy maqsadini yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Olim Jamoliddin Jo'rayevning asar xususidagi quyidagi ta'rifi aynan topib aytilgan: "Haydar Xorazmiy nazmning ta'sir kuchiga yuksak baho berib, qiyomiga yetgan hikmatli satrlar, xalq maqoli darajasiga yetgan baytlarga yetuk san'atkorona durri-javohir kabi falsafiy-axloqiy fikrlarni singdirib yuborgan. Shu bilan birga, badiiy asarning shakl va mazmuni bir-birini to'ldirishi va mos kelishi lozimligini ham e'tibordan sobit qilmagan"[1]. Haqiqatan ham, so'z sarrofi bo'lgan Haydar Xorazmiy dostonning badiiy-estetik jihatlariga mohirona yondashib, har bir so'zning ham mazmuniy jihatdan, ham tarbiyaviy jihatdan o'z o'rnida qo'llanishiga katta e'tibor qaratgan.

Tashbeh (o'xshatish) san'ati va uning turlari. Dostonda tashbehning turli ko'rinishlari qo'llanilgan bo'lib, ular asosan tasavvufiy mazmunni ifodalashga qaratilgan. O'xshatishlar ko'pincha tabiat hodisalari, osmon jismlari va ma'danlar bilan bog'liq. Masalan:

«Baş çıkarıp ışk *köngül ceybidin*
Başladı söz nusha-i lâ-reybidin»[2]

Ushbu baytda ishq tuyg'usi jonli mavjudotga o'xshatilgan bo'lib, uning ko'ngil cho'ntagidan bosh chiqarishi tasvirlanmoqda. Bu o'rinda murakkab tashbeh qo'llanilgan.

Istiora (metafora)larning o'ziga xosligi. Asarda istioraning go'zal namunalari uchraydi. Ayniqsa, muallifning tasavvufiy tushunchalarni ifodalashda qo'llagan istioralari e'tiborga molik:

«*Tarttı ol mâye-i huş-yârlıg*
Cân közige sürme-i bîdârlıg»[3]

Bu misralarda «huşyorlik moddasi» va «uyg'oqlik surmasi» kabi istioralar qo'llanilgan bo'lib, ular ruhiy holatlarni moddiy narsalar orqali ifodalashga xizmat qilgan.

Tazod (antiteza) va talmeh san'atlarining badiiy vazifasi. Tazod san'ati asarda qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash orqali ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan. Masalan, yorug'lik-zulmat, ma'rifat-jaholat, vafo-jafo kabi zid ma'noli so'zlar orqali fikr ta'sirchanligiga erishilgan.

Talmeh san'ati esa tarixiy voqealar, diniy-tasavvufiy rivoyatlarga ishora qilish orqali asarning g'oyaviy mazmunini boyitishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Qur'on qissalari va payg'ambarlar tarixi bilan bog'liq talmehlar ko'p uchraydi.

Mubolag'a va husni ta'lil san'atlarining qo'llanilishi. Mubolag'a san'ati dostonda voqea-hodisalarning ta'sir kuchini oshirish, qahramonlarning xislat va fazilatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatilgan. Husni ta'lil esa hodisalarning yuz berish sababini go'zal va o'ziga xos tarzda izohlashda qo'llanilgan.

Lafziy san'atlar (saj', tarse', tajnis)ning o'rni. Asarda lafziy san'atlarning qo'llanilishi ham diqqatga sazovor. Saj' (nasrdagi qofiya) asosan nasriy parchalarda, tarse' (misralarning o'zaro mutanosib kelishi) esa she'riy parchalarda keng qo'llanilgan. Tajnis (o'zakdosh so'zlarni qo'llash) san'ati esa so'z o'yini orqali ma'noni kuchaytirish vazifasini bajargan:

«*Zevk u heves tilge revânlık birip*
Söz demine rûh-feşânlık birip»[4]

Bu baytda «revânlık» va «rûh-feşânlık» so'zlari orasida tarse' san'ati qo'llanilgan.

Haydar Xorazmiy badiiy tasvir vositalarini qo'llashda an'anaviy usullardan foydalangan bo'lsa-da, ularga yangicha mazmun va shakl bag'ishlagan. Ayniqsa, tasavvufiy mazmunni ifodalashda bu san'atlardan unumli foydalangan. Uning badiiy mahorati shundaki, murakkab falsafiy-tasavvufiy g'oyalarni sodda va tushunarli badiiy vositalar orqali ifodalay olgan.

«Maxzan ul-asror» dostoni til xususiyatlari jihatidan turkiy adabiyotining muhim durdonalaridan biri sifatida so'z boyligi rivojiga munosib hissa qo'sha olgan asar sifatida e'tirof etiladi. Asar leksikasida

[1] Jo'rayev J.Haydar Xorazmiyning "Gulshan-ul asror"asari matniy-qiyosiy tadqiqi. – Jizzax: Ilm nuri print, 2025. – B.172.
[2] Gözütok, Avni (2008). Haydar Tilbe, Mahzenü'l-Esrâr (Gramer-Metin-Dizin-Tıpkıbasım). Erzurum: Fenomen Yay. S. 59.
[3] Eraslan, Kemal (1993). "Çağatay Edebiyatı". İslâm Ansiklopedisi. C. 8. İstanbul: TDV Yay. s. 170-176.
[4] Kahhar, Tahir (2000). "Haydar Harezmî". Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay. s. 431-434.

arab-fors va turkiy so‘zlarning uyg‘unligi, tasavvufiy istilohlarning qo‘llanilishi, frazeologik birliklarning o‘ziga xos jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologik jihatdan asarda turkiy (-lık/-lik, -çı/-çi), forsiy (-bân, -kâr) va arabiy (masdar, sifat shakllari) so‘z yasalish usullari faol ishlatilgan.[1] Bu esa asarning til xususiyatlarini yanada boyitgan.

Asarda frazeologik birliklar va maqollar ham muhim o‘rin tutadi. «Baş çıkarıp» (bosh chiqarib - paydo bo‘lmoq), «til tutmoq» (gapirmoq), «köngül ceybi» (ko‘ngil cho‘ntagi - qalb) kabi frazeologizmlar asarning badiiy qiymatini oshirgan. Shuningdek, turkiy, fors va arab maqollarining badiiy talqini ham asarning til boyligini ko‘rsatadi.

Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u arab, fors va turkiy til unsurlarini mohirona uyg‘unlashtirgan. Har bir so‘z o‘z o‘rnida qo‘llanilib, ma’no nozikliklari, badiiy tasvir va musiqiylikni ta’minlashga xizmat qilgan.

«Maxzan ul-asror» dostonining she’riy tuzilishi turkiy adabiyotining eng yetuk namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Asar aruzning «müfte’ilün müfte’ilün fâ’ilün» vaznida yozilgan bo‘lib, bu vazn masnaviy janri uchun an’anaviy hisoblanadi va Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostonida ham qo‘llanilgan.[2]

Asarda aruz vaznining qo‘llanilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hijolar tizimida qisqa va cho‘ziq hijolarning mutanosib kelishi, turoqlarning izchil joylashuvi, ichki ohangning ta’minlanishi kabi jihatlar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, zihoflarning o‘rinli qo‘llanilishi, imola va taqte’ning to‘g‘ri ishlatilishi hamda fonetik o‘zgarishlarning hisobga olinishi kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiy so‘zlarning aruz qolipiga moslashuvida cho‘ziq unlilarning ifodalanishi, qisqa unlilarning talaffuzi va bo‘g‘in tuzilishining vaznga moslanishi kabi jihatlar e’tiborga molik. Haydar Xorazmiy turkiy so‘zlarni aruz qolipiga mohirona moslashtira olgan.

Dostonda qofiya tizimi ham mukammal ishlab chiqilgan. Mutlaq qofiya, muqayyad qofiya va muraddaf qofiya kabi qofiya turlaridan unumli foydalanilgan.[3] Radif turlarida esa fe’l radiflar (birip, tutdı, tolgadı), ot radiflar (yolın, kolın) va qo‘shma radiflar (birip-kelip) keng qo‘llanilgan. Qofiya va radifning o‘zaro munosabati asar kompozitsiyasiga xizmat qilgan.

Badiiy nutq ohangi va musiqiylik asarning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu jihatdan tovush takrorlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan:

«*Tilbeligim tuttı dimâgım yolın*
Tolgadı bu nagme kulagım kolın»

Bu baytda «t» va «l» tovushlarining takrori (alliteratsiya) orqali musiqiylik ta’minlangan.[4] Shuningdek, assonans va so‘z o‘yini kabi vositalar ham asarning ohangdorligini oshirgan.

Ritm-intonatsion vositalar ham dostonda keng qo‘llanilgan. Turoqlarning izchil kelishi, pauza va urgularning to‘g‘ri taqsimlanishi, sintaktik parallelizm kabi usullar she’riy nutqning ravonligini ta’minlagan. Ichki qofiyalar, bo‘g‘in tuzilishidagi mutanosiblik va tovushlar garmoniyasi asarning musiqiy jihatini kuchaytirgan.

Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u aruz vaznining barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda, turkiy tildagi she’riy asarning musiqiyligini ta’minlay olgan. Versifikatsion xususiyatlar g‘oyaviy mazmunni ifodalashga xizmat qilgan.

«Maxzan ul-asror» dostoni g‘oyaviy-tasviriy jihatdan rang-barang va chuqur mazmunga ega asar sanaladi. Doston g‘oyaviy-tasviriy jihatdan uch asosiy yo‘nalishda o‘rganilishi mumkin.

Birinchi yo‘nalish – ramziy obrazlar tizimidir. Asarda qo‘llanilgan ramziy obrazlar asosan tabiat hodisalari, ranglar va hayvonot olami bilan bog‘liq. Quyosh ilohiy ma’rifat, oy komil inson, yulduz ilohiy hidoyat, shamol esa ilohiy nafas ramzi sifatida qo‘llanilgan. Ranglar ham ramziy ma’noga ega: oq - poklik va soflik, qora - zulmat va jaholat, yashil – tiriklik va umid, qizil – ishq va muhabbat ramzidir. Hayvonot olami ramzlari orasida bulbul oshiq, gul ma’shuq, kabutar ruh, arslon esa botirlik va mardlik timsoliga aylangan.

Ikkinchi yo‘nalish – tasavvufiy timsollar va ularning talqinidir. Haydar Tilbe asarda tasavvufiy timsollardan keng foydalangan. Ishq bilan bog‘liq timsollarda may ilohiy ishq, soqiy murshid, mayxona xonaqoh, mastlik esa jazba holatini anglatadi. Yo‘l-safar bilan bog‘liq timsollarda yo‘l tariqatni, yo‘lovchi solikni, manzil haqiqatni, rahbar esa murshidni ifodalaydi. Ma’rifat bilan bog‘liq timsollarda quyosh ilohiy ma’rifat, nur ilohiy tajalliy, ko‘z qalb ko‘zi, ko‘ngil esa ilohiy sirlar xazinasi ma’nosida keladi.

Uchinchi yo‘nalish – badiiy tasvir vositalarining g‘oyaviy vazifasidir.[5] Asarda qo‘llanilgan tashbehlar ma’naviy tushunchalarni moddiy narsa-hodisalarga o‘xshatish, tasavvufiy holatlarni tabiiy hodisalar orqa-

[1] Kahhar, Tahir (2000). “Haydar Harezmî”. Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

[2] Eraslan, Kemal (1993). “Çağatay Edebiyatı”. İslâm Ansiklopedisi. C. 8. İstanbul: TDV Yay.

[3] Gözütok, Avni (2008). Haydar Tilbe, Mahzenü’l-Esrâr (Gramer-Metin-Dizin-Tıpkıbasım). Erzurum: Fenomen Yay.

[4] Kahhar, Tahir (2000). “Haydar Harezmî”. Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

[5] Kahhar, Tahir (2000). “Haydar Harezmî”. Başlangıcından Günümüze Kadar Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C. 14. Ankara: KB Yay.

li ifodalash va ruhiy kechinmalarni aniq tasvirlash vazifasini bajargan. Istioralar tasavvufiy mazmunni yashirin ifodalash, ma'no qatlamlarini boyitish va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Tazod san'ati esa ziddiyatlar orqali ma'noni kuchaytirish, falsafiy mushohadani chuqurlashtirish va g'oyaviy fikrni bo'rttirib ko'rsatish vazifasini o'tagan.

Dostonning asosiy g'oyalari komil inson tarbiyasi, ma'rifat va jaholat kurashi, ilohiy va majoziy ishq munosabati, axloqiy-ma'rifiy qarashlar kabi masalalarni qamrab oladi. Bu g'oyalar ramziy obrazlar, tasavvufiy timsollar va badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan. Haydar Xorazmiyning mahorati shundaki, u an'anaviy timsollarni yangicha talqin etgan, ramziy obrazlarni o'ziga xos tarzda qo'llagan va badiiy tasvir vositalarini uyg'un holda ishlatgan.

Asarda g'oya va shakl munosabati ham mukammal tarzda namoyon bo'ladi. G'oyaviy mazmun badiiy shakl bilan uyg'unlashib ketgan. Tasviriy vositalar g'oyani ochib berishga xizmat qilgan. Bu esa asarning badiiy qimmatini oshirgan.

Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostonida g'oyaviy-tasviriy xususiyatlarning yana bir necha muhim jihatlari mavjud. Bular insoniy fazilatlar talqini, ruhiy holatlar tasviri va axloqiy-ta'limiy g'oyalarning badiiy ifodasida namoyon bo'ladi.

Asarda insoniy fazilatlar o'ziga xos tasviriy vositalar orqali ochib berilgan. Adolat timsoli taxt, toj va tarozi kabi ramzlar orqali ifodalangan bo'lib, ularda adolat, odillik va haq-huquq o'lchovi kabi ma'nolar mujassamlashgan. Saxovat tasviri bulut, daryo va quyosh timsollarida aks etgan. Bunda bulut saxiylik ramzi, daryo himmat belgisi, quyosh esa ochiq qo'llilik timsoli sifatida kelgan. Kamtarlik fazilati tuproq, giyoh va shabnam orqali tasvirlangan bo'lib, tuproq kamtarlik ramzi, giyoh xoksorlik belgisi, shabnam esa kamsuqumlik timsoli vazifasini bajargan.

Dostonda ruhiy holatlar tasvirida ham o'ziga xos vositalar qo'llanilgan. Ishq holatlari o't, shamol va to'lqin kabi timsollar orqali ifodalangan. O't ishq alangasini, shamol ishq iztiroblarini, to'lqin esa ishq tug'yonini anglatadi. Ma'rifat holatlari nur, tong va ufq timsollarida aks etgan. Nur ma'rifat yog'dusini, tong ma'rifat boshlanishini, ufq esa ma'rifat chegarasini bildiradi. Jazba holatlari chaqmoq, dovul va girdbod orqali tasvirlangan. Chaqmoq jazba yarqirashini, dovul jazba shiddatini, girdbod esa jazba aylanishini ifodalaydi.

Asardagi axloqiy-ta'limiy g'oyalar ramziy voqealar, ibratli rivoyatlar va hikmatli so'zlar vositasida ifodalangan. Ramziy voqealar orqali muallif murakkab axloqiy masalalarni sodda va tushunarli tarzda yetkazgan. Ibratli rivoyatlar esa axloqiy xulosalarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Hikmatli so'zlar doston g'oyaviy mazmunini yanada boyitgan.

Haydar Xorazmiy g'oyaviy-tasviriy vositalarni shunchaki bezak sifatida emas, balki chuqur ma'no va mohiyat tashuvchi unsurlar sifatida qo'llagan. Bu esa asarning badiiy-estetik qimmatini yanada oshirgan.

Rezyume. Ushbu maqolada Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostonining badiiy mahorati, tili va she'riy tuzilishi tadqiq etilgan. Muallif dostonning tasavvufiy mazmunini yoritishda qo'llanilgan tashbeh, istiora, tazod, talmeh va mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalarining o'rni va vazifasini ochib bergan. Shuningdek, asarning aruz vazni, qofiya tizimi va musiqiyligini ta'minlovchi tovush takrorlari (alliteratsiya) tahlil qilingan. Maqolada dostonning leksik qatlami, undagi turkiy, arabiy va forsiy unsurlarning uyg'unligi hamda ramziy obrazlar tizimi atroflicha yoritilgan.

Резюме. В данной статье исследуется художественное мастерство, язык и версификационные особенности поэмы Хайдара Хорезми «Махзан ул-асрар». Автор раскрывает роль и функции таких изобразительных средств, как метафора, аллегория, антитеза, талмих и гипербола в выражении суфийского содержания произведения. Проанализированы система аруза, структура рифмы и приемы создания музыкальности текста, в частности аллитерация. В работе также рассматривается лексический пласт поэмы, гармония тюркских, арабских и персидских элементов, а также система символических образов.

Resume. This article examines the artistic craftsmanship, language, and poetic structure of Haydar Khwarazmi's epic «Makhzan ul-Asrar». The author elucidates the role and functions of literary devices such as simile, metaphor, antithesis, allusion (talmeh), and hyperbole used to convey the Sufi content of the work. Furthermore, the study analyzes the prosody, the rhyme system, and the use of sound repetitions (alliteration) to enhance musicality. The article also explores the lexical layers of the epic, the synthesis of Turkic, Arabic, and Persian elements, and the complex system of symbolic imagery.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA O'ZBEK TILI LEKSIKOGRAFIK BAZASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Turobova Matluba Raxmatullayevna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi raqamli bosqichida tillarning yashab qolishi va taraqqiyoti bevosita ularning kompyuter texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt (SI) tizimlari bilan integratsiyalashuv darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Global axborot makonida o'zbek tilining nufuzini oshirish, davlat tilini raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirishda elektron lug'atshunoslik fundamental asos vazifasini o'taydi. Biroq zamonaviy SI tizimlari, xususan, katta til modellari (LLM) va neyron tarmoqlar uchun oddiy elektron lug'atlar – ya'ni so'z va uning tarjimasi yoki izohi ko'rinishidagi statik bazalar – endilikda yetarli emas. Bugungi kunda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) jarayonlarida leksikografik bazalarning mukammalligi tizimning mantiqiy va kontekstual aniqlik darajasini belgilovchi asosiy omilga aylandi. O'zbek tilshunosligida leksikografiya bo'yicha ulkan tajriba to'plangan bo'lsa-da, ularni sun'iy intellekt talablariga moslashtirish, ya'ni "mashina anglay oladigan" ontologik lug'at modellarini yaratish metodologiyasi fundamental tadqiqotlarni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an'anaviy leksikografiyadan elektron va undan keyin intellektual leksikografiyaga o'tish jarayoni faqatgina format o'zgarishi emas, balki lingvistik ma'lumotlarni strukturaviy tashkil etishning sifat jihatidan yangi bosqichidir. Elektron lug'atshunoslikning nazariy asosi sifatida jahon leksikografiyasining tan olingan namoyandasi Sidni Landau (Sidney Landau) qarashlarini keltirish joiz. Uning ta'kidlashicha, "Elektron lug'at shunchaki qog'oz nashrning statik nusxasi emas, balki foydalanuvchi va kompyuter ehtiyojiga moslashuvchi dinamik, interaktiv ma'lumotlar bazasidir"[1]. SI tizimlarida ushbu dinamiklik "knowledge graph" (bilimlar grafi) tushunchasi bilan bog'lanadi. Ya'ni, lug'atdagi har bir birlik boshqa birliklar bilan nafaqat sinonimik, balki iyerarxik, assotsiativ va mantiqiy bog'liqlikda (is-a, part-of munosabatlari) bo'lishi shart. B.Atkins va M.Rundell kabi xorijiy tadqiqotchilar lug'at bazalarini shakllantirishda korpus tahlilining o'rni beqiyosligini, so'zning semantik qatlamlari faqatgina ulkan matnlar massivi (big data) ichida o'rganilgandagina aniq natija berishini isbotlaganlar [2].

O'zbek elektron lug'atshunosligi tarixiga nazar tashlasak, sohaning shakllanishi 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshiga to'g'ri keladi. Professor A.Madvaliyev qayd etganidek, lug'atchilik tilning boyligini tartibga soluvchi asosiy mexanizmdir[3]. Biroq zamonaviy bosqichda ushbu mexanizm kognitiv va matematik asosga ega bo'lishi kerak. Kompyuter lingvistikasi sohasidagi yetakchi olima N.Abdurahmonova o'zbek tili elektron lug'atlarini yaratishda morfologik analizatorlarning o'rnini fundamental o'rgangan. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, elektron lug'atning sifati uning lemmatizatsiya va avtomatik teglash (pos-tagging) qobiliyati bilan belgilanadi [4]. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan izohli.uz yoki savodxon.uz kabi resurslar ko'proq inson-iste'molchi uchun xizmat qiladi. SI tizimlari uchun esa so'zlarning ontologik modellarini yaratish innovatsion usul hisoblanadi. Bu jarayonda so'zning ma'nosi uning vektordagi o'rni (word embeddings) bilan belgilanadi.

Innovatsion metodologiya sifatida o'zbek tili uchun WordNet (Global WordNet Grid) modelini tatbiq etish masalasi tahlil qilindi. Bu metod so'zlarni nafaqat alfavit tartibida, balki "sinsetlar" (sinonimlar to'plami) ko'rinishida bog'lash orqali sun'iy intellektga insoniy mantiqni o'rgatishga xizmat qiladi. O'zbek leksikasining semantik tarmog'ini yaratishda so'zlarning omonimlik va ko'p ma'nolilik (polisemiya) xususiyatlarini avtomatik ajratish (Word Sense Disambiguation) eng murakkab vazifalardan biridir. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, lingvistik bazada semantik munosabatlarning to'g'ri belgilanishi mashinali tarjima sifatini 40-50% gacha oshiradi. Shuningdek, neyron tarmoqlar uchun so'zlarni vektor ko'rinishida ifodalash (BERT va Transformer model-

[1] Landau S.I. Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. – Cambridge, 2001. – 433 b.
[2] Atkins B.T., Rundell M. Practical Lexicography. – Oxford, 2008. – 540 b.
[3] Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi. – Toshkent, 2017. – 180 b.
[4] Abdurahmonova N. O'zbek tili kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2012. – 156 b.

lari) o‘zbek tili leksikografik bazasini boyitishning eng zamonaviy yo‘nalishidir. Bunda lug‘atdagi har bir birlik matematik koordinatalar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, bu esa SIga so‘zlar orasidagi semantik masofani (cosine similarity) hisoblash imkonini beradi.

Bundan tashqari, leksikografik ma’lumotlarni Linked Open Data (LOD) – bog‘langan ochiq ma’lumotlar formatiga o‘tkazish o‘zbek tili resurslarini global semantik vebga (Semantic Web) integratsiya qilish imkonini beradi. Bu metod lug‘atdagi ma’lumotlarni RDF (Resource Description Framework) formatida tavsiflashni nazarda tutadi. Natijada, o‘zbek tili elektron lug‘atlari jahonning boshqa yirik lug‘at tizimlari (masalan, DBpedia yoki BabelNet) bilan avtomatik bog‘lanadi. Bu esa o‘z navbatida, sun’iy intellektning o‘zbek tili lug‘at boyligini tushunish ko‘lamini cheksiz darajada kengaytiradi. Mazkur jarayonda lug‘at birliklarining terminologik unifikatsiyasi ham muhim bo‘lib, u soha terminlarining sun’iy intellekt tizimlarida bir xil ma’noda interpretatsiya qilinishini kafolatlaydi.

Mazkur jarayonda leksik birliklarning o‘zaro semantik munosabatlarini aniqlash va ularni tizimli shaklda modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, so‘z ma’nosi alohida hodisa sifatida emas, balki umumiy semantik tizim tarkibida namoyon bo‘ladi. N. Mahmudov ta’kidlaganidek, so‘zning mazmuniy tuzilishi uning boshqa birliklar bilan paradigmatik va sintagmatik munosabatlari orqali ochiladi. Shunday ekan, o‘zbek tilining elektron lug‘atlarini yaratishda semantik bog‘lanishlarni formal ifodalash masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir[1]. Leksikografik jarayonda lug‘at maqolasining strukturaviy modeli ham alohida ahamiyatga ega. A. Hojiyev lug‘at tuzishni til tizimining ichki qonuniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan ilmiy jarayon sifatida baholaydi. Bu esa elektron muhitda har bir leksik birlikni standartlashtirilgan, o‘zaro bog‘langan va mashina tomonidan qayta ishlanadigan formatda taqdim etishni talab etadi[2]. Shuningdek, terminologik birliklarning yagona me’yorda qo‘llanishi va izchil tizimga solinishi elektron lug‘atlarning samarali ishlashini ta’minlaydi. Terminologik noturg‘unlik ma’lumotlar bazalari o‘rtasidagi semantik nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘zbek elektron lug‘atshunosligida terminologik unifikatsiya masalasi nazariy asosda hal etilishi zarur.


Leksikografik ma’lumotlarni sun’iy intellekt tizimlariga integratsiya qilish jarayonida an’anaviy lug‘atlarning imkoniyatlari va SI talablari o‘rtasidagi farqni quyidagi qiyosiy jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval. An’anaviy va intellektual lug‘at bazalarining qiyosiy tavsifi

Tahlil mezonlari	An’anaviy elektron lug‘at	Intellellual lug‘at bazasi
Struktura	Statik matnli baza	Dinamik bilimlar grafi
Mantiq	Kalit so‘zli qidiruu	Semantik-conkextual tahlil
NLP imkoniyati	Cheklangen	To‘liq (BERT/Transfomer)

Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili resurslarini shakllantirishda shunchaki raqamlashtirish bosqichidan kognitiv-semantik modellashtirish bosqichiga o‘tish lozim. Mazkur jarayonning texnologik zanjirini quyidagi sxematik model ko‘rinishida ifodalash mumkin:

1-sxema. **O‘zbek tili leksikografik bazasini SI tizimlariga integratsiyalash modeli**




[1] Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 45 b.
[2] Hojiyev A. O‘zbek leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.

Ushbu modelda lug‘at birliklarining neyron tarmoqlar uchun matematik koordinatalar tizimiga o‘tkazilishi (vektorlashtirish) markaziy o‘rinni egallaydi. Bu o‘zbek tilidagi matnlarni nafaqat sintaktik, balki chuqur mantiqiy darajada tahlil qilish imkonini beradi.

Leksikografik ma’lumotlarni sun’iy intellekt tizimlariga integratsiya qilish jarayonida an’anaviy lug‘atlarning imkoniyatlari va SI talablari o‘rtasidagi farqni quyidagi qiyosiy jadval (1-jadval) orqali ko‘rishimiz mumkin. Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili resurslarini shakllantirishda shunchaki raqamlashtirish bosqichidan kognitiv-semantik modellashtirish bosqichiga o‘tish lozim. Leksikografik manbalarni raqamlashtirishda kognitiv modellashtirish masalasi alohida diqqatga sazovordir. Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari so‘zning faqatgina lug‘atdagi statik ma’nosini emas, balki uning inson ongida hosil qiladigan assotsiativ maydonini ham qamrab olishi lozim. Bu jarayonda o‘zbek tili leksikografik bazasiga freymlar va ssenariylar metodini tatbiq etish innovatsion natijalarni beradi. Masalan, “o‘qish” leksemasi SI bazasida nafaqat harakat, balki “talaba”, “universitet”, “kitob”, “imtihon” kabi tushunchalar bilan semantik tarmoq orqali bog‘lanishi shart. Bunday yondashuv kompyuterga matnning ostona ma’nolarini tushunish imkonini yaratadi.

Shuningdek, neyrolingvistik modellashtirish doirasida o‘zbek tili uchun kayfiyat tahlili (Sentiment Analysis) lug‘atlarini shakllantirish ham bugungi kun talabidir. Lug‘at bazasidagi har bir so‘zning emotsional bo‘yog‘i (ijobiy, salbiy, neytral) raqamli ko‘rsatkichlar bilan belgilanishi, sun’iy intellektning matndagi ohangni aniqlash qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek tilidagi ijtimoiy fikrlarni avtomatik monitoring qilish va intellektual tahrir tizimlarini yaratishda fundamental poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Leksikografik ma’lumotlarning bunday ko‘p qatlamli unifikatsiyasi o‘zbek tilining global raqamli ekotizimdagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy strategik resursdir.



Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini shakllantirish shunchaki texnik dasturlash emas, balki tilning barcha sathlarini – fonetikadan semantikagacha qamrab oluvchi kompleks lingvistik jarayondir. Innovatsion metodlar sifatida mashinali o‘qitish algoritmlari, semantik teglash va bilimlar grafini qo‘llash o‘zbek tili resurslarini jahon andozalari darajasiga olib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir qilish, ovozli yordamchilar yaratish

va milliy qidiruv tizimlarini takomillashtirishning bosh omili bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida o‘zbek elektron lug‘atshunosligini rivojlantirish uchun terminologik bazalarni unifikatsiya qilish va ularni xalqaro ochiq ma’lumotlar bilan integratsiya qilish tadqiqotning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Rezyume. Maqolada sun’iy intellekt tizimlari uchun o‘zbek tili leksikografik bazasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari va innovatsion metodlari tahlil qilingan. Unda an’anaviy elektron lug‘atlardan intellektual lug‘at tizimlariga o‘tish jarayonida NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) texnologiyalari, kognitiv modellashtirish va bilimlar grafini (Knowledge Graph) qo‘llash masalalari daliliy materiallar asosida ochib berilgan. Tadqiqotda o‘zbek tili resurslarini Linked Open Data formatiga o‘tkazish va ularni global semantik vebga integratsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlari yoritilgan.

Resume. The article analyzes the scientific-theoretical foundations and innovative methods of forming a lexicographic database of the Uzbek language for artificial intelligence systems. It reveals the issues of applying NLP (natural language processing) technologies, cognitive modeling, and Knowledge Graphs in the process of transition from traditional electronic dictionaries to intelligent dictionary systems on the basis of evidentiary materials. The research highlights the promising directions of converting Uzbek language resources into Linked Open Data format and their integration into the global semantic web.

Резюме. В статье анализируются научно-теоретические основы и инновационные методы формирования лексикографической базы узбекского языка для систем искусственного интеллекта. На основе доказательных материалов раскрыты вопросы применения технологий NLP (обработка естественного языка), когнитивного моделирования и графов знаний (Knowledge Graph) в процессе перехода от традиционных электронных словарей к интеллектуальным словарным системам. В исследовании освещены перспективные направления перевода ресурсов узбекского языка в формат Linked Open Data и их интеграции в глобальную семантическую паутину.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TILSHUNOSLIKDA DISLEKSIYA VA DISGRAFIYANING NEYROLINGVISTIK VA PSIXOLINGVISTIK TADQIQI MASALALARI

Ko'chiyeva Shabnam Isomiddin qizi,
Termiz davlat universiteti
Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

O'qish va yozish insonning ijtimoiy va akademik faoliyatida muhim o'rin tutadi. Biroq ba'zi shaxslarda aqliy rivojlanishi normal bo'lishiga qaramay, o'qish va yozish jarayonida doimiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu hodisalar disleksiya va disgrafiya deb ataladi. Disleksiya – o'qish qobiliyatining nevrologik asosli buzilishi bo'lib, shaxsning so'zlarni tanish, o'qish va tushunish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi bilan namoyon bo'ladi. Disgrafiya esa yozish qobiliyatining buzilishi bo'lib, harflar va so'zlarni yozishda xatoliklar bilan tavsiflanadi. Disleksiyaning o'ziga xos asosiy belgilari sifatida so'zlarni teskari o'qish yoki harflarni almashtirish; o'qishda sekinlik, xatoliklar ko'p bo'lishi; yozuvda harf va so'zlarni noto'g'ri yozish (disgrafiya bilan bog'liq); ba'zida esa o'qilgan matnni tushunishda qiyinchiliklar kabilarni kiritamiz. Disgrafiyali bolalarning umumiy xususiyati shundaki, ularga yetarlicha ko'rsatmalar va mashqlar beerilgan taqdirda ham, ular yozuvning mayda motorik ko'nikmasini yetarlicha tez o'zlashtira olmaydi. Eng ko'p uchraydigan shikoyat esa, yozuv sifatining pastligi hisoblanadi. Ya'ni ular barqaror va sifatli yozuv hosil qila olmaydi[1].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida disgrafiya tushunchasi ilk bor paydo bo'ldi. Ma'lum bir ilmiy jamoa tomonidan disgrafiya yozuvdagi xatolar sifatida baholangan va ular buni maktab yetishmovchiligi yoki beparvolik bilan bog'liq deb izohlashgan. Disleksiya esa dastlab tibbiyot sohasi vakillari (nevrolog, oftalmolog) tomonidan o'rganila boshlangan. 1800-yillar oxirida nemis nevrologi Adolf Kussmaul "Nutq buzilishi" nomli asarida disleksiyani "so'z ko'rligi" (wortblindheit) deb nomladi[2]. Bu disleksiya tushunchasining ilmiy tarixida dastlabki bosqich sifatida baholanadi. A. Kussmaul ushbu asarida "so'z ko'rligi" tushunchasini ilgari surib, aqliy rivoji normal bo'lgan shaxslarda so'zlarni tanish va o'qish jarayonidagi doimiy qiyinchiliklarni ilmiy jihatdan tasvirlagan. U bu holatni intellektual zaiflik bilan bog'lamaslik, balki nevrologik va tilni idrok etish bilan bog'liq mustaqil buzilish sifatida ko'rib chiqish kerakligini ta'kidlagan[3].

A.Kussmauldan so'ng bu tadqiqotni nemis oftalmologi (ko'z shifokori, ya'ni ko'rish a'zolari kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish bilan shug'ullanuvchi tibbiyot mutaxassisi) Rudolf Berlin 1887-yilda ilk bor "disleksiya" termini qo'llagan. Unga ko'ra disleksiya yunoncha "dys" – "kasal" yoki "qiyin" va "leksis"- "so'z" so'zlarining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, "so'zlar bilan qiyinchilik" degan ma'noni bildiradi.

1896-yil shifokor Uiyam Pringl Morgan tomonidan "Tug'ma so'z ko'rligining buzilishi"("A case of congenital word Blindness") nomli maqola orqali disleksiya haqidagi ilk yirik ilmiy maqola chop etildi. Ushbu maqolada W.P.Morgan 14 yoshli Persy F. ismli bola misolida o'qishda jiddiy qiyinchilikka uchragan bolani tasvirlab bergan. Bolada intellektual qobiliyatlar normal, lekin u so'zlarni o'qishni o'rganishda juda katta muammo bilan duch kelayotganligini qayd etgan. Uning ko'zlari sog'lom bo'lib, ko'rish bilan bog'liq hech qanday aniq shikastlanish yo'qligini ta'kidlagan[4]. Keyinchalik bu ish oftalmolog Jeyms Xinshelvud va Jeyms Kerrlar tomonidan o'rganishda davom etildi. J. Xinshelvud tadqiqotlariga ko'ra, disleksiyaning paydo bo'lishi ikki xil yo'l bilan tavsiflanadi. Birinchisi to'satdan balog'at yoshida paydo bo'ladi, ikkinchisi tug'ilishda paydo bo'ladi deb xulosalaydi. Shunday ekan, birinchi yo'l miya shikastlanishidan kelib chiqadi va u orttirilgan disleksiya, ikkinchisi esa irsiy bo'lib, rivojlangan yoki tug'ma disleksiya hisoblanadi. J. Xinshelvud tug'ma disleksiyani miya shikastlanishi bilan bog'laydi, bu esa harf va so'zlarni xotirada saqlash va eslash qobiliyatining buzilishiga olib kelishini aytib o'tgan[5].

[1] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting //Perceptual and Motor Skills.-2002.
[2] Kussmaul A. Die Storungen der Sprache. –Leipzig: Verlag Von F. C. W. Vogel, 1877.
[3] Kussmaul A. O'sha manba.
[4] Morgan W.P. A case of congenital word blindness. – Britania: British Medical Journal, 1896.
[5] Hinshelwood J. Congenital Word Blindness, 1917.

1900-yillarga kelib disleksiya o‘g‘il bolalarda ko‘proq uchraydi degan xulosaga kelindi. 1920-1930-yillarga kelib psixolingvist Samuel Torrey Orton disleksiyani “strefosimboliya” ya’ni (buzilgan belgilar) deb nomlashni lozim topdi[1]. S.T. Orton ilk bor disleksiyani tibbiy sohadan ta’lim sohasiga o‘tkazib o‘rganishni boshlab berdi. Unga ko‘ra muammo “so‘z ko‘rligi”da emas, balki ko‘z orqali qabul qilingan ma’lumotning ongda paydo bo‘ladigan birlamchi tasviri ya’ni vizual taassurotlari harflar va so‘zlarni qabul qilish jarayonida “buzilgan”dir. Bu davrga kelib, bolalarda yozuvdagi qiyinchiliklarni nevrologik va psixologik nuqtai nazardan o‘rganishga kirishildi. Bu esa o‘z navbatida Aleksandr Romanovich Luria nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “Очерки психофизиологии письма” (Ocherki psikhofiziologii pis’ma) asari orqali yozuvning psixofiziologik asoslarini va yozish jarayonidagi tizimli mexanizmlarni tahlil qiladi. Yozuv faoliyatining strukturasini chizish, qo‘l harakatlari, fonologik tahlil va boshqa funksiyalar haqida ma’lumot beradi. Ya’ni bugungi kundagi disgrafiya tushunchasiga asos soluvchi asosiy materiallar haqida xabar beradi.

A.R. Luriya bu borada turli neyropsixologik tadqiqotlar olib boradi va bolaning yozuvdagi xatolarini miya faoliyati bilan bog‘laydi. U yozuv faoliyatini oddiy motor harakatlaridan ko‘ra murakkab kognitiv tizim deb bilgan, yozish jarayoniga eshitish, ko‘rish, motor koordinatsiya, grammatika va leksik tahlil kabi bir necha psixik funksiyalar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida deb qaragan[2]. Bu yondashuv disgrafiya tadqiqotlarining neyropsixologik asosidir.

Oradagi ma’lum muddatli tanaffusdan so‘ng 1960-yildan boshlab disleksiya va disgrafiyaga oid tadqiqotlar psixologlar tomonidan o‘rganila boshlandi. 1965-yilga kelib Helmer R. Myklebust disgrafiya va o‘qish qobiliyatining rivojlanishi haqida muhim tadqiqotlar qilgan olimlardan biri bo‘lib, u yozish bilan bog‘liq nutq va yozuv buzilishlari bo‘yicha ilmiy asar yaratdi. H. R. Myklebust yozuv va nutq buzilishlarini kognitiv nuqtai nazardan o‘rgangan. U disgrafiyani faqat motor yoki harakat muammosi deb emas, balki simvolik tizim muammosi deb, ya’ni miyaning so‘z tasvirini yozishga qayta uzatish jarayonidagi mantiqiy buzilishlar deya ta’riflaydi[3]. Shu davrgacha yozilgan ilk yirik tadqiqot ishi 1972- yilda Sandhya Naidoo tomonidan yaratilgan. “Maxsus disleksiya” deb nomlanuvchi bu kitob nevrolog Kritchli Makdonaldning “Disleksiyali bola” nomli kitobi bilan birgalikda nashr etildi va yuqori natijaga erishdi. 1962-yilga kelib, nevrolog Tim Miles tomonidan “So‘z ko‘rligi” markazi ochildi. Ushbu markazda disleksiyali shaxslar bilan ishlagan tadqiqotchilar jamlangan edi. Ammo 1970-yilga kelib markaz noma’lum sabablarga ko‘ra yopildi. Bu esa boshqa markazlarning ochilishiga va faoliyat yuritishiga turtki bo‘ldi. Bu kabi markazlardan ba’zilarining faoliyati hozirga qadar davom etmoqda.

1970-1980 yillar oralig‘ida disleksiya bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim sifatida britaniyalik psixolog Tomas Richard Milesni keltirib o‘tamiz. T. Miles asosan disleksiya bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa-da, disgrafiya bilan bog‘liq ishlarni ham shu kontekstda yoritib o‘tgan. U disleksiyani nevropsixologik sindrom sifatida tahlilgan. Yozuv buzilishlari borasida Luriya va Orton nazariyalarini davom ettirib, ularni kognitiv va nevrologik jihatdan tahlil qilgan. Olim yozuv jarayonini til, grammatika, fonologiya, vizual tizim va motor koordinatsiyasi komponentlari bilan bog‘laydi va disgrafiyani faqat motor yoki pedagogik nuqson emas, balki murakkab kognitiv sindrom sifatida tasniflaydi. Yozishdagi xatolarni psixologik va nevrologik jarayonlar jarayonlar bilan izohlashga alohida urg‘u beradi. U bolalarning yozuvdagi buzilishlarini analiz qilish orqali individual pedagogik yondashuvni ishlab chiqdi, bolalar yozuv qobiliyatini yaxshilash borasida pedagog va nevropsixologlar uchun maxsus mashq va treninglar ishlab chiqdi. Shuningdek, yozuvdagi xatolarni diagnostika qilish metodikasini tizimlashtirdi. T. Miles Luriyaning nevropsixologik yondashuvi va Ortonning pedagogic yondashuvi konseptlarini birlashtirgan holda yozish buzilishlarini zamonaviy tahlil va reabilitatsiya nuqtai nazaridan tahlil qilib o‘rgandi.

XXI asrga kelib, disgrafiyaga kasallik sifatida emas, balki o‘rganish buzilishi yoki neyrokognitiv xususiyat sifatida qaraldi va bolalarni o‘qitishda individual yondashuv asosiy prinsipga aylandi. Disgrafiyali yozuvning asosiy xususiyatlarii sifatida yozuvda bir xillikning yo‘qligi va yozuvdagi muammolar asosan motorik (harakat) tabiatga ega ekanligini keltiriladi. Ya’ni bolaning yozuvi barqaror emas, harflar shakli, o‘lchami, egri chiziqlar yoki harkatlar trayektoriyasi doimiy bo‘lmaydi. Masalan, bir so‘zda yoki bir satrdagi “a” harfi bir xil bo‘lmaydi, harflar o‘lchami farqlanadi, yozuv egri va notekis bo‘ladi. Bolaning qo‘l harakati koordinatsiyasi va nazorati yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Ya’ni bola yaxshi biladi va e’tibor qiladi, lekin qo‘lning motorik tizimi hali to‘liq nazoratni amalga oshira olmaydi[4].

XXI asrning boshlaridan e’tiboran disleksiya kog-

[1] Orton S.T. Specific reading disability – Stephosymbolia.- Journal of the American Medical Association, 1928.

[2] Лурия, Александр Романович. Очерки психофизиологии письма / Акад. пед. наук РСФСР, Ин-т психологии. – Москва : Изд-во Акад. пед. наук РСФСР, 1950.

[3] Myklebust Helmer. R. Development and Disorders of Written Language. – Grune&Stratton, 1965.

[4] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting //Perceptual and Motor Skills.-2002.

nitiv buzilishlardan kelib chiqishi mumkinligi taxmin etila boshlandi. 2020-yilga kelib esa disleksiyaning kuchli irsiylik xususiyatiga ega bo‘lgan nutq buzilishi ekanligi tasdiqlangan. Bu borada S.Shaywitz, J.Gabrieli, J.Koifman kabi olimlar izlanish va tadqiqot olib borgan va o‘z munosabatlarini bildirib, turli tahlillarni amalga oshirgan.

Hozirgi kunga kelib disleksiya va disgrafiyaga kasallik emas, balki har bir bolaning yozuv va nutq qobiliyatidagi individual o‘ziga xos xususiyat sifatida baholanadi. Uni davolashdan ko‘ra, adaptiv pedagogik yondashuv va texnologik yordam asosiy strategiya hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda disleksiya va disgrafiyaga oid bo‘lgan zamonaviy tadqiqotlar nevropsixologiya, pedagogika va texnologiya sohalari kesishmasida birgalikda olib borilmoqda.

Rezyume. Ushbu maqolada disleksiya va disgrafiya hodisalarining psixolingvistik hamda neyrolingvistik jihatlari tahlil qilingan. Ularning o‘rganilish tarixi haqida davrlar kesimida ma’lumotlar berilgan. Olimlarning fikrlari va qarashlari asoslab berilgan. Disleksiya termini, uning kelib chiqishi, turli xil nomlanishiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Resume. This article analyzes the psycholinguistic and neurolinguistic aspects of dyslexia and dysgraphia. The historical development of these phenomena is presented across different periods. The views and opinions of prominent scholars are substantiated. Information on the term “dyslexia,” its origin, and various denominations is provided.

Резюме. В данной статье анализируются психолингвистические и нейролингвистические аспекты дислексии и дисграфии. Представлены сведения об истории изучения этих явлений в разрезе различных периодов. Обоснованы мнения и позиции известных учёных. Приведена информация о термине «дислексия», его происхождении и различных наименованиях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XORAZM XALQ QO‘SHIQLARI TILIDAGI MANGLAY LEKSEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

Ozadova Ma’mura Ergashevna,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxasisligi magistri

Xalq qo‘shiqlari o‘zbek folklorining eng sermahsul, eng ommabop, xalqchil, o‘ta qadimiy hamda tabiiy janrlaridan biridir. Bu hol, ayniqsa Xorazm vohasi aholisi juda qadimdan kuylab va asrlar davomida asrab kelgan qo‘shiqlarning g‘oyalarida, badiiyati hamda til xususiyatlarida yorqin ko‘rinadi. Xorazm xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos original tizimga, mahalliy, lokal xususiyatlariga ega.[1] Xorazm xalq qo‘shiqlari leksikasi tadqiqotchisi bo‘lgan M.Jumanyazova ham ular o‘zining qadimiy ildizlari, poetik tizimi, obrazlar dunyosi, leksik boyligi va o‘ziga xos fonetik-morfologik xususiyatlari bilan ajralib turishi ta’kidlaydi[2]. Xorazm vohasi folklori tilining bir qismi bo‘lgan qo‘shiqlar tili tarixiy qatlamlar, turkiy lahjalar, jumladan, o‘g‘uz unsurlarining kuchli ta’siri natijasida shakllangan murakkab til tizimini namoyon etadi.[3]

Xorazm xalq qo‘shiqlarida ko‘p ma’noli so‘zlar katta ulushni tashkil etadi. Odatda so‘zlar dastlab denotativ ma’noni anglatuvchi leksik birlik sifatida yaratiladi va keyinchalik ma’noviy tuzilishning tadrijiy rivoji natijasida u ko‘p ma’noli, ya’ni polisemantik so‘zga aylanadi. Bunda so‘zning dastlabki va keyingi ma’nolari o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.[4]

Polisemiyaning ushbu hududga xosligi, avvalo, Xorazm vohasida keng qo‘llaniladigan o‘g‘uz lahjasi ta’siri bilan izohlanadi.[5] O‘g‘uz tilida qadimdan mavjud bo‘lgan ma’no ko‘chish modellari qo‘shiqlar tilida o‘ziga xos ravishda boyigan. Binobarin, xalq qo‘shiqlaridagi polisemantik hodisalar shevalardagiga qaraganda ko‘proq turg‘un, barqaror bo‘ladi, ya’ni qo‘shiq matni ma’lum qolipda yashab kelgani uchun so‘z ma’nosi vaziyatga qarab o‘zgarib ketmaydi. Bu esa qo‘shiqlarning poetik tizimining barqarorligini ko‘rsatadi.

Qo‘shiq matnlaridagi polisemiyani yoritish uchun mang‘lay so‘zining turli ma’nolarda qo‘llanishi juda yorqin misol bo‘la oladi.

Manglay leksemasining asliy (denotativ) ma’nosi “peshona” hisoblanadi. Ushbu leksema qadimiy turkiy tillarda “peshona” ma’nosini bildirgan[6] va Xorazm qo‘shiqlarida ham shu ma’noda ishlatiladi:

Ro‘molimni manglayima duyaman,
Ko‘ylak giysam qizilidan giyaman.[7]

“Peshona” ma’nosi *manglay* so‘zining asosiy, tarixiy qatlamdagi denotativ ma’nosidir. Manglayning metonimik ma’nosi esa “uy yoki buyumning old tomoni, yuzasi” hisoblanadi. Qiziqarli jihat shundaki, mang‘lay so‘zi qo‘shiqlarda:

Uyini so‘rasang, toqqa manglayda,
Oldi hovuz, gujum, fayzli joyda.

kabi misralarda “oldingi qism”, “yuza tomoni” ma’nosida qo‘llanadi.[8] Bu metonimik kengayish bo‘lib, “peshona – old tomondagi qism” semantik modeli asosida shakllangan.

“Manglay” so‘zi ko‘plab lingvokulturologik ahamiyatga ega frazeologizmlar tarkibida qo‘llanadi:

1. Mang‘laydan suyamak – “qo‘llab-quvvatlamoq”, “mehr berish”, “homiylik qilish”.

Nasib bo‘lsa gulni gulga ulayman,
Jonim ota, manglayingdan suyayman.

Bu ibora Xorazm madaniyatida peshonadan o‘pish – shafqat va hurmat belgisi sifatida qaralgan.

2. Manglayini yig‘irmoq – “norozilik bildirmoq”, “yoqtirmaslik”.

[1] Қуранбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.8-9.
[2] Жуманязова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.3.
[3] Jumanyazova M. Xorazm vohasi folklor materiallari tilining leksik qatlamlari: Filol. fan. d-ri ...diss. –Buxoro, 2025. – 78 b.
[4] Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – М., 1958. – С.34; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.112.
[5] Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.82-97.; Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка: Дисс. д-ра филол.наук. – Ташкент, 1978. – С.280-290.
[6] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. I jild.– Toshkent: O‘z FAN, 1960.
[7] Xorazm xalq qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1965. – 413 b. (Misollar shu manbadan olindi.)
[8] Madrahimov O. O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug‘ati. – Urganch, 1999. – 170 b.

Oq so‘vita qantaradi otini,
Manglayini yig‘iradi xotini.

Bu iborada peshonaning tirishishi – hissiy holatning tashqi ko‘rinishi sifatida tasvirlanadi.

3. Manglayini chitmoq – “ochiq yuzli bo‘lmaslik”, “rozi emaslik”.

G‘ovachadan oq momiqni sitmayman,
Endi senga manglayimni chitmayman.

Bu ham o‘g‘uz tillarida keng uchraydigan obrazli ibora bo‘lib, Xorazm shevasida saqlanib qolgan.

4. Manglayi oy – “baxtli, oydek yorug‘ peshona”.

Sizga tushgan go‘zalni,
Mang‘layi oy yor ekan.

5. Manglayi qora – “baxtsiz, nosoz taqdir”, “sho‘r peshona”.

Boshida taxyosi, gullari ola,
Dushmanlarni bo‘lgay manglayi qora.

Bu ibora lingvokulturologik jihatdan qarg‘ish formulasi vazifasini bajaradi.

Xorazm qo‘shiqlarida ma’no kengayishlari faqat poetik maqsadga xizmat qilmaydi, ular orqali “xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ishonchlari, madaniy tajribasi aks etadi”.[1] Masalan, “Peshona” obrazining kulturologik ildizlariga qarasak, turkiy xalqlarda peshona taqdir belgisi, odamning obro‘si, “yorug‘ yuzlilik”, “baxtning ko‘rinishi” sifatida qaraladi. Shu bois manglayi oy – yorug‘ peshona ijobiy ma’no kasb etadi, manglayi qora – qora peshona esa yomon sifatlar, badbaxtlik bilan bog‘lanadi.

Bu tendensiya turkiy mifologiya, etnolingvistika, qadimiy ta’birlar tizimida ham mavjud.

“Manglay” so‘zining “uyning old qismi” ma’nosida qo‘llanishi Xorazm vohasiga xos makon va uy-joy strukturasiga oid tasavvurlarning tilga aks etgan shaklidir.

Uylar ko‘pincha “yuza tomoni”, “kirish qismi” orqali identifikatsiya qilingan.

Manglay leksemasining lingvopoetik xususiyatlar (badiiy-estetik jihatlar)ini tahlilga tortsak, qo‘shiqlarda polisemantik so‘zlar quyidagi poetik funksiyalarni bajaradi:

1. Poetik zichlik yaratadi. Bir so‘zning bir nechta ma’noda qo‘llanishi qo‘shiq matnini obrazli, mazmunli qiladi.

2. Emotsional-badiiy ta’sirni kuchaytiradi. “Manglayi qora” kabi birliklar hissiy ta’sir kuchini oshiradi.

3. Badiiy obrazlar tizimini boyitadi. Qo‘shiqlar o‘ziga xos metafora va metonimiyalar tizimini yaratadi.

4. Sheva unsurlari orqali milliy kolorit shakllanadi. O‘g‘uz lahjasiga xos leksemalar qo‘shiqning “Xorazmona” ruhini mustahkamlaydi.

Ta’kidlash joizki, “manglay” leksemasi nafaqat ko‘p ma’noli so‘z sifatida, balki Xorazm xalq mentalitetining tasavvurlari – baxt, qismat, rizq, mehr, norozilik kabi tushunchalarni ifodalovchi kulturologik belgilar tizimi sifatida ham qimmatga ega.

Yuqoridagi tahlillar Xorazm xalq qo‘shiqlari tilining murakkab va ko‘p qatlamli tabiati borligini ko‘rsatadi. Polisemantik birliklar, frazeologik iboralar, metafora va metonimik kengayishlar: lingvokulturologik belgilar tizimini, xalqning qadimiy tasavvurlari va mental qiyofasini, turkiy lahjalararo tarixiy bog‘liqlikni, badiiy poetik mahoratni yorqin aks ettiradi.

“Manglay” so‘zi misolida esa Xorazm xalq qo‘shiqlaridagi polisemiyaning qanday semantik mexanizmlar orqali shakllanishi va qanday kulturologik ma’nolarni yuklab kelishi ochiq namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, “manglay” leksemasi o‘zbek tilida ko‘p qirrali semantik tizimga ega. Bu birlik nafaqat anatomik atama sifatida, balki xalq tafakkurida qadriyatlar, dunyoqarash va ijtimoiy-madaniy tushunchalarni mujassam etuvchi lingvomadaniy konsept sifatida shakllangan. Folklor, maqol va barqaror iboralardagi qo‘llanilishi “manglay”ning konseptual maydonini yanada boyitadi. Shu bois leksemaning semantik va madaniy qatlamlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik yo‘nalish tadqiqotlari uchun muhim manba hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada Xorazm xalq qo‘shiqlari leksikasidagi *manglay* leksemasining lingvokulturologik va lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Unda manglay nafaqat polisemantik so‘z sifatida, balki ijtimoiy-madaniy tushunchalarni mujassam etuvchi lingvomadaniy konsept sifatida ham tahlil qilinadi.

Резюме. В данной статье рассматриваются лингвокультурные и лингвопоэтические особенности лексемы «манглай» в лексиконе хорезмских народных песен. Анализируется «манглай» не только как многозначное слово, но и как лингвокультурное понятие, воплощающее социокультурные концепции.

Resume. This article discusses the linguocultural and linguopoetic features of the lexeme manglai in the lexicon of Khorezm folk songs. It analyzes manglai not only as a polysemantic word, but also as a linguocultural concept embodying socio-cultural concepts.

[1] Jo‘rayev R. Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 240 b.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILINING UMUMIY IZOHLI LUG'ATLARIDA ETNOLEKSEMALAR BERILISHINING QIYOSIY TAHLILI

Allaqulova Sadoqat Axmat qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
magistratura bo'limi o'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi magistranti

O'zbek tili leksikografiyasi so'nggi yillarda milliy tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida salmoqli yutuqlarga erishdi. Xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga daxldor bo'lgan ko'plab terminologik qatlamlar lingvistik tadqiq qilinishi natijasida boy leksikografik manbalar shakllandi. Bu boradagi amaliy ishlarning eng yirik namunasi sifatida ikki va besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ni keltirish mumkin. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikning hech bir sohasi insoniyat sivilizatsiyasi va xalqning etnomadaniy turmush tarzi haqida lug'atchalik to'liq va tizimli ma'lumot bera olmaydi. Til jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida xalq hayoti va madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, etnosning moddiy, ma'naviy hamda axloqiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Shu bois ham ilm-fan shakllangan deyarli barcha davrlarda lug'at tuzishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lib kelgan[1].

O'tgan yuz yillik davomida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning transformatsiyaga uchrashi, fan-texnika taraqqiyoti va global integratsiya jarayonlari o'zbek tili leksik qatlamida ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbek tili o'zining boy va xilma-xil lug'at tarkibi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, milliy urf-odatlar, qadimiy yashash tarzi hamda boshqa xalqlar bilan bo'lgan tarixiy-madaniy aloqalarni ifodalovchi etnoeksemalar leksikonimizda markaziy o'rinni egallaydi. Etnoeksemalar nafaqat so'z, balki millatning o'zligini anglatuvchi lingvokulturologik kodlardir. Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi boshqa sathlarga qaraganda tashqi ta'sirlarga eng ta'sirchan va o'zgaruvchan qatlam hisoblanadi. Bu o'zgarishlar faqatgina miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, sifat jihatdan ham yangi bosqichga ko'tarilib bormoqda. Leksikadagi taraqiyot jarayonida yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ayrimlarining iste'moldan chiqishi (arxaizatsiya) yoki so'zlarning yangi semantik qirralar kasb etishi tabiiy holatdir. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida etnoeksemalarning berilishi va ularning izohlanish prinsiplarini qiyosiy tahlil qilish, tilimizdagi milliy-madaniy o'ziga xosliklarning davriy o'zgarishini kuzatish hamda leksikografik mahoratni baholash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek leksikografiyasining ikki muhim bosqichini ifodalovchi 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli hamda 2006-2008-yillarda chop etilgan besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» manba sifatida olindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, statistik tahlil hamda leksikografik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosi sifatida lug'atlardagi so'zliklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini solishtirish va ulardagi etnografik belgilarga (metatillarga) tayanish belgilandi. Xususan, lug'atlarda «etn.», «esk.», «din.» kabi maxsus qisqartmalar bilan berilgan yoki mazmunan xalqning urf-odati, marosimlari va turmush tarzini ifodalovchi birliklar alohida saralab olindi. Tadqiqotning metodologik asosi shundan iboratki, unda nafaqat miqdoriy o'sish, balki davr mafkurasi va ilmiy yondashuvlarning lug'at maqolalaridagi aks etishi sifat jihatdan tahlil qilindi. Lug'atlardagi etnoeksemalarning umumiy so'zlikka nisbati foiz ko'rsatkichlari orqali aniqlanib, leksikografik takomillashuv darajasi o'zaro qiyoslandi[2].

O'zbek leksikografiyasi tarixida 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» dastlabki nazariy asoslangan manba bo'lishiga qaramay, unda etnomadaniy qatlamning aks etishi muayyan cheklovlarga duch kelgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu lug'atda mavjud 60 000 ga yaqin so'zlikdan bor-yo'g'i 176 tasi etnoeksema yoki etnoeksematik ma'no ifodalovchi birliklar sifatida qayd etilgan bo'lib, bu umumiy leksikaning atigi 0,29 % ini tashkil etadi. Bunday past ko'rsatkichning sababi o'sha davrdagi hukmron mafkura bilan bog'liq bo'lib, ko'plab milliy-ma'naviy tushunchalarning lug'at tarkibiga kirishiga

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildli. J. I–II. / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. – Toshkent: Rus tili nashriyoti, 1981.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. J. I–V. / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqillikdan so‘ng yaratilgan besh jildli yangi nashrda (2006-2008) so‘zlik hajmi 80 000 taga yetkazildi va o‘zbek leksikografiyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Biroq, qiyosiy tahlillar kutilmagan natijani ko‘rsatdi: yangi lug‘atda etnoeksemalar soni 200 taga yaqinlashgan bo‘lsa-da, ularning umumiy so‘zlikdagi ulushi 0,25 % ga tushib qolgan[1].

Bu holat yangi lug‘atda miqdoriy o‘sish bo‘lgani bilan, etnomadaniy leksikani tizimli tasniflash va belgilashda hali ham eskirgan yondashuvlar saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, besh jildli lug‘atning o‘ziga xos yutuqlari ham mavjud. Xususan, unda avvalgi nashrda «diniy» yoki «eski» deb tamg‘alangan ko‘plab etnoeksemalarga xolis ilmiy yondashuv bilan yondashilgan, arab, fors va umumturkiy qatlamga mansub so‘zlarga batafsil etimologik ma’lumotlar berilgan. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki lug‘atda takrorlanuvchi umumiy etnoeksemalar bilan bir qatorda, faqat biriga xos bo‘lgan (birida bor, ikkinchisida yo‘q) o‘ziga xos leksik qatlamlar ham aniqlandi. Bu esa etnoeksemalarning lug‘atlardagi o‘rni faqat so‘z boyligi bilan emas, balki davrning leksikografik talablari va siyosiy-ma’naviy iqlimi bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini isbotlaydi.

1-jadval. **Ikki va besh jildli izohli lug‘atlarda o‘zaro farqlanuvchi etnoeksemalar namunalari**

Ikki jildli izohli lug‘atga (1981) xos etnoeksemalar	Besh jildli izohli lug‘atga (2006-2008) xos etnoeksemalar
Kir (marosim ma’nosida)	Badik II (folklor-etnografik tushuncha)
Tanga-sochiq (urf-odat buyumi)	Darrasoldi (marosimiy an’ana)
Tutatmoq (is chiqarish marosimi)	Kelinko‘rdi (marosim)
Chachvon (kiyim-etnografizm)	Obxudoyi (marosimiy tadbir)
Chil-chil (marosimiy tushuncha)	Sabzito‘g‘rar (marosim oldi tadbiri)
Qora kiymoq (azadorlik odati)	Totem (etnik-e’tiqodiy tushuncha)
Sut haqi (marosimiy to‘lov)	Totemizm (etnik-e’tiqodiy tushuncha)
Unashtirish (oilaviy marosim)	Uchoq (etnografik buyum/joy)

Jadvalda keltirilgan etnoeksemalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki lug‘at o‘z davrining leksikografik qarashlari va ijtimoiy talablaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos so‘zlik tarkibiga ega. 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli lug‘atda «Kir», «Chachvon», «Qora kiymoq» kabi birliklarning mavjudligi, garchi umumiy miqdor kam bo‘lsa-da, kundalik turmush va kiyim-kechak bilan bog‘liq fundamental etnografizmlarni qamrab olishga harakat qilinganidan dalolat beradi. Biroq, bu lug‘atda aksariyat etnoeksemalar «eskirgan» yoki «tarixiy» degan belgilar ostida berilgani o‘sha davr mafkuraviy bosimidan nishonadir.

Besh jildli yangi izohli lug‘atda esa etnoeksemalarning tabiati sezilarli darajada o‘zgargan. Xususan, «Badik II», «Darrasoldi», «Obxudoyi» kabi birliklarning kiritilishi o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy merosiga, xususan, folklor va qadimiy e’tiqodlar bilan bog‘liq marosimlarga nisbatan yondashuvning ijobiy tomonga o‘zgarganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, «Totem» va «Totemizm» kabi ilmiy-etnografik terminlarning lug‘atdan o‘rin olishi, yangi nashrning nafaqat umumiste’moldagi so‘zlarni, balki maxsus etnologik tushunchalarni ham qamrab olganidan, ya’ni so‘zlikning ilmiy ko‘lami kengayganidan dalolat beradi[2].

Shunga qaramay, tahlil jarayonida aniqlangan eng muhim jihat shundaki, ayrim jonli etnoeksemalar bir lug‘atda mavjud bo‘lsa, ikkinchisida tushirib qoldirilgan. Masalan, ikki jildli lug‘atda qayd etilgan ba’zi marosim nomlarining yangi nashrda uchramasligi yoki aksincha holatlar, o‘zbek leksikografiyasida etnoeksemalarni tanlab olish va ularni markalashda hamon yagona, tizimli mezon ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi. Bu esa kelajakda yaratiladigan izohli lug‘atlarda etnomadaniy leksikani alohida «mikrotizim» sifatida tadqiq etish va ularni to‘liqroq aks ettirish zaruriyatini tug‘diradi[3].

O‘zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug‘atlari ustida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, leksikografik manbalar xalqning etnomadaniy hayotini aks ettiruvchi asosiy ko‘zgu hisoblanadi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, 1981-yildagi ikki jildli lug‘atda etnoeksemalarning ulushi (0.29%) o‘sha davrdagi siyosiy-mafkuraviy cheklovlar tufayli juda past bo‘lgan. Mustaqillik davri mahsuli bo‘lgan besh jildli lug‘atda esa so‘zlik hajmi oshgan bo‘lsa-da, et-

[1] Madvaliyev A. O‘zbek leksikografiyasi sahifalaridan. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 192 b.
[2] Nematov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.
[3] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.

noeksemalarning foiz ko‘rsatkichi (0.25%) deyarli o‘zgarishsiz qolgan. Bu holat o‘zbek leksikografiyasida milliy-maishiy terminologiyani tizimlashtirish, ularga maxsus «etnografik» belgi berishda hamon yagona metodologik yondashuv yetishmayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, tahlillar shuni tasdiqladiki, yangi tahrirdagi lug‘atda diniy va marosimiy tushunchalarga nisbatan ijobiy ilmiy yondashuv shakllangan, etimologik izohlar kengaytirilgan. Biroq, ayrim jonli etnoeksemalarning lug‘atdan lug‘atga o‘tishda tushib qolishi yoki yetarli darajada qamrab olinmasligi kelajakda «O‘zbek tili etnografik lug‘ati» kabi maxsus leksikografik manbalarni yaratish zaruriyatini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, izohli lug‘atlarni takomillashtirishda etnoeksemalarning nafaqat miqdoriga, balki ularning xalq ma’naviy hayotidagi semantik yukini to‘g‘ri interpretatsiya qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Rezyume.Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan leksikografiya va etnolingvistika masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy diqqat markazida o‘zbek tilining turli davrlarda nashr etilgan umumiy izohli lug‘atlarida etnoeksemalarning berilishi va ularga berilgan tavsiflarning qiyosiy tahlili turadi. Tadqiqot davomida milliy-madaniy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan leksik birliklarning lug‘at maqolalaridagi o‘rni, ularning ma’no ko‘lamini yoritishda qo‘llanilgan metodlar va izohlardagi o‘xshash hamda farqli jihatlar ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Shuningdek, etnoeksemalarning lug‘aviy interpretatsiyasida yuzaga keladigan leksikografik muammolar va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Resume. This article explores the crucial issues of lexicography and ethnolinguistics within Uzbek linguistics. The primary focus of the research is a comparative analysis of the presentation of ethnolexemes in general explanatory dictionaries of the Uzbek language published in different periods. The study scientifically evaluates the place of lexical units with national-cultural connotations in dictionary entries, the methods used to clarify their semantic range, and the similarities and differences in their definitions. Furthermore, the article proposes suggestions for improving the lexicographical interpretation of ethnolexemes and addressing emerging challenges in this field.

Резюме. В данной статье исследуются актуальные вопросы лексикографии и этнолингвистики в узбекском языкознании. Основное внимание уделяется сравнительному анализу представления этнолексем в общих толковых словарях узбекского языка разных периодов издания. В ходе исследования научно оцениваются роль лексических единиц с национально-культурной спецификой в словарных статьях, методы, использованные для раскрытия их смыслового диапазона, а также сходства и различия в их толкованиях. Кроме того, выдвигаются предложения по совершенствованию лексикографической интерпретации этнолексем и решению возникающих проблем в данной области.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA LEKSEMANING SEMANTIK TABIATI

O'razov Alisher Doniyorovich
Guliston davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Email: orazovalisher96@gmail.com

ORCID: 0009-0006-3924-4231

Ma'lumki, leksikologiya tilning lug'at tarkibini ikki tomonlama: 1) ichki va 2) tashqi tomondan tekshiradi. Tilning lug'at tarkibini ichki tomondan o'rganadigan sohasi semasiologiya deb yuritiladi. Unda so'z va iboralarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati o'rganiladi. Har qanday so'z tilda paydo bo'lishi bilan o'zining shakli va ma'nosiga ega bo'ladi, borliqdagi predmet, hodisa, belgi, harakatlarni ifodalaydi. So'zdagi ma'no turli ta'sir va talablar asosida taraqqiy etib boradi. Demak, lug'at tarkibini tashkil qiluvchi har qanday so'z ma'noga ega bo'ladi. Ana shu ma'nosi nuqtayi nazaridan so'zlar o'ziga xosliklarga ega. So'zning ma'nosi (semantikasi) va u bilan bog'liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning semasiologiya bo'limi shug'ullanadi. Shuningdek, semasiologiya turg'un iboralarning ma'no xususiyatlarini ham tekshiradi.

Tilshunos olimlarning tadqiqotlarida leksemaning mazmun tomoni haqida quyidagicha ta'rifga duch kelamiz, ya'ni leksemaning mazmun jihati ikki hodisani (leksik ma'no va baho semalarini) o'z ichiga oladi. Leksik ma'no leksemaning voqelikka nisbatan belgilangan lug'aviy mazmunidir. U quyidagi uch hodisa orasidagi bog'lanishdan tarkib topadi: a) fonetik so'z (nomema); b) fonetik so'z tomonidan nomlangan voqelik (predmet, hodisa, tushuncha. Bular denotat, referent deb nomlanadi); d) fonetik so'z tomonidan ifodalangan ma'no (signifikat). U inson ongida denotat haqida shakllangan ma'nodir. Bu ma'no insonning til xotirasida saqlanadi. Demak, a) fonetik so'z (so'zning material qismi, nomemasi) predmetni, denotatni ataydi (denotativ ma'no), b) fonetik so'z inson ongidagi signifikatni anglatadi (signifikativ ma'no). Ana shu uch hodisa (fonetik so'z, denotativ ma'no va signifikativ ma'no) o'rtasidagi bog'lanishdan yuzaga kelgan semantik birlik leksik ma'no sanalar ekan.

Zamonaviy o'zbek tilishunosligiga oid adabiyotlar bilan tanishganimizda sistem leksikologiya haqida quyidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Sistem yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, ya'ni nutqiy birlik, shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik [stol], [ona], [ruchka], [bormoq], [qizil], [o'n] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning inikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining "buyrug'i"ni kutgan holda turadi[1]. Demak, leksema ongda cheksiz imkoniyat tarzda yashab, nutqda turli holatda reallashar ekan. O'zbek tilshunosligida leksemaning lisoniy tabiatiga ko'ra mazmun tomonida, ya'ni semama tarkibida quyidagi sema turlari mavjud ekan:

1) atash semasi (denotativ sema) leksemaning semema tarkibidagi nomlash, atash semalari;

2) ifoda semasi (konnotativ sema) leksemaning semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralari;

3) vazifa semasi (funksional sema) bu sema atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini (valentligini, distributsiyani), shu orqali gapda ma'lum vazifa bajarishini belgilaydi[2].

Leksemaning semantik mohiyati til birliklari orasida leksema alohida o'rin tutadi. Leksema – bu asosiy lug'aviy birlik bo'lib, u aniq bir ma'no tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Leksemaning semantik mohiyati quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi:

[1] Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B. 118.
[2] Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010. – B. 155.

Semantik jihatlar	Tavsifi
Denotativ ma’no	So‘zning asosiy lug‘aviy ma’nosi
Konnotativ ma’no	Ekspressiv yoki emotsional bo‘yoq
Strukturaviy xususiyatlar	Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar

Shuningdek, semalar darajasiga ko‘ra birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semaga ajratiladi. Birlashtiruvchi sema birdan ortiq leksemadagi o‘xshash, bir xil semadir. Farqlovchi sema esa o‘xshash, ma’noviy yaqin leksemalardagi farqlanuvchi semalardir. Demak, ana shu birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differentsial) semalar so‘zlarni turkumlaydi ekan. Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzvli tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Ya’ni sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda esa, sema ximiyaviy elementga o‘xshaydi. Borliqda ximiyaviy element turi sanoqli bo‘lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad ko‘p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko‘plab semema vujudga keladi deya tushuntiradilar tilshunoslar.

Tilshunoslikda so‘zning borliqdagi biror harakat-holat, narsa-predmet, miqdor, belgi-xususiyatni atovchi, nomlovchi ma’nosi atash ma’nosi deyiladi. So‘zning atash ma’nosiga qo‘shimcha tarzda kishining his-tuyg‘u, kayfiyati, turli munosabati va so‘zning turli uslubda qo‘llana olishini ifodalovchi ma’no so‘zning qo‘shimcha ma’nosi deyiladi. Bu esa lisonda baho semasi leksemaning mazmun jihatidagi ikkinchi hodisa bo‘lib, u nomlanayotgan hodisaga munosabat bildiruvchi semantik komponent sanaladi. Masalan, *buyum* va *matoh* leksemalarining leksik ma’nolari bir xildir: ularning ikkalasi “tirikchilik-ro‘zg‘orda qo‘llanadigan mol”ni anglatadi. Biroq *matoh* leksemasining mazmun jihatida bu leksik ma’no salbiy bo‘yoq (baho semasi) bilan qoplanganligini anglash mumkin[1].

Tilshunos olim H.Jamolxonov leksemaning uzual va akkazional ma’nolari tahlil qilib, quyidagilarni yozadi. Uzual ma’no (lisoniy ma’no) – leksemaning mazmun mundarijasida bor bo‘lgan leksik ma’no. U til egasi bo‘lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ma’nodir. Masalan, komputer leksemasining mazmun mundarijasida – hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo‘yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo‘ljallangan mashina ma’nosi bor[2]. Okkazional ma’no (nutqiy ma’no) – leksemaning tildagi ma’nosiga (yoki ma’nolariga) xos bo‘lmagan, ayrim shaxslarning (mualliflarning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha – tus berish maqsadida yuzaga keltirgan sun’iy ma’nosidir. U individual xarakterda bo‘ladi va faqat kontekstda (nutqda) anglashiladi. Komputer leksemasining quyidagi matnda anglatgan ma’nolari bunga yaqqol misol bo‘ladi. Unda shunday deyilgan: *“Azlar emas, Ajdar bu, Ajdar! Yoshi qirqqa chiqib qilcha aqli kirmagan noinsof, umrimni* xazon *qildi!... Qizimizning bo‘yi yetib qoldi, munday odamlarga o‘*xshab *bisot-misot yig‘ayapsanmi, deyish o‘rniga* Xudo*ning bergan kuni bo‘kib ichsa! Ichaverib, ichaverib, komputeri sinib qolgan buning!”*[3]. Olimning mulohazalarini tahlil qilib, uzual ma’no lisoniy, okkazional ma’no esa nutqiy hodisa ekanligini anglaymiz.

Leksema (so‘z) o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin, ya’ni so‘zning nutqdagi ma’nosi uning sememasiga mos kelsa, bu o‘z ma’no deyiladi. Masalan, oltin so‘zining sememasi “sariq rangli qimmatbaho metall”. Oltin yoshlik birikmasida esa oltin so‘zing atash semasi kuchsizlanib ifoda semasi kuchaygan va nutqda ma’no ko‘chgan. Masalan, so‘zning o‘zi anglatgan tushunchadan boshqa tushunchani obrazli, ta’sirli tarzda ifodalashi so‘zning ko‘chma ma’nosi deyiladi. Demak, yuqoridagi brikmada oltin so‘zi “inson umrining eng yaxshi payti, qimmatli davri” degan ma’noni obrazli, ta’sirchan ifodalagan. O‘zbek tilshunosligiga oid adabiyotlarda o‘zbek tilida ma’no ko‘chishi quyidagicha bo‘ladi, ya’ni:

1. Metafora. Bir predmetdagi tashqi belgining boshqa bir predmetdagi xuddi shunday belgiga o‘xshashligiga ko‘ra so‘z ma’nosining ko‘chirilishi. Masalan, o‘z ma’no (*odamning ko‘zi*)/ ko‘chma ma’no (*buloqning ko‘zi*);

2. Metonimiya. O‘z ma’nolarining narsa va hodisalarning ichki va tashqi o‘xshashlik belgilariga ko‘ra emas, balki ularning o‘rin va paytga, zamon va makonga munosabatiga ko‘ra o‘zgarishi. Masalan, Oybekni *o‘qiyapman* (asari);

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Yalqin, 2005. – B. 148.
[2] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.
[3] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.

3. Sinekdoxa. butun o‘rnida qism yoki qism o‘rnida butun, jins tushuncha o‘rnida tur tushuncha yoki tur tushuncha o‘rnida jins tushuncha ifodalash vositasi sifatida so‘z ma’nolarining o‘zgarishi. Masalan, *besh qo‘l barobar* emas (qo‘l panja o‘rnida);

4. Funksional (vazifaviy) ko‘chish. Predmetlarning bajaradigan vazifasiga ko‘ra so‘z ma’nolarining o‘zgarishiga ma’noning funksional yoki vazifadoshlik asosida ko‘chishi. Masalan, *O‘q – kamon o‘qi* (miltiq o‘qi);

5. Ma’noning kengayishi va torayishi. Til lug‘at tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda so‘z ma’nolari ham o‘zgara borishi. Masalan, ichkari so‘zi ilgari binoning ichkarisini ham, xotin-qizlar huquqsizligini ham anglatgan bo‘lsa, hozir bu so‘z bir ma’noni - ma’lum bino yoki narsaning ichki qismini ifodalaydi[1].

Yana ma’noning zohiriy va botiniy-ramziy turi ham mavjud bo‘lib, bu ko‘proq badiiy adabiyotda qo‘llaniladi. So‘zning hamma uchun tushunarli, ko‘zga ko‘rinadigan, oddiy, sodda ma’nosi zohiriy ma’no deyiladi. Masalan, suv so‘zining “tiniq, rangsiz ichiladigan suyqlik” ma’nosi zohiriy ma’no hisoblanadi. So‘zning hamma uchun tushunarli bo‘lmagan, maxsus ma’noda qo‘llanishi botiniy-ramziy ma’no deyiladi. Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi o‘zbek, Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Umar Xayyom kabi fors-tojik mumtoz adabiyoti namoyondalari o‘z g‘azal va dostonlarida so‘zning zohiriy ma’nolari bilan birga ramziy, ishorali ma’nolaridan ham foydalanganlar. Ularning asarlarida uchraydigan *yor, mahbuba, suyukli, oshiq, gul, bulbul, tikan, soqiy, rind, sharob, may, mayxona* kabi ko‘pgina so‘zlarda islom dini va falsafasi asosida boshqa xil – botiniy-ramziy, ishorali ma’nolar yashiringan. Demak, leksemaning ma’no tomoni badiiy adabiyotda zohiriy ma’no, ramziy, ishorali ma’nolarni ham ifodalar ekan.

Ma’lumki, mazmuniy maydonda so‘zlar barcha ma’nolarining yig‘indisi bilan bir butun sifatida ichki ma’no-munosabat va aloqalarga kirmay, balki alohida ma’nolari bilan munosabatga kirishadi. Ma’noga so‘zlarning differentsial mazmuniy belgilari yoki tarkibiy qismlarining to‘plami sifatida qarash mumkin. Leksemaning ma’noviy bog‘lanishi bugungi kunda tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ya’ni leksemada valentlik tushunchasi, umuman, leksemalarning o‘zaro valentlik imkoniyatlari tomoni ham g‘oyat murakkab bo‘lgan tildagi hodisadir.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikka oid adabiyotlarda o‘zbek tilida leksemalarning (so‘zlarning) munosabatiga ko‘ra semantik turlari quyidagilar hisoblanadi:

Semantik tur	**Ta’rif**	**Misollar**
Monosemantik	Gap ichida ham, gapdan tashqarida ham aynan bir ma’noni ifoda etuvchi so‘zlar bir ma’noli so‘zlar deyiladi	*Oy, quyosh kompas, marmar, morfologiya, taassurot, xulosa, gigiena, g‘oya, mimika, qobiliyat, fonema*
Polisemantik	So‘zlar ba’zan alohida holatda, nutqdan tashqarida bir xil ma’noni, gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda boshqa bir ma’no anglatishi mumkin. nutqdan tashqarida bir ma’no, nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda yana boshqa ma’no ifodalovchi so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlar deyiladi.	*Yo‘l – yo‘nalish, hayot yo‘li. Pasaymoq – yerga tomon yaqinlashmoq, bilimi pasaydi, ko‘rish sezgisi pasaydi.*
Sinonimik	Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanadi. Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning barchasida atash semalari bir xil, ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos.	*Go‘zal, chiroyli, latofatli. Nutq irod etmoq, vaysamoq, gapirmoq, baqirmoq shivirlamoq, bo‘kirmoq.*
Antonimik	Antonimiya leksemalar orasidagi ma’no zidligi munosabatidir. Antonim leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo‘lishi lozim	*Katta-kichik. Oq-Qora. Ulkan-Kichik.*
Omonim	Shakli (yozilishi va aytilishi) bir xil, ma’nosi har xil so‘zlar omonimlar deyiladi.	*Tola (paxta) – Tola (xona turi), Qovoq - insonning tana a’zosi, Qovoq -poliz ekini.*
Giponimiya	Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipo-giperonimiya), ya’ni tur-jins munosabati. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini fodalovchi ko‘pgina ma’noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik.	*Meva: olma-o‘rik-shaftoli-behi. Daraxt: olma-o‘rik-shaftoli-behi.*

[1] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – B. 258.

Graduonimiya	Lug‘aviy birliklar o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etishi	*Gulobi-pushti-qizg‘ish-qizil-ol-qirmizi.*
Partonimiya	Leksemalarning ma’no guruhlarida butun-bo‘lak munosabatlarining ifodalanishi.	*Avtomobil (butun) – kuzov (bo‘lak) – motor (bo‘lak) – g‘ildirak (bo‘lak)*

Leksemaning semantik o‘zgarish jarayoni leksemalar vaqt o‘tishi bilan turli semantik o‘zgarishlarga uchraydi. Asosiy semantik o‘zgarishlar quyidagilardan iborat:

Semantik o‘zgarish	Misollar
Metaforik kengayish	*Qo‘l – yordam*
Metonimik o‘zgarish	*Osh – oshxona*
Ma’no torayishi	*Qalam – faqat grafitli qalam*

O‘zbek tilidagi leksik-semantik munosabatlar o‘zbek tilida leksemalar orasidagi semantik munosabatlar murakkab tizimni tashkil etadi. Asosiy munosabat turlari quyidagilardir:

Semantik munosabat	Misollar
Paradigmatik	*It, mushuk, bo‘ri*
Sintigmatik	*Kuchli shamol esdi*
Leksik-semantik maydon	*Qizil, ko‘k, yashil*

Shuningdek, leksema va kognitiv semantika kognitiv semantika lingvistik birliklarning inson ongidagi kontseptual tuzilmalari bilan bog‘liqligini o‘rganadi. Barcha tillar qatori o‘zbek tilidagi leksemalar ham inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liqdir.

Kognitiv tamoyillar	Tavsifi
Metaforik modellar	Inson tajribasiga asoslangan ma’no ko‘chish jarayonlari
Frame nazariyasi	Ma’lum bir hodisa yoki konseptning ma’no doirasida idrok etilishi
Prototipik semantika	So‘zning asosiy va ikkilamchi ma’nolari o‘rtasidagi munosabat

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning tadqiq etilishi tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega. Leksemalarning ma’no o‘zgarishlari, turlari va o‘zaro munosabatlari ularning til tizimidagi rolini belgilaydi. Leksemaning ma’no tomoni haqida gap ketar ekan, groudonomik, giponomik, portonomik kabi ma’no-munosabatga kirishishini ham sanab o‘tish lozim, umuman olganda, leksemaning semantik tabiati birmuncha murakkab, qiyin ekanligi ma’lum bo‘lib turibdi va bularning hammasi semasiologik tahlillar orqali oydinlashadi.

Rezyume: Ushbu maqolada o‘zbek tilida yaratilgan leksik-semantik tadqiqotlar asosida leksemalarning semantik jihatlari, ularning tipologiyasi va ularning semantik tabiati haqida fikr yuritilgan. Ya’ni leksemaning ma’no tizimi, struktura, o‘zgarish qonuniyatlariga munosabat bildirilgan va tahlilga tortilgan

Resume: This article discusses the semantic aspects of lexemes, their typology and their semantic nature on the basis of lexical-semantic studies created in the Uzbek language. That is, the meaning system, structure, and laws of change of the lexeme were analyzed

Резюме: В данной статье на основе лексико-семантических исследований, созданных в узбекском языке, рассматриваются семантические аспекты лексем, их типология и семантическая природа. То есть была проанализирована система значений, структура и законы изменения лексемы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI O'ZLASHMA QATLAM SOMATIK LESEMALARIDA LEKSIK TIPOLOGIYA

Jumayeva Kumush Tursunaliyevna
Turon universiteti 2-kurs magistranti
***E-Mail**:kumushdjumayeva84@gmail.com*
Tel: (91).321-39-23

Tipologiya grekcha *tipos* – tip, tur, shakl, belgi va *logos* – so'z, fan so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan bo'lib, obyektlarni mavhum umumlashgan ko'rinishlari yordamida ilmiy tasnif qilish usuli hisoblanadi va u ikkiga bo'linadi: a) lingvistik tipologiya; b) nolingvistik tipologiya. Lingvistik tipologiyada tillar tizimi bir-biri bilan qiyoslanadi, til qonunlari va kategoriyalari umumlashtiriladi, ular turlarga ajratilib tasniflanadi.

Tilshunoslikda tipologiya umuman til tuzilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o'rganish va taqqoslash asosida aniqlaydi. Shuningdek, tipologiya til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasniflaydi[1].

N.S.Trubetskoy boshlab bergan qiyoslash metodi, avval fonetik sathda qo'llangan bo'lsa, keyin grammatika, va nihoyat, leksika sathlar bo'yicha ham amal qilina boshlandi [2].

Ayniqsa, leksik o'zgarishlardagi tashqi omil rang-barang va ko'p tarmoqlidir. Leksika tillarning bir-biridan farq qilinishining birinchi elementi bo'lib, u tillar yaqinlashishining omillaridan biri, harakatchan, o'zgaruvchan qismi hamdir. Tillardagi senergetik ko'chishlar uzoq vaqt mobaynida keng ma'noda qo'llanilib kelgan, bu hodisa bir tilning boshqa tilga ta'siri natijasida yuz beradi.

Leksik tipologiya tarkibiga quyidagi bo'limlar kiradi: 1) so'zlarning leksik tipologiyasi; 2) so'z yasalishining leksik tipologiyasi; 3) qiyosiy leksikografiya; 4) leksik-statistik tipologiya; 5) o'zlashma leksika tipologiyasi; 6) frazeologizmlarning leksik tipologiyasi; 7) maqol va matallarning leksik tipologiyasi; 8) onamastikaning leksik tipologiyasi; 9) toponimikaning leksik tipologiyasi; 10) terminologiyaning leksik tipologiyasi; 11) diaxron leksik tipologiya va boshqalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. O'zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik qatlam (TEQ) larga ajratib o'rganish uning asl genetik manbalarini aniqlash, o'zbek tilining qardosh va qardosh bo'lmagan tillar orasida tutgan o'rnini belgilash, buning natijasida tilda mavjud bo'lgan somatik leksemalar (SL) ning sinxronik va diaxronik mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bu boradi E.Begmatovning "Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari" monografiyasida o'zbek tili leksikasining lug'aviy qatlamlarini nazariy aspektda chuqur tahlil etilganligi qayd etish joizdir [3].

Shunga binoan o'zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo'lgan tana a'zolarini atovchi so'zlar, ya'ni somatik leksemalar tipologiyasi borasida bahs olib borishnin muhimligi shundaki, avvalo, ayni soha tilimizning eng faol leksik birliklari hisoblanadi, keyin, ular umumlisoniy qiymat kasb etgani holda, dunyo tillarining barchasi uchun umumiy hamda keng iste'molli so'zlar majmuasidan iborat sanaladi. Qolaversa, mazkur leksik birliklar yuzaga kelish tadrijiga ko'ra eng qadimiy, balki tilning yuzaga kelishi uchun ilk fikr almashinuvi vositasi bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu boisdan ham SL ni tipologik tavsiflash tilshunosligimiz uchun bir qadar masalalarning yechilishi uchun xizmat qilishi aniq.

SL ni tipologik tasniflash M. А.Сабирова, Z.G.Abubakirova, M.I. Gadoyeva, T. Isomiddinova, A. Isayev singari olimlarning talqiniga binoan yondashish shuni ko'rsatadiki, dastlab, mazkur so'zlarni asl geniologik mansubligiga ko'ra o'z va o'zlashgan qatlamlar ajratish hamda ularni ma'lum xususiyatlari jihatdan turkumlarga bo'lib tasnif etish ajratish inson tana a'zolarining lingvistik mohiyatini muayyanlashtirishda muhim ilmiy manbalar sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tipologiya grekcha tipos – tip, tur, shakl, belgi va logos – so'z, fan so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan bo'lib, obyektlarni mavhum umumlashgan ko'rinishlari yordamida ilmiy

[1] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.
[2] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 200.
[3] Абубакирова З.Г. Соматическая лексика в фразеологии башкирского языка (лингвокультурологический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 2017. – С. 14.

tasnif qilish usuli hisoblanadi va u ikkiga bo‘linadi:
a) lingvistik tipologiya; b) nolingvistik tipologiya.
Lingvistik tipologiyada tillar tizimi bir-biri bilan qiyoslanadi, til qonunlari va kategoriyalari umumlashtiriladi, ular turlarga ajratilib tasniflanadi.

Tilshunoslikda tipologiya umuman til tuzilishining muhim belgilarini alohida, ayrim olingan tillar qurilishini o‘rganish va taqqoslash asosida aniqlaydi. Shuningdek, tipologiya til birliklarini biron umumiy belgisi asosida tasniflaydi[1].

N.S.Trubetskoy boshlab bergan qiyoslash metodi, avval fonetik sathda qo‘llangan bo‘lsa, keyin grammatika, va nihoyat, leksika sathlar bo‘yicha ham amal qilina boshlandi.

Ayniqsa, leksik o‘zgarishlardagi tashqi omil rang-barang va ko‘p tarmoqlidir. Leksika tillarning bir-biridan farq qilinishining birinchi elementi bo‘lib, u tillar yaqinlashishining omillaridan biri, harakatchan, o‘zgaruvchan qismi hamdir. Tillardagi senergetik ko‘chishlar uzoq vaqt mobaynida keng ma’noda qo‘llanilib kelgan, bu hodisa bir tilning boshqa tilga ta’siri natijasida yuz beradi.

Leksik tipologiya tarkibiga quyidagi bo‘limlar kiradi: 1) so‘zlarning leksik tipologiyasi; 2) so‘z yasalishining leksik tipologiyasi; 3) qiyosiy leksikografiya; 4) leksik-statistik tipologiya; 5) o‘zlashma leksika tipologiyasi; 6) frazeologizmlarning leksik tipologiyasi; 7) maqol va matallarning leksik tipologiyasi; 8) onamastikaning leksik tipologiyasi; 9) toponimikaning leksik tipologiyasi; 10) terminologiyaning leksik tipologiyasi; 11) diaxron leksik tipologiya va boshqalar[2].

O‘zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik qatlam (TEQ)larga ajratib o‘rganish uning asl genetik manbalarini aniqlash, o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar orasida tutgan o‘rnini belgilash, buning natijasida tilda mavjud bo‘lgan somatik leksemalar (SL)ning sinxronik va diaxronik mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bu boradi E.Begmatovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” monografiyasida o‘zbek tili leksikasining lug‘aviy qatlamlarini nazariy aspektda chuqur tahlil etilganligi qayd etish joizdir[3].

Shunga binoan o‘zbek tilining leksik qatlamida mavjud bo‘lgan tana a’zolarini atovchi so‘zlar, ya’ni somatik leksemalar tipologiyasi borasida bahs olib borishnin muhimligi shundaki, avvalo, ayni soha tilimizning eng faol leksik birliklari hisoblanadi, keyin, ular umumlisoniy qiymat kasb etgani holda, dunyo tillarining barchasi uchun umumiy hamda keng iste’molli so‘zlar majmuasidan iborat sanaladi. Qolaversa, mazkur leksik birliklar yuzaga kelish tadrijiga ko‘ra eng qadimiy, balki tilning yuzaga kelishi uchun ilk fikr almashinuvi vositasi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shu boisdan ham SL ni tipologik tavsiflash tilshunosligimiz uchun bir qadar masalalarning yechilishi uchun xizmat qilishi aniq.

SL ni tipologik tasniflash shuni ko‘rsatadiki, dastlab, mazkur so‘zlarni asl geniologik mansubligiga ko‘ra o‘z va o‘zlashgan qatlamlar ajratish hamda ularni ma’lum xususiyatlari jihatdan turkumlarga bo‘lib tasnif etish ajratish inson tana a’zolarining lingvistik mohiyatini muayyanlashtiradi.

Barcha tillarda bo‘lganidek, hozirgi o‘zbek tili ham necha asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zining zamonaviy tarkibini shakllantirib bo‘ldi. Ammo hozirgi zamonaviy leksik tarkib faqat o‘zbek tilining o‘zigagina xos bo‘lmasdan yoki umumturkiy so‘zlarnigina tashkil etmay, o‘zga fors-tojik, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham uning bag‘rida hamon yashab keladi. Alalxusus, inson tana a’zolariga oid so‘zlar tarkibi ham ona tilimizning lug‘at zaxirasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, SL ni ham o‘z va o‘zlashma qatlam doirsida tadqiq etish ularni umumlisoniy qiymatini belgilash muhimligini zohir etadi.

1) Til leksikasidagi SL ni mana shu jihatdan tarh etganda ular genetik jihatdan ikki manbaga mansubligini ko‘rsatadi:

2) ichki tarkib jihatdan tilning o‘ziga xos bo‘lgan SLlar;

3) boshqa tillardan o‘zlashgan SLlar.

Shu boisdan mazkur so‘zlarni: 1) o‘z qatlam va 2) o‘zlashgan qatlamlarga ajratib talqin etish o‘rinli bo‘ladi.

Bu borada Z. Abubakirova shunday yozadi: ”Somatizmlar lug‘atning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, boshqird frazeologik birliklari tarkibiga kirish chastotasi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi”[4].

M.I. Gadoyeva ham kishi tana a’zolarining nutqiy faolligi hamda adadiy ustunligini ta’kidlab: “Barcha tillardagi somatik so‘zlar umumlashtirilgan holda “somonimik so‘zlar”, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi “somonimiya” deb yuritiladi. “Somonimiya” deganda, chog‘ishtirilayotgan tillardagi somatik so‘zlarning eng katta qismi tushuniladi. Ular inson tana qismlarining joylashuvini anglash uchun xizmat qiladi,” deb munosabat bildiradi[5].

[1] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.
[2] Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Наука, 1983. – С. 263.
[3] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 200.
[4] Абубакирова З.Г. Соматическая лексика в фразеологии башкирского языка (лингвокультурологический аспект): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казан, 2017. – С. 14.
[5] Гадоева М. И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филол. фан. Бўйича докт. ... дисс. автореф. – Бухоро, 1922. – 60 б.

A. Isayevning “O‘zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasi (Toshkent, 1976) kishining tana a’zolari nomi (somatizm) bilan bog‘liq iboralarni diaxron va sinxron aspektlarda o‘rganishga bag‘ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir. Ishda somatik frazeologizmlarning eng qadimiy, umumturkiy qatlamini aniqlashga harakat qilingan. Olimning ta’kidlashicha, “Qadimiy turkiy lug‘at” (“Drenetyurkskiy slovar”) va “Devonu lug‘otit turk” asarida 2330 dan ortiq umumturkiy iboralar mavjud, shundan 249 tasida leksik somatizmdir. Bu somatik iboralardan 54 tasi esa hozirgi turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tili frazeologik sistemasida saqlanib qolgan”[1].

Hozirgi o‘zbek tili SLlar tarkibini ham ikkiga ajratash mumkin:

1) o‘z qatlam tarkibiga kiruvchi somatik leksemalar;

2) o‘zlashma qatlam tarkibiga kiruvchi somatik leksemalar.

1. Yuqorida qayd etilganidek, fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar: tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft va boshqalardan iborat.

O‘zbek tiliga chet tillardan, birinchi navbatda, fors-tojik tili bilan eramizning V–VI asrlaridan boshlab aloqada bo‘lgan, keyinchalik O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida (VII-IX asrlarda) arab tili bilan, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida (XIII-XIV asrlarda) mo‘g‘ul tili bilan aloqa qila boshlagan va ulardan kundalik hayot uchun eng zarur bo‘lgan so‘zalni o‘zlashtirgan.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan fors-tojikcha va arabcha so‘zlar o‘zbek tilida ma’lum davrlarda faol qo‘llanib kelsa-da, keyinchalik ularning o‘rnini o‘zbekcha so‘zlar egallab, o‘zlashgan so‘zlar iste’moli pasaya boshlagan.

O‘zbek tilida qo‘llangan inson tana a’zolariga oid o‘zlashma qatlam leksemalari ko‘p emas, ularning soni quyidagi 6 ta so‘zni tashkil etadi: *tana, peshana, lab, gardan, jigar, kaft.* Fors-tojikcha SLlar adadining bunchalik chegaralanganligi kundalik hayotda o‘z qatlam SLlarining o‘ta faolligida bo‘lsa kerak. O‘zlashma qatlamga xos bunday so‘zlarning turkiy muqobillari ham hozirgi o‘zbek tilida mavjud, biroq ular ancha nofaol leksik birliklarga aylanib ulgurgan.

Chunonchi:

TANA. O‘TILda bu atama asosining leksik ma’nosi aniqlanmagan, faqat ko‘pma’noliligiga diqqat qaratilgan, xolos. “Farhangi zaboni tojikӣ”da esa “Tana I daraxt va buta poyasi: II o‘rgimchak to‘rining tori” izohi berilgan. “Badan, jism” ma’nosi esa tan leksemasiga xos deb ta’rif etilgan:

Agar xud bimonū ba geti daroz,
Zi ranҷi tan oyad ba raftan niyoz.
Firdavsiy

Mazmuni:

(*Agar uzoq vaqt bir joyda turib qolinsa, tananing og‘rig‘i tufayli yurishga ehtiyoj seziladi, Yurish zarurati tananing og‘rig‘idan kelib chiqadi*).

O‘zbek tilida tana polisemantik so‘z sifatida: 1) gavda, badan, tan; poya; 2) jonivorlarning jismi, jussasi; 3) daraxtning, o‘simlikning tag, poya qismi. 4) 4 tex. turli asbob, mashina va sh. k. ning bo‘laklarini tutib turuvchi qismi [6] ma’nolarida qo‘llanadi. Keng ma’noda butun gavdani ifodalasa, tor ma’noda gavda, jussaning bir qismi anglashiladi[2].

Mumtoz adabiyotda ham *tana* o‘rnida “tan” qo‘llanganligini ko‘rish mumkin:

Vujudimda anosir band topmay,
Tanim ichra so‘ngak payvand topmay. (FSH, 77)

PESHANA. Bu so‘zga O‘TILda ta’rif berilmagan, unga monosemantik so‘z sifatida qaralgan.

“Farhangi zaboni tojiki”da esa ko‘pma’noli so‘z maqomida yondashilib, ikki ma’nosi bayon etilgan: 1. “Peshona, qoshlar, burun va iyak o‘rtasi”; 2. Majoziy ma’noda: “iqbol saodat, baxt” singari atamaning lug‘aviy ma’nosi bir qadar to‘g‘ri belgilangan[3].

O‘zbek tilida ham *peshana* so‘zi polisemantik qiymat kasb etadi.

1.Inson yuzining tepa qismida – sochi bilan qoshi o‘rtasida joylashgan, nisbatan keng va yassi uzv. Misol. *Qo‘chqor bo‘lar qo‘zining peshanasi do‘ng bo‘lur, Og‘a bo‘lar yigitning peshanasi keng bo‘lur*. Maqol.

2. Ko‘chma ma’noda: taqdir: *Peshanangda borini ko‘rasan*. (So‘zlashuvdan)

DLTda “*alin* – peshona, manglay” tarzida izohlangan. Demak, ko‘rinadiki, peshana so‘zi ona tilimizning keyingi davrlarida qabul qilingan somonema hisoblanar ekan.

Alisher Navoiy asarlarida *peshana* so‘zining sinonimi sifatida *manglay* ko‘p karra takror etiladi. Misol:

*Bu mehr ila **manglayin** o‘pti,*
Ul boshig‘a evrulurg‘a qo‘pti.
(LM, – B. 57)

LAB. Fors-tojik tiliga xos bu so‘z og‘iz bo‘shlig‘ining kirish qismini chegaralab turadigan harakatchan teri burmasi hisoblanadi (Tashqi tomondan teri, ichki tomondan shilliq pardalar bilan qoplangan, uning asosini aylanma joylashgan mimika muskuli tashkil etadi). Turkiycha varianti dudoq, ayrim manbalarda *tutag‘,* “Devonu lug‘otit turk”da *erin*[4].

[1] Древнетюркский словарь – Л.: Ленинградская отделения “Наука”, 1969. – 768 с.

[2] Сабирова М. А. Структурно-семантические особенности соматических слов и идиом в поэзии Камола Худжанди: Автореф. дисс. ... кандидата филол. наук. – Худжанд, 2018. – 26 с.

[3] Фарҳанги забони тоҷики. Ҷ-2. – Москва: нашриёти “Советская энциклопедия”, 1969. – 950 с.

[4] Rasanen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türkspra-chen. – Helsinki, 1969. – 53a.

Alisher Navoiy asarlarida lab leksemasi behad ko‘p karra takrorlangan va shoir itellektining yorqin namunasi bo‘lib tilga ko‘chganligini ko‘rish mumkin. Masalan:

*La’li **labi** no‘shxand bo‘ldi,*
Naxli qadi sarbaland bo‘ldi
(LM, – B. 42)
*Tashna **lab** bo‘lma, bahr yoninda,*
Qilma shevan, tarab makoninda.
(СС, – Б. 52)

Umuman, Alisher Navoiy ijodida somatik leksemalarning assotsiativ qiymati sohirsuxanlik darajasida yagona bayt bag‘riga muxtasar etilganligi shoirning o‘z ona tili semantik imkoniyatlarini naqadar teran idrok etganligini zohir qiladi.

*Ne **tan**, ne **tanda bosh**, ne **bosh** aro **ko‘z**,*
*Ne **yuz**, ne **yuzda** lab, ne **lab** aro so‘z.*
(ФШ.)

YA’ni baytdagi 18 so‘zshaklning 9 tasi – deyarli yarmi, somatizmlar bo‘lib, ular bir-biri bilan iyerarxik planda tartiblangan hamda o‘zaro semantik aloqadorlikda inson vujudini bunyod bo‘lish jarayonini “adam nihonxonasidin vujud koshonasig‘a kelmak” silsilasini yorqinlashtiradi.

GARDAN. Inson gavdasining boshi bilan tanasini tutashtiruvchi uzvi. O‘TILda bo‘yin; bo‘yinning orqa qismi. Sh.Rahmatullayevning “Bu ot yon tomonga aylan-” ma’nosini anglatadigan tojikcha garonidan fe’lining gardon hozirgi zamon asosiga teng bo‘lib (TjRS, 99)... O‘TILda bu otning ma’nosi “bo‘yinning orqa qismi” deb izohlangani o‘rinli emas,” [11] deyilsa-da, bu fikr bir qadar tor ma’noga ega. Masalan: “*Keyin oq ko‘ylagining **gardaniga** yopishgan joyi ho‘l bo‘ladi*” misolida aynan “bo‘yinning orqa qismi” ma’nosini bildiradi. “*Uni beshik to‘yisiyam meni **gardanimda**! Qaysi biriga yetkazay*!” misolida esa ma’no ko‘chishi bilan “zimma” semasi yuzaga chiqqan. Demak, bu so‘zning dinotativ ma’nosi “bo‘yinning orqa qismi” bo‘lib, matn ehtiyojiga ko‘ra bir necha konnotativ ma’nolarda ham qo‘llana oladi. Aslini olganda, bu forscha so‘z kam iste’molli, nofaol hisoblanadi. O‘zbekcha *bo‘yin* oti esa *gardan* bilan mutlaq sinonim sanalmaydi.

JIGAR. Insonning ichki a’zosi. Ovqat hazm qilish uchun o‘t suyuqligini ishlab chiqaradi. Ikki ma’noda qo‘llanadi: 1. Ichki a’zo. 2. Ko‘chma ma’noda o‘ta yaqin qarindosh. Misollar: 1. *Qarasam, har yelkasiga ikkitadan yigit o‘tirsa bemalol ko‘taradigan, kesilgan jigardek qalin labida mo‘ylov o‘sgan Parcha opa devor tagida g‘o‘ladek oyoqlarini cho‘zib bir lagan oshni tizzasiga qo‘yib uryapti. (O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 104). 2. Ergas’hali aka yiqilishi bilan o‘n chog‘li hamyurtlari «voy jigarim»lab o‘sha tomonga otishdi*. (O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – B. 203). Sinonimi – *bag‘ir*. Qo‘llanish chastotasi jigarda ustunlik kasb etadi, bag‘irning iste’mol doirasi ancha cheklangan.

2. **Arab tilidan o‘zlashgan** SLlarga *kaft* hamda *kift* terminlari kiradi.

Arab tili somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub til. Undan hozirgi o‘zbek tiliga juda ko‘p so‘zlar o‘tgan. Eski o‘zbek tilida, ya’ni Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan umumiy leksemalarning 40 foizi arabcha o‘zlashmalarni tashkil etgan. SLlarda milliylik ruhi ustun bo‘lganligi sababli bo‘lsa kerak, arabcha o‘zlashmalarning adadi benihoya past.

KAFT. Qo‘lning bilak uchidan barmoqlargacha bo‘lgan ichki va oyoq panjasining ostki yaxlit qismi. Qo‘lning bilak uchidan barmoqlarning oxirigacha bo‘lgan qismi; panja, shapaloq[1].

O‘zbek tilida “sahn” ma’nosi bilan leksik ma’nosidan ustunlik kasb etadi. 1. *O‘ng qo‘limning kaftida avval to‘rtta oppoq, chuqur chiziqcha paydo bo‘ldi, o‘sha zahoti chiziqchalardan tirqirab qon oqa boshladi. (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 9). 2. Hovli sathi keng bo‘lgani bilan kaftdek bo‘sh joy yo‘q*. (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 54).

KIFT. Gavdaning bo‘yindan qo‘lgacha bo‘lgan qismi; yelka. 2. Kiyimning yelkada turadigan, yelkani qoplaydigan qismi. Masalan: *Ko‘ylagining oldini yoqavayron qilib yechgan doirakash bir tomonga kift tashlab g‘ayrat bilan childirmani savalay boshladi.* (O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”. – B. 177).

O‘zbek tilida o‘z lug‘aviy ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noda “asos”, “tayanch” ma’nolari bilan ham qo‘llanadi. *Kiftini keltirmoq. Akang aylangur, kiftini keltirib yubor hazilliyam kiftini keltirasan, – To‘lamat mo‘ylov yirik-yirik tishlarini ko‘rsatib iljaydi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili lug‘at tarkibining muhim va, ayni paytda, o‘ta faol qismi bo‘lgan inson tana a’zolarini atovchi leksik birliklarda o‘z qatlam so‘zlari faol, fors-tojikcha SLlar nofaol, arabcha o‘zlashmaga xos SLlar esa kam iste’molli sanaladi. Sababi, somatizmlar paydo bo‘lishiga ko‘ra qadimiy bo‘lib, ularning turkiycha atalishi ayni lisoniy birliklarning boshlang‘ich nuqtasida turishi bilan xarakterlanadi.

Resume. Somatisms are mainly words denoting the names of human body parts. Linguists have different views on the term somatism (soma (somatos) - body). In linguistics, typology generally identifies important

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университкт, 2000. – 600 б.

features of the structure of a language based on the study and comparison of the construction of individual borrowed languages. Typology also classifies language units based on some common feature. Therefore, it is appropriate to interpret the names of human body parts in the Uzbek language by dividing them into: 1) native layer and 2) borrowed layers. Despite the fact that somatic lexemes belonging to the borrowed layer are somewhat less than their counterparts in their own layer, Uzbek words performed lexical-semantic functions that did not fit into their linguistic capabilities. Therefore, the article presents a formal-functional and pragmatic-semantic analysis of somatisms belonging to the borrowed layer - Arabic and Persian-Tajik.

Key words: somatism, linguistic typology, non-linguistic typology, synergetics, lexical layer, partonymy, frequency, Arabic, Persian-Tajik, body, forehead, lip, neck, liver, palm.

Резюме. Соматизмы - это, в основном, слова, обозначающие названия частей человеческого тела. Лингвисты имеют разные взгляды на термин соматизм (soma (somatos) - тело). В лингвистике типология в целом выявляет важные особенности структуры языка на основе изучения и сравнения построения отдельных заимствованных языков. Типология также классифицирует языковые единицы на основе некоторого общего признака. Поэтому уместно интерпретировать названия частей тела человека в узбекском языке, разделив их на: 1) исконный слой и 2) заимствованные слои. Несмотря на то, что соматические лексемы, принадлежащие к заимствованному пласту, несколько меньше, чем их аналоги в собственном пласте, узбекские слова выполняли лексико-семантические функции, которые не соответствовали их лингвистическим возможностям. Поэтому в статье представлен формально-функциональный и прагматико-семантический анализ соматизмов, принадлежащих к заимствованному слою - арабскому и персидско-таджикскому.

Key words: соматизм, лингвистическая типология, нелингвистическая типология, сенергетика, лексический пласт, партонимия, частота, арабский язык, персидско-таджикский, тело, лоб, губы, шея, печень, ладонь.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SEMURG‘ OBRAZINING LINGVOMADANIY TALQINI (O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI MISOLIDA)

Murodqulova Iroda Sharofiddinovna,
Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy o‘zligi, qadriyatlar tizimi va ma’naviy olami uning ramzlarida mujassamlashgan bo‘ladi. Ramzlar shunchaki belgilar emas, balki xalqning dunyoqarashi, olamni idrok etish usuli va mifologik tafakkurini ochib beruvchi semantik kodlardir. Turkologiya sohasida qushlar va ularning simvolikasi alohida o‘rin tutadi. Bu boradagi lingvistik va madaniy birliklar o‘ziga xos leksik-semantik maydonni tashkil etib, qadimgi turkiy xalqlarning kosmogonik tasavvurlarini aks ettiradi. Jahon folklorshunosligida qushlarning aksariyati qanoti bo‘lganligi uchun osmon ilohlari bilan bog‘liq degan tushunchalar bo‘lgan. Qushlarning ruh va olov bilan aloqadorligi Zardushtiylik dinida ham mavjudligi manbalarda qayd etiladi. “Avesto”dagi qushlar, xususan, Hvarna far olov bilan bog‘lab talqin etilganligini kuzatish mumkin[1].

Ta’kidlash joizki, jahon xalqlari mifologiyasida qushlar nafaqat osmon va yer o‘rtasidagi vositachi, balki insoniyatga madaniyat va hayotiy ne’matlarni

[1] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001. – Б. 16.

yetkazib beruvchi qahramonlar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Qadimgi afsonalarda qush obrazining ilohiy olovni keltirib, insonlarga yaxshilik qiluvchi jonzot sifatida ulug‘lanishi markaziy motivlardan biri hisoblanadi. Buni folklorshunos K.Imomov quyidagicha ko‘rsatadi: “Xvarna Far olov ma’budi, omad va tole timsoli bo‘lib, u kimning boshiga qo‘nsa yoki soya solsa, unga baxt va iqbol ato etadi, deb qaralgan”[1].

O‘zbek xalqi llingvomadaniyatida va turkiy xalqlarning qadimgi mifologik qatlamlarida, xususan, “Avesto” va undan keyingi adabiy manbalarda Saena (keyinchalik Semurg‘) obrazi alohida o‘rin tutadi. Ushbu qush bilim, shifo va sadoqat timsoli bo‘lib, koinotning muvozanatini saqlab turuvchi qudratli kuch sifatida talqin qilingan. Turkiy xalqlar madaniyatida bu obrazning mantiqiy davomi sifatida Humo qushi gavdalanadi. Humo – ezgulik va olijanoblikning oliy ramzi bo‘lib, u moddiy olamdan ko‘ra ma’naviy va ilohiy dunyoga yaqinroq turadi. Ushbu qushlar obrazining semantik asosi Xvarna (yoki Far) tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Chunki zardushtiylik va qadimgi sharq mifologiyasida Xvarna – ilohiy nur, olov ma’budi hamda baxt va iqbol timsoli sanalgan.

Har bir xalqning ramziylashgan qushlari mavjud. Masalan, turkiy xalqlarda burgut, qaldirg‘och shunday talqin qilinadi[2]. Rus mifologiyasidagi Olovqush obrazi ham shundan xabar beradi[3]. Qushlarning suv bilan bog‘lab talqin etilgan-u Buxoradagi Varaxsha xarobalaridan topilgan qanotli, qo‘shoyoq, yarim qush, yarim ayol surati ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu suratda Semurg‘ va suv ma’budasi Anaxita timsolining uyg‘unlashtirilgani anglashiladi[4]. Bundan anglashiladiki, qushlar obrazi jahon xalqlari mifologiyasida faqatgina bir yo‘nalishli simvol emas, balki universal vositachi vazifasini bajaradi. Yuqoridagi matnda keltirilgan misollar qush simvolikasining sinkretik (bir necha tushunchalarni birlashtirgan) tabiatini ochib beradi. Qayd etilganidek, turkiy xalqlarda burgut – samoviy qudrat va davlatchilik timsoli bo‘lsa, qaldirg‘och – insoniyatning do‘sti va uy-joy barakasi ramzi sifatida talqin qilinishi bejiz emas. Rus mifologiyasidagi Olovqush (Jar-ptitsa) esa bevosita quyosh va ilohiy olovning yerga tushishi bilan bog‘liq bo‘lib, u yuqorida zikr etilgan Xvarna (Far) tushunchasining slavyan madaniyatidagi tipologik o‘xshashidir. Varaxsha xarobalaridan topilgan qanotli, qo‘shoyoq, yarim qush va yarim ayol surati san’atshunoslik va mifologiya uchun ulkan ahamiyatga ega.

Turkiy tillar, jumladan o‘zbek tili va boshqa turkiy tillar oilasiga mansub xalqlarda qush nomlari nafaqat oddiy hayvonot obyekti sifatida,balki keng madaniy va ramziy mazmuniga ega leksik birliklar sifatida ham qo‘llaniladi. Shuningdek turkiy tillarda qushlarning juda ko‘plab nomlari mavjud bo‘lib, bular: *bulbul, qarg‘a, kabutar, semurg‘, qaldirg‘och, g‘oz, o‘rdak, mayna, turna to‘tiqush, burgut* va boshqa ko‘plab turdagi qushlarga doir frazeologik birliklar, maqollar, ideomalar tarkibida muhim leksik birlik sifatida ishlatilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Turkiy xalqlarda qush ramzlari keng tarqalgan bo‘lib, ular turli xil ma’nolarda, ya’ni *tinchlik, sadoqat, erkinlik* kabi tushunchalarni ifodalaydi. O‘zbek xalq dostonlarida bu kabi ramzlar talaygina. Xususan, o‘zbek xalq dostonlarida qushlar obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, *qaldirg‘och, kabutar, bulbul, mayna semurg‘* kabi qushlarimiz o‘zbek lingvomadaniyatida ma’no mazmunga ega.

O‘zbek xalq ijodi namunalarida alohida ahamiyatga ega obraz Semurg‘dir. *Semurg‘* o‘zbek xalq dostonlarida muhim mifologik obrazlardan biri bo‘lib, u juda ko‘plab turkiy xalqlar mifologiyasida keng tarqalgan qushlarimizdan biridir. Simurg‘ (semurg‘) – eron, sug‘d xalqlari mifologoiyasida sehrli barcha narsaga qodir qush ramzi sifatida tasvirlanib, Axuramazdaga tenglashtirilgan. U burgutsimon tumshuqli katta qanotli, bahaybat va patlari ham sehrli qush tarzida tasvirlanadi[5]. Semurg‘ sharq xalqlari og‘zaki poetik ijodida afsonaviy qush obrazi: osmonda uchish,uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo‘lgan “Avesto”da semurg‘ shaklida ishlatilgan.

Semurg‘ o‘zbek xalq ertak afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi hamrohi, uni “yetti zulmat ichidan” olib chiquvchi fantastik qush sifatida gavdalanadi[6]. Turkiy xalqlarda semurg‘ning *Humo, Anqo, Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg‘on, Bulbulugo‘yo* kabi nomlari qo‘llanilgan. Dunyo xalqlari qadimdan hayvonlar va qushlar bilan yaqin munosabatda bo‘lgan. Bunday munosabatlar natijasida qushlar jamiyatda insonlar hayotida ramz sifatida tilga olina boshlagan.Buning natijasida esa xalq og‘zaki ijodida, ya’ni dostonlarda bu qarashlar ramzlar yaqqol namoyon bo‘lgan. Semurg‘ o‘zbek folklorshunosligida Anqo aslida arab folkloriga aloqa-

[1] Имомов К. Ўзбек фольклорида Ҳумо қуши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2011. №5. – Б. 21-24.
[2] Токарев С.А. Огонь / Мифы народов мира. Том 2. – М.: 1997. – С. 158-160.
[3] Токарев С.А. Огонь / Мифы народов мира. Том 2. – М.: 1997. – С. 346-348.
[4] Имомов К. Ўзбек фольклорида Ҳумо қуши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. №5. – Б. 25.
[5] Mamadaliyeva Z. Qaqnus timsoli talqinlari & Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi *«Шарқ юлдузи» журнали, 2013/6*
[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 7-tom, – B. 577-578.

dor mifologik qush obrazlaridan biri bo‘lib keyinchalik o‘zbek folklorida ham namoyon bo‘lgan[1]. O‘zbek xalq dostonlari va mifologiyasidan bizga ma’lumki semurg‘ *qushi baxt, davlat, adolat, adabiy hayot boylik* timsollari sifatida kelgan. Afsonalarda aytilganidek humo qushi boshiga qo‘ngan inson baxtli va davlatli inson bo‘lgan Semurg‘ obrazi dunyo xalqlari mifologiyasida xususan eron-sug‘d xalqlari folklorida mifologik obraz sifatida talqin qilinadi. Semurg‘ qushi juda ko‘p nomlar bilan atalishini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan *humo, anqo,semurg‘, murg‘ufarmon, bulbulgo‘yo, davlat qushi, baxt qushi* sifatida aslida esa bu qushlarning bari ko‘rinishi badiiy obraziga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. K.Imomov o‘zining tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Semurg‘ qushlar zulm va zo‘rlikni yengishga hal qiluvchi vazifani o‘taydi”[2]. Qolaversa o‘zbek folklorida ushbu qushning quyidagi xarakterli xususiyatlari ham qayd etiladi:

a) bolajon qush;

b) inson kabi bilag‘on sezgir, dono qush;

c) insonlardek rahmdil, mehr-muruvvatli, oqibatli qush;

d) najotkor qush;

e) go‘shtxo‘r qush;

f) juda balandparvoz qush;

g) podshoh, hukmdor qush;

h) qimmatbaho qush;

i) qo‘rqmas mo‘jizakor qush;

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida Semurg‘ qushi nafaqat mavjudot sifatida, balki fantastik sehrli qush sifatida dostonlarda gavdalangan. Bundan anglashiladiki, semurg‘ qushi tasvirlari arab, fors va turkiy mifologiyasida uchragan bo‘lib u miflarda sehrli qush misolida tabiat bilan aloqador mavjudot sifatida ko‘rinish bergan. Ramz darajasiga ko‘tarilishi X-XIII asrlarga borib taqaladi. Uning ildizlari M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga borib taqaladi.

Semurg‘ qushining yozma manbalarda ramz darajasiga ko‘tarilishi dostonlarda ham qahramonning ruhiy va ma’naviy o‘sishiga xizmat qiluvchi ma’no anglatganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Malikayi ayyor” dostonida quyidagi misralarni ko‘rishimiz mumkin:

Harchand qichab bahodir beklar,
Qichaganman yetolmadi devorlar,
Mast bo‘lib boradi qalandar
Hayron bo‘lib borayotir zo‘ravor
Davlat qo‘nsa gar chibining boshiga
***Semurg‘** qushlar salom berar qoshiga,*
Banda ko‘nar tangri qilgan ishiga
Avaz qamchi urar asil qushiga.
Chu dedi G‘irotga qamchini chopti.
Tillari tanglayga bordi-da qotdi.

(“Malikayi ayyor”, 77-b.)

Quyidagi misolda qahramonning ruhiy holati gavdalangan, ya’ni semurg‘ qushi ***bilim, ma’naviy yuksalish*** va ***ilohiy yordam*** ramzi sifatida gavdalangan. Bundan tashqari, rahbarlik qilish yuksak maqsadlarga yetaklovchi ma’noda ham kelgan deya ayta olamiz. “*Semurg‘ qushlar salom berab qoshiga*” misrsasi orqali semurg‘ qushi qalandarning ruhini va qalbini uyg‘otish kabi ilohiy kuch beruvchi ma’noni anglatgan. “Kuntug‘mish” dostonida esa:

Oqizing ko‘zidan qonli yoshini
*Uchiring qo‘lidan **davlat qushini***
Tan bag‘ishlab,bobo,sizga tegayin,
Kelib keskin shahzodaning boshini

Ushbu misrada shahzodadan hokimiyatni tortib olishi, hokimiyatni qo‘ldan boy berilishi nazarda tutilgan. Semurg‘ qush uchsa, davlat ham ketishiga ishora qilingan. Davlat qushi bu jarayonda davlat va hokimyatning ilohiy ramzi sanaladi.

Semurg‘ qushining dostonlarda qanday vazifa bajarganligini va ularning ramziy ma’nolari haqida quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:


Semurg‘ qushining funksiyalari va ularning ramziy ma’nosi

T/r	Vazifasi	Tavsif	Misol	Ramziy ma’nosi
1	Afsonaviy	Afsonaviy va qudratgli mavjudot sifatida qahramonga yordam	*U vaqtda podshohlarga shu rasm edi: davlatqush degan qushni uchirar edi,kimning boshiga qo‘nsa podshoh qilar edi.* (“Kuntug‘mish”, 114-b.)	Sehr va fantastika bilan insonni qo‘llab-quvvatlash

[1] Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – Б. 136.
[2] Имомов К. Ўзбек халқ эртаклари // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Т.: Фан, 1981. – Б. 82.

2	Ramziy	Qahramonning ichki o‘sishi va donoligini ifodalaydi	*Oqizing ko‘zidan qonli yoshini,* *Uchiring qo‘lidan **davlat qushini;*** *Tan bag‘ishlab, bobo, sizga tegayin, kelib boshini;* (“Kuntug‘mish”. 43-b.)	Donolik, axloqiy kamolot, ma’naviy rivojlanish
3	Himoyachi	Qahramonni yov dushmanlardan himoya qiladi	*Davlat qo‘nsa gar chibining boshiga* ***Semurg‘** qushlar salom berar qoshiga,* *Banda ko‘nar tangri qilgan ishiga* *Avaz qamchi urar asii qushiga.* *Chu dedi G‘irotga qamchini chopti* *Tillari tanglayga bordi-da qotdi.* (“Malikayi ayyor”, 77-b.)	Kuch, adolat va himoya ramzi
5	Tabiat bilan uyg‘unlik	Tabiat bilan bog‘liq uyg‘unlikni ifodalaydi	*Chambil elida Go‘ro‘g‘li zo‘ravor qirq otli sardor,to‘rt yarim lak bedovsuvor chiltonlarning biri Soqibulbul degan sayisi bor.* (“Malikayi ayyor”, 3-b.)	Tabiat qudrati, tabiat bilan uyg‘un yashash

Quyidagi rasmda semurg‘ning dostonlardagi ma’noviy guruhlar bo‘yicha ko‘rinishi taqdim etilgan:



Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq dostonlarida semurg‘ faqat bir mifologik obraz sifatida tasvirlanmaydi, balki o‘zining ramziy ma’nolari orqali xalqlarning ruhiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi. U, ayniqsa, *donolik, kuch, ulug‘vorlik* ramzi sifatida qo‘llanib, dostonlarning asosiy qahramonlariga ma’naviy-axloqiy ma’no beradi. Qolaversa, Semurg‘ qushining turli linvomadaniyatlarda turli xil talqin qilinganligini va ular turli xil nomlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Rezyume. Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodida qushlar obrazining simvolik va metaforik tabiati tadqiq etilgan. Qushlar obrazining xalq dostonlari syujetidagi o‘rni va ularning mifopoetik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek xalqining qadimiy mifologik tasavvurlarini hamda epik an’analarini anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, Semurg‘ obrazining mifologik genezisi va doston poetikasini takomillashtirishdagi badiiy ahamiyati ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan.

Resume. This article explores the symbolic and metaphorical nature of bird imagery in Uzbek folklore. Investigating the role of bird figures in the plots of folk epics (dastans) and their mythopoetic characteristics contributes to a profound understanding of the ancient mythological perceptions and epic traditions of the Uzbek people. Furthermore, the mythological genesis of the Semurgh (Simurgh) figure and its artistic significance in refining the poetics of the dastan are substantiated through scholarly evidence.

Резюме: В данной статье исследуется символическая и метафорическая природа образа птиц в узбекском народном устном творчестве. Изучение роли образов птиц в сюжете народных дастанов и их мифопоэтических особенностей служит более глубокому пониманию древних мифологических представлений и эпических традиций узбекского народа. Вместе с тем, на основе научных аргументов обоснованы мифологический генезис образа Семурга и его художественное значение в совершенствовании поэтики дастана.


Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Xasanov Davirbek Abdumalik o'g'li
ingliz til adabiyoti yo'nalishi tayanch doktoranti
Guliston davlat universiteti

Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari tutashgan nuqtada shakllangan ilmiy yo'nalishdir. Ushbu fan til va madaniyatning o'zaro munosabati, ularning bir-biriga ta'siri hamda bu aloqalarning jamiyat hayotida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Chunki til faqat aloqa vositasi bo'lib qolmay, balki, xalqning tarixi, dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlari va milliyligini ham o'zida aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shu sababli til orqali millatning ma'naviy olami, turmush tarzi va madaniy tajribasi haqida ham muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Lingvokulturologiya aynan mana shu jarayonlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu fan til birliklarida – so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, frazeologizmlar va boshqa ifodalarda aks etgan madaniy ma'no va ramzlarni tahlil qiladi. Masalan, bir xalq tilida mavjud bo'lgan ayrim iboralar yoki timsollar o'sha xalqning qadriyatlari, tarixiy tajribasi va hayot tarziga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, til madaniyatni saqlovchi va uni avloddan avlodga yetkazuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'sir jarayonini ham o'rganadi, ya'ni jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar tilga qanday ta'sir qilishi yoki aksincha, til birliklari orqali madaniyat qanday shakllanishi va rivojlanishini tahlil qiladi. Bu jarayonda til faqat ichki tizim sifatida emas, balki ijtimoiy, tarixiy va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Natijada til va madaniyat o'zaro bog'langan yagona tizim sifatida talqin qilinadi. lingvokulturologiya inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va til o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganadigan muhim fanlardan biridir. U orqali til birliklarining faqat grammatik yoki leksik xususiyatlari emas, balki, ularning ortida turgan madaniy ma'no va milliy tafakkur ham ochib beriladi. Shu sababli mazkur fan bugungi kunda tilshunoslikning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Tilshunos olim V. Maslova lingvokulturologiya sohasini fan sifatida shaklanishini, rivojlanishini uchta katta davrga bo'lib o'rgangan[1]:



1-chizma: lingvokulturologiyaning o'rganilishi.

[1] Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019 – B. 20.

Telia fikricha, frazeologik birliklar faqat leksik yoki grammatik birlik sifatida qaralmasligi lozim[1]. Har bir ibora o‘zida xalqning tarixiy tajribasini, ijtimoiy munosabatlarini va madaniy qarashlarini jamlagan bo‘ladi. Shu tariqa frazeologik birliklar orqali jamiyat qadriyatlari nutqga ko‘chadi va avloddan-avlodga yetadi. Maslova esa frazeologik birliklarni **til va madaniyat ajralmas tizimi** sifatida ko‘radi. Maslova shuningdek, iboralarni tahlil qilganda ularning madaniy kontekstini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi, chunki ko‘plab frazeologik birliklar faqatgina so‘zlardan iborat bo‘lib qolmay, ular xalq tafakkuri va kundalik tajribasini ham aks ettiradi[2]. Telia va Maslova nazariyasi frazeologik birliklarni o‘rganishda ikki asosiy fikrni beradi: birinchisi, iboralar madaniyat va tarix bilan chambarchas bog‘liq; ikkinchisi, ularni tahlil qilishda madaniy kontekst, xalq qadriyatlari va mentalitetni hisobga olish muhim. Bu yondashuv frazeologiyani oddiy til birikmasidan ko‘ra kengroq, xalq hayotini, dunyoqarashini va qadriyatlarini ifodalovchi jonli qatlam sifatida tushunishga yordam beradi.

Frazeologiyaga alohida fan sifatida qarash g‘oyasi tilshunoslikda birdaniga paydo bo‘lmagan. Bu masalaga birinchilardan bo‘lib jiddiy e’tibor qaratgan olimlardan biri rus tilshunosi D. Polivanov hisoblanadi. U til tarkibidagi ayrim barqaror birikmalar oddiy so‘zlar yoki oddiy so‘z birikmalari kabi tushuntirib bo‘lmasligini payqagan va shu sababli ularni alohida yo‘nalishda o‘rganish zarurligini ta’kidlagan. D. Polivanovning fikricha, til faqat alohida so‘zlardan iborat tizim emas. Til ichida shunday birikmalar ham mavjudki, ular bir nechta so‘zdan tuzilgan bo‘lsa ham, ma’no jihatdan bitta butun birlik sifatida qabul qilinadi. Bunday birikmalarni oddiy grammatik bog‘lanish sifatida ko‘rish yetarli emas. Chunki ularning ma’nosi ko‘pincha ko‘chma, obrazli va xalq tafakkuri bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli olim tilshunoslikda bu birliklarni o‘rganadigan yangi soha shakllanishi kerakligini aytadi. U bu fikrini tushuntirar ekan, frazeologiyaning til tizimidagi o‘rnini leksikologiya va sintaksis o‘rtasidagi munosabat bilan qiyoslaydi. Ya’ni leksikologiya alohida so‘zlarni o‘rganadi, sintaksis esa ularning grammatik birikishini tahlil qiladi. Ammo tilimizda shunday iboralar borki, ular na to‘liq leksik birlik, na oddiy sintaktik birikma sifatida qaraladi. Ular o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan, ko‘pincha xalqning tajribasi va tasavvuri bilan boyigan ifodalardir. D. Polivanov aynan shu birliklarni o‘rganadigan yangi sohani **frazeologiya** yoki **idiomatika** deb atash mumkinligini ta’kidlagan[3]. Aslida, bu qarash tilshunoslik uchun juda muhim qadam bo‘lgan. Chunki shu orqali tilning yana bir boy qatlami — obrazli va barqaror iboralar dunyosi ilmiy e’tibor markaziga tushdi. Keyinchalik ko‘plab olimlar D. Polivanovning bu g‘oyasini davom ettirib, frazeologik birliklarning tuzilishi, ma’nosi va qo‘llanish xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga kirishdilar. Natijada frazeologiya bugungi kunda tilshunoslikning muhim va qiziqarli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki aynan frazeologik birliklar orqali tilning obrazliligi, xalqning hayot tajribasi va dunyoni qanday tasavvur qilishi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish tilning faqat grammatik yoki leksik tomonini emas, balki uning ortida turgan madaniy qatlamni ham anglash imkonini beradi[4]. Chunki ko‘p hollarda iboralar shunchaki nutqni bezab turadigan vosita emas, balki xalqning dunyoni qanday ko‘rishi va tushunishini ham ifodalaydi. Shuning uchun frazeologik birliklarni o‘rganishda ularning paydo bo‘lish manbasi, tarixiy sharoiti va madaniy asoslari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim frazeologik birliklarning kelib chiqishi xalqning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan bog‘liq tasavvurlar ko‘plab iboralarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bunday iboralar orqali o‘tmishdagi turmush tarzi va mehnat jarayonlari ham til orqali saqlanib qoladi. Natijada frazeologik birliklar faqat nutqiy vosita bo‘lib qolmay, balki xalq hayotining ma’lum bir davrini eslatib turadigan madaniy belgiga ham aylanadi. Masalan, “ boshi osmonga yetmoq”, “tepa sochi tikka bo‘lmoq” iboralari o‘zbek xalqigagina xos biriklar hisoblanadi.

Lingvomadaniy jihatdan qaralganda, frazeologik birliklar milliy tafakkur bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Har bir xalq o‘z tajribasi, qadriyatlari va ijtimoiy muhitiga qarab ayrim hodisalarga turlicha munosabat bildiradi. Bu munosabat tilga ham ko‘chadi. Shu sababli turli tillarda bir xil mazmunni ifodalovchi iboralar bo‘lishi mumkin, lekin ularning obrazlari va ifoda usuli farq qiladi. Bu esa har bir tilning o‘ziga xos madaniy rangini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklar ko‘pincha jamiyatdagi axloqiy qarashlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Ayrim iboralar orqali insonning qanday xatti-harakati ma’qullanishi yoki aksincha, qoralanishi ifodalanadi. Shu tariqa frazeologik birliklar jamiyatning ichki qadriyat tizimini ham aks ettirib turadi. Ular orqali odamlar bir-birini tushunadi, fikrini qisqa va obrazli tarzda yetkazadi. Masalan, ***“tilini tiymoq”*** iborasi juda oddiy ko‘rinsa ham, u o‘zbek jamiyatidagi muoma-

[1] Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 214–219.


[2] Маслова, В. Лингвокультурология: учебное пособие. Москва: Академия, 2001.

[3] Д. Поливанов. К вопросу о фразеологии. Вопросы языкознания. – М., 1928. – С. 144.

[4] Usmonova. Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.

la madaniyatini ifodalaydi. Bu ibora insonning o‘zini nazorat qilishi, ortiqcha gapirmasligi, birovni ranjitib qo‘ymaslik uchun ehtiyot bo‘lishi kerakligini bildiradi. Aslida, o‘zbek madaniyatida til, ya’ni so‘z juda katta ahamiyatga ega. Odamning obro‘si ham, hurmati ham ko‘pincha uning qanday gapirishiga qarab baholanadi. Shuning uchun “tilini tiymoq” iborasi faqat jim turishni emas, balki odob va vazminlikni saqlash g‘oyasini ham anglatadi. Bu yerda jamiyat tomonidan ma’qullanadigan xulq, o‘zini tuta bilish, hurmatni saqlash kabi qadriyatlar, aks etadi. Yana bir ibora ***“yog‘ tushsa yalagudek qilmoq”***. Bu ibora odatda juda toza, saranjom-sarishta joy yoki narsani tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, xona shunchalik ozoda bo‘ladiki, go‘yo yerga yog‘ tushsa ham darrov yalab yuboradigan darajada toza. Bu tasvir biroz mubolag‘ali bo‘lsa ham, xalq tasavvurida poklik va tartib qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek oilalarida uy-joyni ozoda saqlash, mehmon oldida tartibli bo‘lish muhim qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun bunday ibora nafaqat tozalikka, balki uy bekasi yoki odamning saranjomligiga berilgan baho sifatida ham ishlatiladi. ***“Hizni yo‘qlasang hozir-u nozir”*** iborasi ham xalqona tasavvurga juda yaqin bo‘lgan frazeologik birliklardan biridir. Bu ibora odatda kimdir haqida gap ketayotganda yoki uni eslab qolgan zahoti o‘sha odam kutilmaganda paydo bo‘lib qolsa ishlatiladi. Go‘yo biror kishini tilga olsang, u darrov shu yerda paydo bo‘ladigandek tuyuladi. Odamlar ko‘pincha biror kishini gapirib o‘tirgan paytda u tasodifan kirib kelib qolsa, buni shunchaki tasodif deb emas, balki kulgili bir holat sifatida qabul qiladi. Shunda “hizni yo‘qlasang hozir-u nozir” deb aytiladi[1]. Bu orqali suhbatga biroz yengillik va samimiylik kiradi. Frazeologik birliklar tilning oddiy so‘zlar qatori emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, kundalik hayoti va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan jonli qatlamdir. Har bir ibora, maqol yoki matal shunchaki nutqni bezab turuvchi ifoda emas; ular orqali odamlar bir-birini tushunadi, hissiyotlarini yetkazadi va o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtiradi.

Frazeologik birliklar lingvolulturologik tarafdan quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:



2-chizma: Asosiy xususiyatlar.

Shu jihatdan frazeologiya til va madaniyatning ajralmas, bir-birini to‘ldiruvchi dunyosini ochib beradi. Lingvokulturologik yondashuv iboralarni faqat so‘zlar yig‘indisi sifatida emas, balki ularning ortida yashirin ma’no, xalq tafakkuri va madaniy kontekstni ham o‘rganishni talab qiladi. Nutqdagi oddiygina iboralar odamning odobini, hurmatini, oiladagi tartib-intizomni yoki hazil-mutoyibani ifodalashi mumkin. Masalan, “tilini tiymoq” iborasi jim turishni emas, balki odob, ehtiyotkorlik va samimiy hurmatni anglatadi, “yog‘ tushsa yalagudek qilmoq” esa tartib-intizom va poklikni qadrlashni tasvirlaydi. Shu tarzda har bir frazeologik birlik milliy xotira, madaniyat va hayot tajribasini avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida yashaydi. Bu birliklar orqali tilning obrazliligi, xalqning dunyoni qanday tasavvur qilishi va jamiyatning axloqiy me’yorlari yaqqol ko‘rinadi. Frazeologiya nutqni nafaqat ifodali, balki samimiy va jonli qiladi, suhbatga iliqlik, hissiyot va xalqona rang bag‘ishlaydi. Shunday qilib, har bir ibora o‘zbek xalqining tafakkuri, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi bir maydoncha sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarni lingvokulturologik nuqtai nazardan o‘rganish til va madaniyatning bir-birini boyituvchi, shakllantiruvchi jarayonlarini yanada chuqurroq anglashga imkon

[1] Хужаниязов Э., Султанова Н. O‘zbek xalqi turmush tarzi asosida shakllangan frazeologizmlar. — T.: Fan va jamiyat, 2017. — 64 c.

beradi. Ular orqali biz nafaqat so‘zlar, balki xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va hissiy dunyosini ham ko‘ramiz. Shu sababli frazeologiya bugungi kunda tilshunoslikning eng jonli, mazmunli va madaniy jihatdan boy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatdan tahlili amalga oshirildi. Frazeologiya nafaqat tilning leksik va grammatik qatlamini, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va mentalitetini aks ettiruvchi boy qatlam sifatida o‘rganiladi. Iboralar, maqollar va matallar orqali jamiyat hayoti, odob-axloq me’yorlari va xalq tafakkuri ifodalanadi. Tadqiqot frazeologik birliklarni madaniy kontekstda o‘rganish orqali til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab, bir-birini to‘ldiruvchi aloqalarni ochib beradi.

Аннотация: В данной работе проведён лингвокультурологический анализ фразеологических единиц. Фразеология изучается не только как лексико-грамматическая система языка, но и как богатый слой, отражающий исторический опыт, культурные ценности и менталитет народа. Через устойчивые выражения, пословицы и поговорки выражаются жизнь общества, нормы поведения и народное мышление. Исследование показывает, что изучение фразеологических единиц в культурном контексте позволяет глубже понять сложные и взаимодополняющие связи между языком и культурой.

Annotation: This study presents a linguocultural analysis of phraseological units. Phraseology is examined not only as a lexical and grammatical system, but also as a rich layer reflecting the historical experience, cultural values, and mentality of a nation. Through idioms, proverbs, and sayings, the life of society, moral norms, and national worldview are expressed. The research demonstrates that analyzing phraseological units in a cultural context helps to uncover the complex and interdependent relationship between language and culture.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA JONLI XALQ TILI ELEMENTLARI

To'ychiyeva Zulayxo Hamroqo'lovna,
Guliston davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Jonli xalq tili kishilar o'rtasidagi jonli aloqa tili, oddiy, kundalik muomala-munosabat tilidir. Kishilar o'rtasidagi munosabat esa deyarli neytral bo'lmaydi. U yoki bu darajada ijobiy yoki salbiy bo'lish bu munosabatning shartidir. Tilshunos olim S.Karimov "Badiiy asarda til vositalarining qo'llanishini qat'iy bir qolipga solib bo'lmasligini, unda umumxalq tilidagi barcha elementlardan foydalanishda cheklov yo'qligini, xullas badiiy matnda umumtil fondining birliklari uchrashi mumkinligini ta'kidlab o'tgan"[1]. Darhaqiqat, umumxalq tilining ko'p unsurlaridan she'riy nutqda foydalanish mumkin. Masalan, dialektizm, varvarizm, vulgarizm, jargon so'zlar badiiy nutqning kerakli o'rinlarida qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Xalq tilining bu muhim vositalaridan o'z o'rnida foydalanish ijodkorning mahoratini ko'rsatadi. Shu bois jonli xalq tilida ijobiy yoki salbiy bo'yoqli so'zlar, murojaat formalari, ko'chma ma'noli so'zlar, maqol va matallar ko'plab ishlatiladi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir.

Shu o'rinda M.Yusufning "Laganbardorlar" she'ridagi quyidagi misralarga diqqatimizni qaratamiz:

Ular iblis bilan tili bir o'rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham – laganbardorlar[2].
Muhammad Yusuf ("Laganbardorlar").

She'riy matndagi "*laganbardor*", "*iblis*", "*Azroil*", "*kimsa*" kabi so'zlar haqorat ma'nosidagi (vulgar) lug'aviy birliklar sanaladi. Bunday leksemalar va ularning lug'aviy ma'nolari asosan, so'zlashuv uslubiga xosdir. Ularni qo'llash nutq madaniyatiga xos emas, ammo badiiy asarda ma'lum tarixiy shaxsning xarakterini ochishda, voqea-hodisani baholashda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Muhammad Yusuf uslubining o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, uning asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari ufurib turadi. Shuning uchun ham biz uning she'rlarini o'qir ekanmiz, bir tomondan, ko'z oldimizda shu she'r yozilgan davr namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalq dostonlarining kuylari hamda xalq qahramonlarining so'zlari, qisqa, jonli xalq tili, xalq iboralari qulog'imizda jaranglab eshitilgandek bo'ladi.

Ta'magirni tortqilab,
Nafsi qo'ymas deydilar.
Nokas o'zi to'ysa ham,
Ko'zi to'ymas deydilar[3].
Muhammad Yusuf ("Shukr deysan sen qachon?")

Ma'lumki, jonli xalq tilida maqollar, matallar ko'p ishlatiladi. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi[4]. Muhammad Yusuf ijodida maqollarga keng urg'u berilgan.

Xalq orasida bu yorug' dunyoning yolg'onchi ekanligi, o'tkinchi ekanligi, molu dunyoning ham do'st emasligi, bu borada shoh Iskandarning o'limi oldidan aytgan vasiyatlari tez-tez esga olinadi. Bu vasiyat tarbiya vositasi sifatida ko'rsatiladi. Shoir bu hikmatlardan she'riy parchalar tuzib, o'z asarlarining xalq ko'ngliga yaqinligini ta'minlaydi. Xalqning his-tuyg'ularini ifodalay oladigan bo'lishiga intiladi:

Kiprikdan ham qisqadir
Molu dunyo yo'llari.
Ibrat bo'lsin, Iskandar
Ochiq ketgan qo'llari!...

[1] Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – 192 б.
[2] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.35.
[3] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.129.
[4] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.39.

Muhammad Yusuf (“Shukr deysan sen qachon?”)

Muhammad Yusuf she’riyati tadqiq qilinar ekan, uning ko‘p ma’noli so‘zlardan unumli foydalangani, ularni turli uslubiy vositalar sifatida qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz:

Shirin-shirin qarashlaring menga jannat,
Mening uchun seni yaratganga rahmat.
Yuragingni menga qaratganga rahmat,
Balki mening baxtim sensan, qaydan bilay,
Sen arzanda, men arzanda, nima qilay?[1]
Muhammad Yusuf (“Nima qilay?”)

Ushbu she’riy parchada “*shirin*”, “*jannat*”, “*yurak*” so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Odatda, “shirin” leksemasi biror narsa-predmetga xos bo‘lib, mazza-ta’m bildirishga xizmat qiladi. Lekin yuqoridagi misrada butunlay boshqa ma’noda qo‘llangan bo‘lib, yor qarashlarining nihoyatda rohatijon, yoqimli ekanligiga ishora qiladi. Yorning bunday qarashi har qanday odamga yoqadi. Uni yorug‘ dunyodagi eng baxtli, eng to‘kin odamga aylantiradi. Shunda u o‘zini jannatga tushganday his qiladi. Shoir yuqoridagi ma’no tovlanishlariga, so‘zlarni ko‘chma ma’nolarda qo‘llash orqali erishgan.

Shoir o‘z poetik asarlari tilining ravon va mazmundor bo‘lishi uchun, qofiyalarning to‘q va misralarning teng bo‘lishi uchun harakat qilib, ko‘p hollarda turg‘un birikmalar – frazemalarni ham asosiy mazmunini buzmagan holda shaklan yo kengaytirib, yo qisqartirib ishlatgan.

Qon yig‘latdi qaysi bag‘ritosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?
Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh,
Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?[2]
Muhammad Yusuf (“Jayron”)

Ushbu she’riy parchada “*qon yig‘lamoq*”, “*oyog‘iga bosh qo‘ymoq*” iboralari qo‘llanilgan. Keyingi frazemaning shaklini qisman o‘zgartirib berish bilan o‘z asari tilining ravonligi va ifodaliligiga erishgan. Mazmunni obrazli qilib berishga muyassar bo‘lgan.

Shoir quyidagi misralarda esa xalq orasida mashhur bo‘lgan “*qo‘liga qaramoq*” iborasini bo‘lishsiz formada – “*qo‘liga qaramagan*” shaklida yangicha uslubda qo‘llab, asar tilining bo‘yoqdorligini ta’minlagan:

Ey, o‘tmishdan o‘tgan kunin so‘ramagan,
O‘zbek borsa kim qo‘liga qaramagan?
Botirlari qul bo‘lishga yaramagan,
Suluvlari bo‘yniga osilgan dunyo![3]
Muhammad Yusuf (“Dunyo”).

Misollardan ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf o‘z asarlari tilini shirali va ravon qilish uchun xalq tilidan foydalanar ekan, tilga ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashadi. Ayrim hollarda esa, u vazn va o‘zchovni saqlash, to‘liq qofiyalar yaratish uchun xalq tilining turli formalaridan hamda eski o‘zbek adabiy tilining ayrim formalaridan ham unumli foydalanadi.

Adabiy matnlar milliy madaniyatni ifodalovchi asosiy manba sifatida qaraladi. Ayniqsa, maqol va iboralar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy tafakkuri va ruhiyati haqida insonda tasavvur va tushuncha uyg‘otadi.

Muhammad Yusufning umumxalq tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi, xususan, xalq iboralaridan foydalanish sohasidagi novatorligi, birinchi navbatda, shoirning frazemalarni o‘z asarlari mazmuniga yarasha qayta ishlab, silliqlashtirishda va ixchamlashtirishida ko‘rinadi:

Aslida-ku, baringiz bir o‘zbeksiz,
Bir yurt o‘g‘li, bir uzukka ko‘zdeksiz.
Bo‘g‘zimda tosh qotib qolgan suvdeksiz,
Mardu maydon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.
Muhammad Yusuf (“Armon”)[4].

Jonli xalq tilida “*tilab olgan o‘g‘il*” iborasi tez-tez ishlatiladi. Shoir shu iborani mohirlik bilan misralar ichiga joylab, yaxlit bir umumlashma ma’noni bera olgan.

Muhammad Yusuf – novator shoir, u o‘zbek tilidagi mavjud so‘zlardan foydalanib, yangi turg‘un birikmalar ham yaratadiki, bu birikmalar ijodkorning tilimizni yangi-yangi ifodalar bilan boyitishga intilganligidan dalolat beradi. Shoirning “Vatanim” she’rida:

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim[5], – deb yozadi, ya’ni “*qorachig‘i olovlarga sachragan*” birikmasini yaratdi.

Badiiy adabiyotda “*quyosh*”, “*oftob*” so‘zlarini tur-

[1] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.21.
[2] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.12.
[3] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.35.
[4] Muhammad Yusuf. Alyorim qolur. She’riy to‘plam. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – B.104.
[5] Муҳаммад Юсуф. Сайланма: шеърлар, достонлар, хотиралар. – Тошкент: Шарқ, 2017. – Б.9.

li obrazli vositalar sifatida ishlatilishi ma’lum. Lekin quyidagi parchada shoir oftobni olamga qiyoslab, “*oftobsimon*” so‘zini qo‘llaydi:

Bir qo‘lda belanchak, bir qo‘lda Qur’on,
Bir yelkada ketmon, birida iymon,
Barchaga barobar bir oftobsimon,
Yashnasin olam, deb yashaydi o‘zbek[1].
Muhammad Yusuf (“O‘zbek”).

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf o‘zining poetik asarlarida turli xil badiiy san’atlardan, til vositalaridan, xususan, jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Rezyume. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodida xalq tiliga tayangan holda yaratilgan she’riy asarlari maqol va iboralarning poetik nutq tizimidagi o‘rni xalqona ruhni berish, ohangdorlikni oshirganligi, matnda jozibadorlikni ta’minlash, emotsional ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajarishi, xalq og‘zaki ijodini namoyon qilish badiiy qimmatiga egaligi ochib berilgan.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

UNDOSHLAR BILAN BOG‘LIQ FONETIK HODISALAR: ASSIMILATSIYA

O‘rinboyeva E’zozxon Kamolovna
FarDU katta o‘qituvchisi

Raxmonova Dilzodaxon Akmaljon qizi
FarDU 2-bosqich magistranti

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili fonetikasida assimilatsiya hodisasi nutq oqimidagi tovushlar ketma-ketligida muayyan artikulyatsion belgilar asosida bir-biridan farqlanuvchi ikki undoshning o‘zaro moslashishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omili so‘zlovchining nutq apparati faoliyatida talaffuz qulayligiga intilishi, ya’ni artikulyatsion energiyani tejash tamoyilidir.

Leksik birlik tarkibida o‘zaro zidlanuvchi tovushlar ketma-ket kelganda, ularning talaffuzi qo‘shimcha kuch talab qilishi mumkin. Assimilyatsiya natijasida ushbu zidlanish belgilari (masalan, hosil bo‘lish o‘rni yoki usuli bo‘yicha farqlar) bartaraf etilib, tovushlar bir-biriga o‘xshash yoki butunlay aynan bir xil holatga keltiriladi. Bu esa til tizimida leksemaning adabiy me’yoriy shakli bilan bir qatorda uning og‘zaki so‘zlashuv yoki uslubiy variantlari shakllanishiga zamin yaratadi.

Ushbu hodisaning amaliy ko‘rinishlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

Regressiv assimilatsiya: Bunda keyingi kelgan tovush o‘zidan oldingi tovushning artikulyatsiyasini o‘zgartiradi. Masalan, “shirmoy non” birikmasining “shirmonnon” tarzida talaffuz etilishi keyingi “n” tovushining oldingi “y” tovushiga ta’siri natijasidir.

To‘liq assimilatsiya: Ikki xil undoshning butunlay bir xil undoshga aylanishi kuzatiladi. Masalan, “tarnov” so‘zining “tannov” shakliga kelishi yoki “badtar” so‘zidagi jarangli “d” tovushining o‘zidan keyingi jarangsiz “t” ta’sirida “battar” bo‘lib o‘zgarishi ushbu jarayonning yaqqol misolidir[2].

Ilmiy jihatdan yondashilganda, assimilatsiya jarayoni tilning fonetik sathi doimiy dinamik harakatda ekanligini va nutqning tejamkorlik qonuniyatlariga bo‘ysunishini tasdiqlaydi. Bunday fonetik variantlar ko‘pincha badiiy nutqda personajlar xarakteristikasini

[1] Muhammad Yusuuf. Alyorim qolur… She’riy to‘plam. – Toshkent: Ziyo nashr, 2019. – B. 38.
[2] Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – B 97.

ochib berishda yoki nutqning ekspressivligini ta'minlashda muhim uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qo'qon shevasi o'zbek tilining boshqa lahjalari va ayrim qardosh turkiy tillar kabi assimilatsiyaning barcha klassik formalarini o'zida mujassam etgan. Bunga progressiv (oldingi tovushning keyingisiga ta'siri), regressiv (keyingi tovushning oldingisiga ta'siri), to'liq va qisman ko'rinishlar kiradi. Biroq, Qo'qon shevasining o'ziga xosligi ushbu fonetik qonuniyatning amal qilish darajasi bilan belgilanadi.

Toshkent, Namangan va Qarshi shevalari bilan solishtirilganda, Qo'qon shevasida assimilatsiya jarayoni birmuncha sustroq ko'lamga ega. Masalan, Toshkent shevasida tovushlarning bir-biriga singib ketishi juda faol bo'lib, bu ko'pincha so'z o'zagining fonetik qiyofasini o'zgartirib yuboradi.

Toshkent va Namangan shevalarida ko'pincha to'liq assimilatsiya ustunlik qiladi: *oldi* so'zi *olli* shaklida; *pulni* so'zi *pulli* shaklida; *o'zimni* so'zi *o'zimmi* shaklida talaffuz etiladi.

Qo'qon shevasida esa bu jarayon ko'p variantlilik asosida namoyon bo'ladi. Bir tomondan adabiy tildagi kabi aslini saqlashga moyillik kuzatilsa, ikkinchi tomondan ma'lum darajadagi o'zgarishlar ham qayd etiladi: eshitdi, puldi yoki o'zimdi kabi shakllar bilan bir qatorda, o'zaro ta'sir natijasida yuzaga kelgan o'zimmi, bo'zzi yoki bo'zdi kabi variantlar parallel qo'llanilishi mumkin[1].

Progressiv assimilatsiya tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladigan hodisa bo'lib, unda so'z tarkibidagi oldingi tovush o'zidan keyin kelayotgan tovushning talaffuziga ta'sir ko'rsatadi va uni o'ziga moslashtiradi. Mazkur jarayon nutq a'zolarining harakati tejamkorligini ta'minlash hamda nutq oqimida tovushlarning oson talaffuz qilinishiga xizmat qiladi.

O'zbek tili fonetikasida progressiv assimilatsiyaning bir necha ko'rinishlari mavjud:

Birinchidan, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda, qo'shimchaning boshidagi undosh jarangsizlashadi. Masalan, -ga qo'shimchasi jarangsiz k yoki q undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, mos ravishda -ka yoki -qa shakliga o'tadi. Bunga chek-ka yoki qishloq-qa kabi misollarni keltirish mumkin. Ushbu holatda so'z o'zagidagi oxirgi tovush o'zidan keyingi tovushni o'zining jarangsizlik belgisiga moslashtirmoqda.

Ikkinchidan, o'zbek tili imlosida aks etmasa-da, jonli nutqda kelishik va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar tarkibida ham progressiv assimilatsiya faol kuzatiladi. Masalan, ishda so'zi talaffuz jarayonida ishta tarzida, kitobdan so'zi esa kitoptan tarzida aytiladi. Bu yerda ham so'z o'zagidagi jarangsiz undosh o'zidan keyin kelayotgan d jarangli undoshini t jarangsiz undoshiga aylantirishi kuzatiladi.

Uchinchidan, ayrim shevalarda va so'zlashuv nutqida burun undoshlarining ta'siri natijasida ham ushbu hodisa yuzaga keladi. Masalan, onamlar so'zining onammar tarzida talaffuz qilinishi m burun undoshining o'zidan keyingi l undoshini o'ziga to'liq o'xshatib olishi natijasidir.

Progressiv assimilatsiya tovushlar tizimidagi ketma-ketlikda oldingi elementning ustunligini ko'rsatuvchi fonetik jarayon bo'lib, u tilda ham yozuvda (grafik usulda), ham faqat talaffuzda (fonetik usulda) namoyon bo'lishi mumkin[2].

Bag'dod va Buvayda shevalarida ham progressive assimilatsiyani ko`rishimiz mumkin.

(pm>pp) *topmadik-tāppadik;boryapmiz-bāryappïz.*

Bizzi kutïp turilar, hämmämïz bïllalashïp bāryappïz.

(mb>mm) *qum bilan-qummïnan, akam bilan-äkämmïnan.*

Äkämmïnan gaplašïp kin hal qïlamïz bu išti.

(tn>tt)*ovqatni-ā:qattï*

Tez-tez qïmïrlap o:qattï quyin.

(nd>nn) *undan keyin -ïnnankin, o'n kundan keyin-on kunnan kin*

On kunnan kin ulïmdï toyï, kelurasïlar.

(zn>zz) *pulingizni-pulizzi, opangizni-äpäyzzi.*

Pulizzi behuda närsälärgä särflämäŋ yänä.

Assimilatsiyaning yuqoridagi [zn>zz, mn>mm] formalari shevada normal hol bo'lmay sporadik xarakterga ega. Chunki ko'pchilik hollarda affiksal tovush tushib qoladi. Masalan: xolamni > xolamdi > xolammi > xolami, opamni > opamdi > opammi > opami; bizni > bizdi > bizzi > bizmi, opangizni > opangizdi > opangizzi > opangizi.

Rezyume. Ushbu maqolada turkiy tillar, xususan, o'zbek tili fonetikasidagi asosiy hodisalardan biri — undoshlar assimilatsiyasi (tovushlarning o'zaro moslashishi) lisoniy va hududiy jihatdan tahlil qilingan. Mualliflar assimilatsiya jarayonining kelib chiqish omillari, uning nutq a'zolari tejamkorligi qonuniyatiga bog'liqligi hamda

[1] Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. Тошкент: Фан, 1980. – Б 55.

[2] Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi, Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashri, 2013. – B 139.

adabiy tildagi uslubiy variantlar shakllanishidagi o‘rnini yoritib berganlar. Maqolada o‘zbek adabiy tili hamda Qo‘qon, Toshkent, Namangan, Bag‘dod va Buvayda shevalari materiallari asosida progressiv, regressiv, to‘liq va qisman assimilatsiya turlarining o‘ziga xos namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy o‘rganilgan va jonli nutqdagi sporadik holatlar tizimlashtirilgan.

Резюме. В данной статье с лингвистической и диалектологической точек зрения анализируется одно из ключевых явлений фонетики тюркских языков, в частности узбекского языка, — ассимиляция согласных. Авторы рассматривают факторы возникновения ассимиляции, её связь с законом экономии речевых усилий, а также её роль в формировании стилистических вариантов в литературном языке. В статье на основе материалов узбекского литературного языка, а также кокандского, ташкентского, наманганского, багдадского и бувайдинского диалектов сравнительно изучены особенности проявления прогрессивной, регрессивной, полной и частичной ассимиляции, а также систематизированы спорадические явления в живой речи.

Resume. This article provides a linguistic and dialectological analysis of consonant assimilation, one of the key phonetic phenomena in Turkic languages, particularly in the Uzbek language. The authors examine the driving factors of assimilation, its connection to the principle of speech economy, and its role in the formation of stylistic variations within the literary language. Based on materials from the Uzbek literary language as well as the Kokand, Tashkent, Namangan, Bagdad, and Buvaida dialects, the article comparatively studies the specific manifestations of progressive, regressive, complete, and partial assimilation, while also systematizing sporadic variations in live speech.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНИМАЛИСТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Жасур Хурсандов
магистрант, *Термезский государственный педагогический институт и Елабужский институт Казанского федерального университета в рамках совместной образовательной программы «1+1» в 2025–2026 учебном году осуществляют подготовку магистрантов 2 курса направления "Родной язык и литература (русский язык)"*

Фразеология является одним из наиболее значимых разделов современного языкознания, поскольку именно во фразеологических единицах наиболее ярко отражаются особенности национального мировосприятия, культурные ценности народа, его исторический опыт, традиции, быт и образ мышления. Особое место в системе фразеологии занимают анималистические фразеологизмы, то есть устойчивые выражения, включающие в свой состав названия животных. Данная группа фразеологических единиц отличается высокой образностью, эмоциональностью и экспрессивностью. [1]Через образы животных человек на протяжении веков передавал свое отношение к окружающему миру, оценивал поступки и качества людей, формировал нравственные нормы и культурные ориентиры. [2]В современном языкознании анималистические фразеологизмы рассматриваются не только как языковые единицы, но и как важнейшие элементы национальной картины мира. Они отражают особенности этнического сознания, специфику культурных традиций и систему ценностей народа. Именно поэтому изучение анималистической фразеологии в сопоставительном аспекте представляет особый научный интерес.

Сопоставительное исследование анималистических фразеологизмов русского и узбекского языков позволяет выявить общие и специфические черты в восприятии животного мира представителями разных культур.[3]

Русский и узбекский языки принадлежат к различным языковым семьям и различным типологическим системам, однако в обоих языках фразеологизмы с компонентами-зоонимами занимают важное место в речевой практике. Несмотря на различия в структуре языков, многие анималистические образы совпадают, что связано с универсальностью человеческого мышления и общими наблюдениями за животными. В то же время существуют значительные различия, обусловленные национально-культурными особенностями, образом жизни, хозяйственной деятельностью, религиозными представлениями и историческим развитием народов.

Актуальность исследования определяется возрастающим интересом современной лингвистики к проблемам лингвокультурологии, когнитивной семантики и межкультурной коммуникации. В последние десятилетия фразеологические единицы рассматриваются не только как средства языка, но и как важные элементы культуры. Анималистические фразеологизмы представляют собой своеобразный культурный код, посредством которого передаются знания о мире, моральные установки и социальные нормы. Изучение таких единиц способствует более глубокому пониманию национальной специфики русского и узбекского языков, а также позволяет выявить особенности языкового сознания их носителей.[4]

[1] Арсентьева Е. Ф. Сопоставительный анализ фразеологических единиц русского и узбекского языков. — Казань: Изд-во Казанского университета, 1989.

[2] Байрамова Л. К. Фразеология и национальная кул ьтура. — Казань: Магариф, 1997.

[3] Berdieva Shakhnoza. "Linguocultural Features of Phraseological Units in Russian and Uzbek Languages." Journal of Modern Philology. 2023. Vol. 4. №2. P. 55–61.

[4] Байрамова Л. К. Фразеология и национальная культура. — Казань: Магариф, 1997.

В русском языке анималистические фразеологизмы широко представлены образами волка, медведя, лисы, зайца, собаки, кошки, козла, осла, вороны, петуха и других животных. Эти образы формировались под влиянием природных условий, сельского образа жизни и многовековых наблюдений русского народа за поведением животных. Например, образ волка традиционно ассоциируется с опасностью, жестокостью и одиночеством. Фразеологизмы «волчий аппетит», «смотреть волком», «волк в овечьей шкуре» отражают негативные характеристики человека. Медведь в русской культуре символизирует силу, неуклюжесть и грубость. Выражения «медвежья услуга», «медвежий угол», «медведь на ухо наступил» являются яркими примерами переносного употребления образа животного для характеристики человека и жизненных ситуаций.

В узбекском языке особое место занимают фразеологизмы с компонентами «эшак» (осёл), «туя» (верблюд), «ит» (собака), «қўй» (овца), «тулки» (лиса), «бургут» (орёл), «қарға» (ворона) и другие. Эти образы тесно связаны с кочевым и сельскохозяйственным образом жизни узбекского народа. Верблюд в узбекской культуре символизирует терпение, выносливость и силу. Осёл ассоциируется с упрямством и тяжелым трудом. Лиса традиционно символизирует хитрость и изворотливость. Орёл выступает символом силы, мужества и свободы. Таким образом, каждый зооним несет в себе определённую культурную информацию и формирует устойчивые ассоциации у носителей языка[1].

Лингвокультурологический аспект анималистических фразеологизмов заключается в том, что данные единицы отражают особенности национального мировоззрения. Через образы животных народ выражает свое отношение к различным человеческим качествам. Так, в русском языке фразеологизм «трусливый как заяц» характеризует человека как очень боязливого. Аналогичное значение имеет узбекское выражение «қуёндек қўрқоқ»[2]. Совпадение данных образов объясняется универсальностью человеческих наблюдений за поведением зайца, который воспринимается как пугливое животное. Подобные совпадения встречаются достаточно часто. Например, образ лисы в обоих языках связан с хитростью: «хитрый как лиса» — «тулкидек айёр». Образ осла ассоциируется с упрямством: «упрямый как осёл» — «эшакдек қайсар».

Однако наряду с общими чертами существуют и существенные различия. В русском языке медведь является одним из центральных национальных символов. Он олицетворяет силу, грубость и простодушие. В узбекской фразеологии данный образ менее распространён. Напротив, в узбекском языке значительную роль играет образ верблюда, который практически отсутствует в русской фразеологии. Это связано с природно-географическими условиями и хозяйственным укладом народов. Для узбекской культуры верблюд был важным средством передвижения и символом терпения, поэтому он стал значимым элементом языковой картины мира.

Семантические особенности анималистических фразеологизмов проявляются в их способности передавать сложные эмоционально-оценочные значения. Большинство таких единиц имеют ярко выраженную экспрессивную окраску. Они используются для характеристики внешности человека, его поведения, умственных способностей, моральных качеств и социального статуса. Например, фразеологизм «собаку съел» обозначает опытного человека, хорошо знающего своё дело. Выражение «белая ворона» характеризует человека, резко отличающегося от окружающих. Узбекское выражение «қўйдек ювош» обозначает кроткого и спокойного человека, а «бургутдек қарамоқ» характеризует зоркого и внимательного человека.[3]

Большинство анималистических фразеологизмов имеют метафорическую природу. В основе их значения лежит перенос признаков животного на человека. Такой перенос осуществляется на основе ассоциативного мышления. Например, физическая сила быка переносится на человека в выражении «здоров как бык». Хитрость лисы становится основой характеристики умного и изворотливого человека. Подобные метафоры фор-

[1] Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — Москва: Языки русской культуры, 1996.

[2] Каримова Г. Лингвокультурологические особенности фразеологических единиц русского и узбекского языков. // Вестник Ташкентского государственного университета. 2022. №3. С. 67–73.

[3] Каримова Г. Лингвокультурологические особенности фразеологических единиц русского и узбекского языков. // Вестник Ташкентского государственного университета. 2022. №3. С. 67–73.

мировались на протяжении длительного времени и закрепились в языковом сознании народа.[1]

Важной особенностью анималистических фразеологизмов является их антропоцентризм. Несмотря на наличие названий животных, данные единицы практически всегда используются для характеристики человека. Животное выступает своеобразным символом определённого качества. При этом одни и те же животные в разных культурах могут иметь различные символические значения. Например, собака в русской культуре часто ассоциируется с преданностью и тяжёлым трудом: «собачья верность», «работать как собака». В узбекской культуре образ собаки нередко имеет отрицательную оценку и используется для выражения презрения.

Структурный анализ анималистических фразеологизмов показывает, что в русском и узбекском языках существуют как сходства, так и различия в грамматическом оформлении данных единиц. В русском языке широко распространены субстантивные, адъективные, глагольные и наречные фразеологизмы. Например, «белая ворона» относится к субстантивным единицам, «хитрый как лиса» — к адъективным, «считать ворон» — к глагольным, «как кошка с собакой» — к наречным. В узбекском языке также встречаются различные структурные типы, однако особенности агглютинативного строя языка определяют специфические способы связи компонентов.[2]

Для узбекских фразеологизмов характерно использование аффиксов сравнения «-дек», «каби». Например, «тулкидек айёр», «қуёндек қўрқоқ», «бургутдек кўз». Глагол в узбекском языке, как правило, располагается в конце конструкции, что отражает особенности синтаксической системы языка. В русском языке порядок слов более свободен, а связь компонентов осуществляется посредством согласования, управления и примыкания.

Особую группу составляют фразеологизмы со структурой предложения. Они представляют собой законченные высказывания, часто имеющие форму пословиц и поговорок. В русском языке к таким единицам относятся выражения «волков бояться — в лес не ходить», «рыба гниёт с головы», «коней на переправе не меняют». В узбекском языке аналогичную функцию выполняют выражения «Ит ҳурар, карвон ўтар» и «Балиқ бошдан сасийди». Подобные единицы обладают высокой степенью устойчивости и широко используются в разговорной речи.

Анималистические фразеологизмы выполняют важную экспрессивно-оценочную функцию. Они позволяют ярко и эмоционально охарактеризовать человека или ситуацию. Благодаря своей образности такие выражения делают речь более выразительной и эмоционально насыщенной. Например, выражение «делать из мухи слона» используется для обозначения преувеличения незначительной проблемы. Узбекское выражение «қўйни бўрига топширмоқ» означает доверить дело ненадёжному человеку.

Важную роль анималистические фразеологизмы играют в формировании национальной картины мира. Через данные единицы отражаются особенности восприятия окружающей действительности. Русская фразеология чаще опирается на образы лесных животных, что связано с природными условиями России. Узбекская фразеология в большей степени отражает мир степных и домашних животных, характерных для Средней Азии. Это свидетельствует о тесной связи языка с образом жизни народа.[3]

Следует отметить, что многие анималистические фразеологизмы имеют древнее происхождение. Они формировались под влиянием народного фольклора, мифологии, религиозных представлений и бытового опыта. Некоторые выражения восходят к библейским текстам и древним легендам. Например, фразеологизм «козёл отпущения» имеет библейское происхождение. В узбекской культуре значительное влияние на формирование фразеологии оказали восточная литература, исламская традиция и народный эпос.

В современной лингвистике анималистические фразеологизмы рассматриваются как важный объект межкультурных исследований. Их изучение способствует развитию переводоведения, лингвокультурологии и теории межкультурной коммуникации. При переводе фразеологизмов

[1] Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — Москва: Языки русской культуры, 1996.

[2] Каримова Г. Лингвокультурологические особенности фразеологических единиц русского и узбекского языков. // Вестник Ташкентского государственного университета. 2022. №3. С. 67–73.

[3] Кунин А. В. Курс фразеологии современного русского языка. — Москва: Высшая школа, 1996.

возникают определённые трудности, поскольку не всегда возможно подобрать полный эквивалент в другом языке. В некоторых случаях используются аналогичные образы, а иногда требуется описательный перевод. Например, русскому выражению «белая ворона» в узбекском языке может соответствовать выражение, описывающее человека, отличающегося от окружающих.

Сопоставительный анализ показывает, что в русском и узбекском языках существует большое количество эквивалентных и аналогичных фразеологизмов. Это свидетельствует о наличии общечеловеческих представлений о животных и их символических качествах. Вместе с тем каждая культура формирует собственную систему образов и ассоциаций, отражающих её национальную специфику.[1]

Таким образом, анималистические фразеологизмы представляют собой важнейший пласт фразеологического фонда русского и узбекского языков. Они обладают высокой образностью, эмоциональностью и культурной значимостью. Через данные единицы раскрываются особенности национального мировоззрения, исторического опыта и культурных традиций народа. Сопоставительное изучение анималистической фразеологии позволяет выявить как универсальные закономерности человеческого мышления, так и специфические черты национальной языковой картины мира.[2] Исследование подобных единиц имеет большое значение для развития современной лингвистики, межкультурной коммуникации и переводоведения.

"Vomiq va Azro" dostonining o'zbek adabiyotidagi o'rni va mazmuni, uning tasavvufiy, axloqiy va insoniy g'oyalarini tahlil qilish holati bilan biz bu maqolada shoir Ahmad Tabibiy (1869–1911) ijodini XVIII–XIX asrlar adabiy an'analariga bog'lab o'rganamiz. Doston Sharq adabiyotidagi shu mavzu evolyutsiyasini davom ettirgan yirik she'riy asar bo'lib, u ilm-ma'rifat, sevgi, komillik kabi masalalarni ochib beradi va xalqni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Tabibiy "Vomiq va Azro"ni 1910–1911-yillarda yaratgan deb qabul qilinadi. Doston 81 bob, 8100 bayt va 16200 misradan iborat bo'lib, u sharq an'anaviy hikoya tariqasida yozma adabiyot shakliga o'tkazilgan. Asar syujeti qadimgi xalq afsonalaridan – sevgi va sinov, adolat va vatanparvarlik g'oyalaridan iborat bo'lib, u "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Yusuf va Zulayxo" singari dostonlarning ideallari bilan uzviy bog'liqdir.

Shuningdek, manbalarga ko'ra, Tabibiy doston muqaddimasida o'nlab avvalgi versiyalar – fors tilidagi "Vomiq va Azro" va uning tarjimalari mavjudligini eslatadi.

Doston markazida ikki qahramon – Vomiq va Azro sevgi va sadoqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Vomiq Podshoh Nosir farzandi sifatida tug'ilib, ta'lim oladi va yuksak axloqiy fazilatlarni egallaydi. Azroning surati yoki tashrifi Vomiq qalbini silkita boshlaydi va uni o'z yo'liga yetaklaydi[4].

[1] Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 185.
[2] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2005. – B. 78.
[3] Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B. 50.
[4] Rahmonova Sh. Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi: Filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2023. – B. 57.

Quyidagi iqtiboslardan ko‘rinib turibdiki, asarda ishq va sevgi – nafaqat hissiy holat, balki insonning ruhiy poklanishi va ma’naviy kamolotga erishish vositasi sifatida tasvirlangan:

Shoh Vomiq bir kecha Azroni tushida ko‘rib
Tozadin oshiftalig‘da yagona bo‘lg‘oni…

Bu satrda uyqudagi tasavvur orqali ilohiy ishqni anglashga bo‘lgan intilish seziladi.

Doston asosan insonning ruhiy iztiroblari, sabrlilik, oshiqlik sayohati, hajr va visol g‘oyalari atrofida qurilgan. Xususan, ishqning inson qalbini poklab, uni Haq yo‘liga yetaklash fikri ko‘p qavatli tasavvufiy ma’noga ega. Bu jihatlar Tabibiyning dostonida juda muhimdir: sevgi faqat dunyoviy emas, balki umumiy ma’naviyatga yo‘naltirilgan idealga erishish yo‘lidagi vosita ekanligi ko‘rsatadi[1].

Doston she’riy uslubda yozilgan bo‘lib, unda baytlar tuzilishi, obrazlarning falsafiy-psixologik tahlili va ritmik qurilishi e’tiborga sazovor. Tabibiy o‘z uslubida Navoiy va boshqa klassik dostonchilik an’analarini davom ettiradi, biroq she’riy tilda yangicha obraz va ritmlarni yaratadi.

Masalan, Vomiq hissiyotlari quyidagicha ifodalanadi:

Bo‘yicha ishqi jahongir,
Erur Azro ayoqi uzra zanjir…[2]

Bu misrada ishqning zaruriy sabr, tanazzul va ichki kurash bilan bog‘liqligi tasvirlangan.

“Vomiq va Azro” faqat ishq mavzusiga bag‘ishlangan asar emas, balki jamiyat hayotiga oid masalalarni ham o‘zaro bog‘lab beradi. Unda sadoqat, vatanparvarlik, axloq-odob, halollik, adolatli hukmronlik kabi fazilatlar yuqori qadrlangan. Bu jihat Tabibiyning ma’rifatparvar qarashlaridan kelib chiqadi.

Tabibiyning “Vomiq va Azro” dostoni o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan noyob she’riy asarlardan biridir. U nafaqat insoniy sevgi va sadoqatni, balki yuqori axloqiy qadriyatlarni ham tasvirlab beradi. Syujetning murakkabligi, tasavvufiy motivlar, badiiy-poetik uslub va axloqiy g‘oyalar dostonni klassik adabiyotlar qatoriga qo‘yadi. Bu doston orqali Tabibiy o‘z zamonasining ma’naviy-madaniy muhitini aks ettirib, har bir o‘quvchini o‘z qalbi va ruhiyatiga murojaat qilishga chorlaydi[3].

XVIII–XIX asrlar o‘zbek mumtoz adabiyoti tasavvufiy-estetik tafakkurning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu davrda ijod qilgan Huvaydo o‘zining “Rohati dil” dostoni bilan nafaqat an’anaviy irfoniy g‘oyalarni davom ettirdi, balki ularni individual ruhiy tajriba asosida qayta talqin qildi.

Mumtoz adabiyot tarixida tasavvufiy dostonlar ko‘p uchraydi, xususan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari axloqiy-irfoniy yo‘nalishda yetuk namunadir. Biroq “Rohati dil”ning o‘ziga xosligi shundaki, unda ichki psixologik dinamika va qalb dramatizmi kuchliroq seziladi.

Tasavvufda ishq ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Bu masala Sharq falsafasida, xususan, Ibn Arab ta’limotida keng yoritilgan. Unga ko‘ra, ishq – mavjudlikning ontologik asosi hisoblanadi.

Huvaydo dostonda ishqni ikki darajada ko‘rsatadi:

1. Majoziy ishq – ruhiy kamolotning boshlang‘ich bosqichi;

2. Haqiqiy ishq – Haqqa yetishish va “fano” maqomiga erishish jarayoni.

Dostonda yor obrazi ko‘p qatlamli ramz bo‘lib, zohiran ma’shuqa, botinan esa ilohiy jamol timsolidir. Bu an’ana Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham kuzatiladi.

Ishq jarayoni doston syujetida bosqichma-bosqich ochiladi: talab → iztirob → sabr → visol. Bu strukturaviy tizim tasavvufdagi suluk bosqichlariga mos keladi.

“Rohati dil”da asosiy dramatik kuch qalb va nafs o‘rtasidagi kurashda mujassam. Nafs dunyoviy mayl va kibrni ifodalaydi, qalb esa ilohiy nur maskani sifatida talqin etiladi.

Tasavvufiy manbalarda nafsni poklash (“tazkiyat un-nafs”) asosiy shart sifatida ko‘rsatiladi. Huvaydo bu nazariyani badiiy timsollar orqali jonlantiradi:

a) zulmat – nafs timsoli;
b) nur – ma’rifat va qalb pokligi;
d) zanjir – shahvat va g‘aflat;
e) safar – ruhiy kamolot yo‘li[4].

Shoir qalb rohati nafsni jilovlash orqali yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Bu jarayon psixologik jihatdan ichki monologlar orqali beriladi. Lirik “men”ning iztiroblari asarga dramatik ohang bag‘ishlaydi.

Tasavvuf falsafasida komil inson tushunchasi markaziy o‘rinda turadi. Bu ta’limot nazariy jihatdan Ibn Arab tomonidan asoslangan bo‘lsa-da, badiiy talqinini mumtoz adabiyot namoyandalari rivojlantirgan[5].

Huvaydo talqinida komillik quyidagi fazilatlar bilan belgilanadi:

a) sabr va shukr;
b) tavakkul;
d) ishqda sobitlik;
e) kamtarlik va rizo.

[1] Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 246.
[2] Табибий. Вомиқ ва Азро. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 193.
[3] Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B. 264.
[4] Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B. 139.
[5] Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent, 2005.

Komil inson obrazi abstrakt emas, balki ruhiy tajriba mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat bilan “Rohati dil” axloqiy-didaktik emas, balki irfoniy-psixologik doston sifatida ajralib turadi.

Doston aruz vaznida yozilgan bo‘lib, mumtoz epik kompozitsiya tamoyillariga amal qilingan. Unda quyidagi san’atlar faol qo‘llangan:

a) tazod (nur–zulmat, ishq–nafs);

b) talmeh (Qur’on va hadis rivoyatlariga ishoralar);

d) isti’ora va tashbeh;

e) ramziy obrazlar tizimi[1].

Huvaydo tasvirida “may” – ilohiy ishq mastligi, “yor” – Haq jamoli, “sahro” – ruhiy izlanish makoni sifatida keladi. Bu obrazlar mumtoz poetik an’ana bilan uzviy bog‘liq.

“Rohati dil” o‘zbek tasavvuf adabiyotining an’anaviy yo‘nalishiga mansub bo‘lsa-da, unda individual ruhiy introspektsiya kuchli. Bu jihat uni didaktik hikmatlardan farqlaydi.

Agar Alisher Navoiy dostonlarida ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish ustun bo‘lsa, Huvaydoda individual ruhiy tajriba markazga chiqadi. Shu sababli asar XVIII–XIX asrlar tasavvufiy tafakkurining psixologik bosqichini ifodalaydi.

Huvaydoning “Rohati dil” dostoni qo‘lyozma nusxalari orqali bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ayrim manbalarda uning turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan variantlari qayd etiladi. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi ko‘plab tasavvufiy asarlar singari, mazkur doston ham og‘zaki va yozma an’ananing o‘zaro ta’siri ostida shakllangan[2].

Qo‘lyozmalarda uchraydigan asosiy farqlar quyidagilardan iborat:

a) baytlar tartibidagi siljishlar;

b) ayrim tasavvufiy istilohlarning sinonimik almashinuvi;

d) Qur’oni karim oyatlariga ishoralarda qisqartirishlar.

Matnshunoslik nuqtai nazaridan bu farqlar asarning mazmuniy yadrosiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi, biroq poetik ohang va ritmik tuzilishga ma’lum darajada ta’sir etadi. Shu bois tanqidiy matn tuzishda variantlarni qiyosiy o‘rganish muhimdir.

“Rohati dil”ning g‘oyaviy ildizlari tasavvufning klassik manbalariga borib taqaladi. Xususan, undagi “nafsni poklash”, “fano” va “baqo” maqomlari haqidagi qarashlar Al-Hazalining axloqiy-falsafiy konsepsiyalari bilan mushtaraklik kasb etadi[3].

Shuningdek, komil inson haqidagi qarashlar Ibn Arab ta’limotiga hamohangdir. Biroq Huvaydo nazariy g‘oyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri takrorlamaydi, balki ularni poetik obrazlar tizimiga singdiradi.

Manbaviy qatlamni quyidagi darajalarga ajratish mumkin:

1. Qur’oniy ishoralar (talmeh san’ati orqali);
2. Hadis va rivoyatlar;
3. Tasavvufiy risolalar;
4. Turk mumtoz she’riyati an’analari[4].

XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlari tasavvufiy tafakkur bilan sug‘orilgan holda shakllandi. Ular xalq ongida ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash, komil inson idealini targ‘ib etish, ilohiy ishq g‘oyasini yoyishda muhim o‘rin tutdi. Tasavvufiy talqinlar dostonlarning mazmunini chuqurlashtirib, ularni oddiy epik voqeabandlikdan ma’rifiy-badiiy maktab darajasiga ko‘tardi.

Shunday qilib, mazkur davr dostonchiligini tasavvufiy qarashlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular o‘zbek mumtoz adabiy tafakkurining ajralmas qismi sifatida milliy ma’naviyat tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Resume. This article is devoted to the study of mystical interpretations in Uzbek epics of the 18th–19th centuries. The research analyzes how the epics express mystical ideas through their plot, characters, symbols and imagery, the spiritual content of the concepts of love and perfection, as well as the relationship between the pir and the murshid and the elements leading to the ideal of the “perfect person”. The article highlights the promotion of the idea of spiritual purification, patience, overcoming the ego and divine love in the minds of the people through epics.

Резюме. Данная статья посвящена изучению мистических интерпретаций в узбекских эпосах XVIII–XIX веков. В исследовании анализируется, как эпосы выражают мистические идеи через сюжет, персонажей, символы и образы, духовное содержание понятий любви и совершенства, а также взаимоотношения между пиром и муршидом и элементы, ведущие к идеалу «совершенного человека». В статье подчеркивается продвижение в сознании людей через эпосы идей духовного очищения, терпения, преодоления эго и божественной любви.

[1] Шомуҳамедов Р. Мумтоз поетика масалалари. – Тошкент, 1985. – Б. 87.
[2] Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 220.
[3] Haqqulov I. Tasavvuf va o‘zbek mumtoz adabiyoti // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2005. №3. – B. 15–22.
[4] Шомуҳамедов Р. Мумтоз поетика масалалари. – Тошкент, 1985. – Б. 80.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ANALITIK FOLKLORIZMLARNING POETIK XUSUSIYATLARI

Payg'amova Shirin Jakbarali qizi,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Xalq og'zaki ijodi har bir millatning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan birlamchi manba hisoblanadi. Adabiyot esa shu madaniy boylikning badiiy talqini sifatida shakllanadi. Shu bois folklor va yozma adabiyot munosabati masalasi adabiyotshunoslikda doimo dolzarb bo'lib kelgan. Mazkur jarayonning amaliy ko'rinishi sifatida folklorizm tushunchasi shakllangan bo'lib, u folklor terminidan farqlanadi va yozma adabiyotda xalq og'zaki ijodi unsurlarining badiiy talqinini anglatadi.

B. Sarimsoqov mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim, chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo'ladi"[1]. Boshqacha aytganda, folklorizm xalqona obrazlar, timsollar, janrlar, nutq vositalari, marosim va urf-odatlar, mifologik tasavvurlar hamda tarixiy xotiraning yozma adabiyotda qayta badiiy talqin qilinishi jarayonidir.

B. Sarimsoqov folklorizmlarni struktura va badiiy asar to'qimasida bajargan vazifasiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni oddiy va murakkab folklorizmlarga ajratadi. Murakkab folklorizmlar esa o'z navbatida analitik, sintezlashgan va stilizatsion folklorizmlarga bo'linadi. Ushbu maqolaning maqsadi badiiy adabiyotda analitik folklorizmlarning mohiyati, turlari va badiiy vazifasini aniqlashdan iborat. "Analitik folklorizmlar asarning badiiy to'qimasi va yetakchi g'oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatdan farqlanadi"[2].

Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy manbalar asosida analitik folklorizm haqidagi qarashlar tizimlashtirildi, badiiy matnlardagi folklor unsurlarining shakl va mazmun jihatdan o'zgarishi aniqlanib, ularning g'oyaviy va poetik vazifasi izohlandi. Analitik folklorizmlar nazariy jihatdan B. Sarimsoqov, I. Yormatov va L. Sharipova qarashlari asosida baholandi, amaliy jihatdan esa zamonaviy va klassik adabiyot namunalarida kuzatilgan misollar orqali yoritildi.

B. Sarimsoqov analitik folklorizmning vazifasi haqida so'z yuritar ekan, "Analitik folklorizmning asosiy vazifasi asar bosh g'oyasini qabartirib ifodalash, unga ramziy, falsafiy ruh bag'ishlashdan iborat"ligini qayd etadi[3]. Olimning ta'kidlashicha, analitik folklorizm adabiy asarlarda asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: birinchisida folklor unsurlari o'zining dastlabki, ya'ni folklordagi to'liq shaklida qo'llanadi, ikkinchisida esa mazmun saqlangan holda shakl jihatidan o'zgartiriladi va ko'pincha badiiy ishlov berilgan tarzda keltiriladi. B. Sarimsoqov tasnifini I. Yormatov davom ettirib, analitik folklorizmni vazifasiga ko'ra to'rt guruhga ajratadi.

1. "Analitik folklorizm asarning bosh g'oyasi yoki mavzusiga ramziy aloqador bo'lgan voqea-hodisalarni mujassamlashtiruvchi epizod, badiiy to'qima bo'lagi sifatida qo'llanadi.

2. Analitik folklorizm asarning badiiy to'qimasida to'liq ishtirok etsa-da, u bilan organik birika olmaydi.

3. Analitik folklorizm qahramon ruhidagi ichki dramatik kolliziyalarni ochib berish uchun muayyan epizodda adabiy omil sifatida qo'llanib keladi.

4. Analitik folklorizm vaziyat talabiga ko'ra ma'lum bir epizoddagina qo'llanilib, qahramon hayotida sodir bo'layotgan voqealarning reallashuviga yordam beradi"[4].

L. Sharipova I.Yormatovning mazkur tasnifida analitik folklorizmlarning o'rni va vazifasi qorishtirib yuborilganini, ayrim chalkashliklar mavjudligini ko'rsatib, unga o'zgartirish kiritishga harakat qiladi[5]. Olimaning tasnifiga ko'ra, analitik folklorizm asardagi ishtirokiga qarab ikki ko'rinishda bo'ladi. Birinchi-

[1] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 351.

[2] Shu manba – B.354.

[3] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 354.

[4] Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // ЎТА, 1982, -сон, 57-58-бетлар.

[5] Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол.фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 44.

si syujetning boshidan oxirigacha ishtirok etadigan folklorizm bo‘lib, syujet davomida eslatib turiladigan afsona yoki rivoyatga tayanadi. Ikkinchisi epizodik folklorizm bo‘lib, syujetning muayyan joyida ma’lum vazifa bajarishiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

1. Asarning bosh g‘oyasi yoki mavzusiga ramziy aloqador epizodik folklorizm.

2. Qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib beruvchi epizodik folklorizm.

3. Qahramon hayotida sodir bo‘layotgan voqealarni aniqlashtirishga xizmat qiluvchi epizodik folklorizm.

Mazkur yondashuv folklorizm hodisasini badiiy kompozitsiya va syujet tizimi bilan bog‘lab tahlil qilish imkonini kengaytiradi hamda analitik folklorizmning ilmiy talqinini aniqroq va izchilroq shaklga keltiradi.

B. Sarimsoqov analitik folklorizmlarning o‘rni va ahamiyati klassik adabiyotda ham yorqin aks etishini ta’kidlab, Alisher Navoiy asarlarida, jumladan, Hayrat ul-abror va Mahbub ul-qulubda keltirilgan kichik hikoyatlar muayyan masalaning mohiyatini yorqin va ta’sirchan ifodalash uchun xizmat qilishini qayd etadi[1].

Umuman olganda, analitik folklorizmlar asar g‘oyaviy-badiiy tizimi bilan to‘liq uyg‘unlashmasa-da, muallif tomonidan maqsadli kiritilgan folklor motivi yoki syujet orqali matnga qo‘shimcha falsafiy-didaktik mazmun berish, tasvirning emotsional kuchini oshirish va badiiy ifodani boyitish vazifasini bajaradi. Analitik folklorizmlar ijodkorning individual uslubi va badiiy mahoratiga bog‘liq holda turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, adabiyotimizning deyarli barcha taraqqiyot bosqichlarida uchrab keladi.

Xalq og‘zaki ijodi barcha asarlarining ilhom manbai bo‘lgan yozuvchi Isajon Sulton ijodida analitik folklorizmlarning yorqin namunalarini ko‘rish mumkin. Ijodkorni qadimiy asotirlar, afsona va rivoyatlarga yetaklaydigan omil uning boy ijodiy tasavvuri va badiiy tafakkuridir. Yozuvchining “Qo‘riqchi” hikoyasi bir qarashda sodda voqelik, ya’ni bir bek yigit va oy qizning sevishib, oila qurishi va turmushning mashaqqatlarini boshidan kechirishini tasvirlaydi. Ammo yozuvchi bu jarayonni qo‘riqchi, ilon, qush, karvon, daryo kabi poetik obrazlar tilidan hikoya qildiradi. Ana shu usul hikoyaning badiiy qatlamida analitik folklorizmni yuzaga keltiradi.

Isajon Sulton hikoyalarini tadqiq qilgan F. Qurbonova ekinlar orasida qaqqayib turgan, ovozi faqat shabada va quyosh bo‘lgan paytda chiqadigan, hamma voqealarni kuzatuvchi obraz, ya’ni qo‘riqchi ijodkorning o‘zi ekanligini ta’kidlaydi[2]. Yozuvchi bu obrazni analitik talqinda, hozirgi zamon ijodkorining ruhiy holati bilan uyg‘unlashtiradi. Hikoyada daryo, baliq, oq ilon, yo‘lchivin kabi obrazlar ham mavjud bo‘lib, ular mos ravishda hayot yo‘li, iztirob, aql, mazmunsiz umr kabi ramziy ma’nolarni aks ettiradi.

Hikoyadagi qadim e’tiqodlar bilan bog‘liq, ezgulik ramzi bo‘lgan oq ilon haqidagi hikoya “Men oq ilon, oppoq ilon edim, oydinda yotar edim” degan satrlar bilan boshlanadi. Matndagi oq ilon obrazi uyg‘otuvchi assotsiatsiya qadim e’tiqod va ishonchlar asosida paydo bo‘lgan. Xalq oq ilonni aziz sanab, uni e’zozlash yaxshilikka, aksincha munosabat yomonlikka olib keladi, deb ishonadi. Odamlarning oq ilon ezgulik keltirsin degan niyatda un sepib, sut bilan siylashlari shundan. Asarda oq ilon bek yigitning qasamidan xavotirlanadi, oila qurishning mas’uliyatini eslatadi, inson taqdiridagi ko‘rinmas xavf haqida ogohlantiradi. Natijada oq ilon folklordagi ezgulik ramzi bilan bir qatorda aql timsoli sifatida ham talqin etiladi.

Mazkur hikoyada ayol va karvonboshi tilidan aytilgan bir necha qo‘shiqlar xalq qo‘shiqlari bo‘lishi bilan birga, ushbu qahramonlarning orzu-istaklari, armonlari va ruhiyatini siqayotgan dardlarini yuzaga chiqarish vazifasini bajaradi.

“Oh urarman, oh ursam, ohlarim tutsin seni,
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib, baliqlari yutsin seni”[3].

Ayol tilidan aytilgan bu qo‘shiqda so‘zning magik qudrati yuzaga chiqadi. Orzulari sarobga aylangan ayol endi bu ko‘rguliklarning sababchisi bo‘lgan yigitni qarg‘aydi. Ana shu qarg‘ishlar ostida qahramon ruhidagi ziddiyatlar namoyon bo‘ladi. Olqishlar va qarg‘ishlar folklor janrlariga mansub bo‘lib, ulardan badiiy asarda foydalanish analitik folklorizmlarni hosil qiladi.

S. Mamayusupova Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o‘rganib, ularda analitik folklorizmlar ko‘plab uchrashini ta’kidlaydi. Xususan, “O‘zbek bobo” hikoyasida “Barakallo, Xudoyim quvvat bersin!”, “Yo, Xudo o‘zing qo‘lla”, “Qo‘li dard ko‘rmasin”, “Ha, barakallo, jiyan, yashanglar!”, “He, barakallo, polvon, bo‘shashmang”, “E, kam bo‘lmang, Abil aka, qo‘llaringiz dard ko‘rmasin, iloyim”, “He, bor bo‘linglar, ullarim”, “Omin, dasturxoning hamisha mana shunday ma’mur-u moyli bo‘lsin, kasb-koringga kushoyish bersin, risoladagiday bog‘bon bo‘psan – baraka top, Allohu akbar”, “Mening miyam chirisin”, “Omon bo‘lsinlar” kabi o‘nlab xalq olqishlari, qarg‘ishlari va

[1] **Саримсоқов Б.** Фольклоризмлар типологиясига доир // XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / тузувчилар: О. Тўлабоев ва бошқ. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017. – Б. 355.

[2] **Kurbanova F.** Isajon Sulton hikoyalarida folklorizm va mifopoetik talqin: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg‘ona, 2023.

[3] **Исажон Султон.** Қўриқчи.// Асарлар. Ҳикоялар. 1- жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Б. 212.

duo-fotihalari o‘rin olgan[1]. Shukur Xolmirzayev analitik folklorizmlardan qahramonlar xarakterini ochish, badiiy ta’sirchanlikni oshirish va milliy koloritni ifodalashda o‘rinli foydalangan.

Demak, bu turdagi folklorizmlar qahramonlarning ichki kechinmalarini, ya’ni mehr-muruvvat, iztirob va ziddiyatlarini ifodalashga xizmat qilgani uchun L. Sharipova tasnif etgan epizodik analitik folklorizmlarning ikkinchi turiga, ya’ni qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib beruvchi epizodik folklorizmlarga kiradi. Biroq mazkur guruh nomlanishida biroz xususiylik seziladi. Qarg‘ishlar qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlarni ifodalasa-da, olqishlarda bunday jihat to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Shu sababli olqishlar va duo-fotihalarni qarg‘ishlar bilan bir qatorda bir turkumdagi epizodik analitik folklorizm sifatida baholash uchun bu guruhni qahramon ichki kechinmalarini ochib beruvchi epizodik folklorizm deb atash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, analitik folklorizmlar asar g‘oyaviy-badiiy tizimi bilan to‘liq uyg‘unlashmagan bo‘lsa-da, muallif tomonidan ongli ravishda kiritilgan folklor motivi yoki syujet orqali matnga qo‘shimcha falsafiy-didaktik mazmun beradi, tasvirning emotsional kuchini oshiradi va badiiy ifodani boyitadi. Ular ijodkorning individual uslubi va badiiy mahoratiga bog‘liq holda turli shakllarda namoyon bo‘lib, adabiyot taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida uchraydi. Analitik folklorizmlar xalqona tafakkur bilan yozma adabiyot orasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib, badiiy matnning ramziy va ma’noviy qatlamlarini chuqurlashtiradi.

Rezume. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda analitik folklorizmlarning mohiyati, turlari va badiiy vazifalari tahlil qilinadi. Folklorizm tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, analitik folklorizm murakkab folklorizmning bir ko‘rinishi sifatida izohlanadi. Tadqiqotda B.Sarimsoqov, I.Yormatov va L.Sharipova tomonidan ilgari surilgan tasniflar qiyosiy tahlil qilinadi hamda analitik folklorizmlarning syujet va kompozitsiya tizimidagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, klassik va zamonaviy adabiyot namunalarida analitik folklorizmlarning badiiy ifodadagi roli ochib beriladi. Maqolada analitik folklorizmlar asar g‘oyasini ramziy va falsafiy jihatdan boyitishi, qahramon ruhiyati va voqealar tizimini ochib berishga xizmat qilishi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Resume. This article examines the essence, types, and artistic functions of analytical folklorisms in literary works. The theoretical foundations of the concept of folklorism are discussed, and analytical folklorism is interpreted as one of the forms of complex folklorism. The study provides a comparative analysis of the classifications proposed by B. Sarimsoqov, I. Yormatov, and L. Sharipova and determines the place of analytical folklorisms within the plot and compositional structure of literary texts. Furthermore, the role of analytical folklorisms in artistic expression is revealed through examples from classical and modern literature. The article demonstrates that analytical folklorisms contribute to the symbolic and philosophical enrichment of the work’s idea and serve to disclose the psychological state of characters and the system of events.

Резюме. В данной статье анализируются сущность, виды и художественные функции аналитических фольклоризмов в художественной литературе. Освещаются теоретические основы понятия фольклоризма, при этом аналитический фольклоризм рассматривается как одна из форм сложного фольклоризма. В исследовании проводится сопоставительный анализ классификаций, предложенных Б. Саримсоқов, И. Ёрматов и Л. Шарипова также определяется место аналитических фольклоризмов в системе сюжета и композиции произведения. Кроме того, раскрывается роль аналитических фольклоризмов в художественном выражении на материале классической и современной литературы. В статье научно обосновывается, что аналитические фольклоризмы способствуют символико-философскому углублению идеи произведения, раскрытию психологии персонажей и системы событий.

[1] **Mamayusupova S.** Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o‘rni : Filol. fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. – Jizzax, 2024.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USMON AZIM NASRIDA LIRIK OHANG

Javliyev Poyonbek Shavkat o'g'li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zbek adabiyotining so'ngi yillardagi taraqqiyot jarayonida nasr va she'riyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi alohida ilmiy e'tibor talab qiladigan muhim hodisalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonning dinamik rivojlanishi, badiiy shakl va mazmunning yangilanishi, yozuvchilarning estetik izlanishlari natijasida nasrda poyetik elementlarning kuchayishi sezilarli darajada ortdi. Bu holat o'zbek adabiyotida nasrning poyetiklashuvi, ya'ni nasr matnida she'riyatga xos tasviriy vositalar, lirik ohangdorlik, ramziy qatlamlar va musiqiylikning tobora ko'proq qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Mazkur jarayonning yorqin namunalarini Usmon Azim ijodida yaqqol ko'rish mumkin. Usmon Azim o'zbek she'riyatida o'z ovoziga ega bo'lgan ijodkor sifatida tanilgan bo'lsa-da, nasrda ham o'ziga xos badiiy-estetik tamoyillarni shakllantira oldi. Uning nasriy asarlari oddiy voqeani hikoya qilishdan iborat emas, balki poyetik tafakkurni nasrga singdirish orqali o'zbek nasrida yangi badiiy qiyofa yaratishga xizmat qiladi. Adibning nasrida voqealar tasviri ko'pincha she'riy ohangda beriladi, qahramonlarning ruhiy kechinmalari lirik monologlar orqali ifodalanadi, ramziy tasvirlar esa asarning mazmuniy qatlamini chuqurlashtiradi.

Adibning hikoyalarida oddiy voqealar poyetik tafakkur bilan uyg'unlashib, milliy ruh, insoniy iztirob va estetik tamoyillarni birlashtirgan holda yangi badiiy-estetik qiyofa yaratadi. Bu holat uning deyarli barcha asarlarida kuzatiladi. Nasrda poyetik elementlarning kuchayishi, ramziy qatlamlarning boyishi va lirik ohangdorlikning ustuvorligi Usmon Azim ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Maqolamizning obekti sifatida Usmon Azimning "G'oz" hikoyasini oladigan bo'lsak, hikoya "Alpomish dostoni ta'sirida yozilgan bo'lib, unda xabarchi g'oz Alpomish yotgan choxga yaralanib tushgani, uni Alpomish davolab qanotlarini tuzatgani va oyog'iga xat bog'lab, Boysunga yo'llagan g'ozni qutqargan kampirning g'ozni otolmay qolgan mergan o'g'lining taqdiri ne kechgani haqida bayon etadi" [1] Ushbu syujet xalq og'zaki ijodiga xos epik asosda qurilgan bo'lsa-da, unda lirik ohang va ramziy tasvirlar kuchli darajada seziladi.

G'ozga o'q tekkizolmagan Mergan birinchi marotaba o'qi xato ketganligi, nomdor mergan bo'la turib, birgina g'ozni otolmaganligi sababli xastalik to'shagiga mixlanadi. Ammo bu xastalik jismiy emas, balki ruhiy jarohatdir. Uning qalbini og'ritgan narsa – g'urur edi. Shu tarzda yozuvchi oddiy voqeani insoniy iztirob va ruhiy sinish darajasiga ko'taradi. Usmon Azim mana shu kichikkina syujetni kengaytirib, uni hikoyaga aylantiradi va unda g'ozni otolmagan o'g'il hamda g'ozni qutqargan ona timsoli yoritiladi.

Hikoyada g'ozni otolmagan o'g'il va onaning o'rtasidagi munosabatni ijodkor shunday ifodalaydiki, kitobxon bevosita onaning ahvoliga o'zi tushganday bo'ladi. Bu tasviriy mahorat Usmon Azim nasrni poyetik darajaga ko'tarish qobiliyatini ko'rsatadi. Hikoya voqealari orqali yozuvchi milliy qadriyatlar, ona mehrining ulug'vorligi, g'urur va oriyat kabi fazilatlarni badiiy-estetik tamoyillar darajasida talqin qiladi. Shu tariqa, "G'oz" hikoyasi nafaqat epik asosga ega bo'lgan xalqona rivoyatni qayta talqin etadi, balki nasr va she'riyat o'rtasidagi sintezning yorqin namunasi sifatida o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. G'oz hikoyasidan olingan quyidagi parcha orqali fikrimizni davom ettirsak, ushbu parchada g'ozni uchirib yuborgan onasining bu ishini ko'rgan mergan onam meni o'limimni xohladi, deb onasiga hasrat qiladi, "Mergan shunday deb onasiga bo'zladi, bechora enasining jigar-bag'rini tuzladi. Kampir yig'lab ichkari kirib, tashqari chiqyapti, bolasining boshida o'rgilyapti, dili vayron, taqdirning nogahon zulmidan hayron, o'g'liga, balki o'ziga madad berib so'zlayapti: –Bolam! Jonim bolam! Men ham xudoning bir kuygan bandasiman. Olloh ko'nglimga soldi... U g'ozsiz ko'p yomon bo'lardi, Boysun - Qo'ng'irot tamom bo'lardi, Alpomish chohda qolardi. Barchinni Ultontoz olardi... Bir yurt yo'q bo'lardi, jon bolam! Ammo sensiz menga bu dunyo qorong'u! Ollohdan bir umringni so'rab olmasam, enang bo'lib nima qildim, – deb yig'layapti"[2]. Bu parcha hikoyaning eng lirik nuqtalaridan biri bo'lib, unda epik voqea to'xtab, ona va farzand o'rtasidagi ruhiy iztirob, ichki monolog va murojaat lirizmga aylanadi. Matnda, avvalo, ohang yig'i va murojaat

[1] Azim U. G'oz: hikoya. Sharq yulduzi. – 1991. – № 8.
[2] Fozilova M. Usmon Azim ijodida "Alpomish" dostoni motivlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2015. – № 6.

shaklida qurilgan bo‘lib, Kampirning “Bolam! Jonim bolam!” deya takroriy murojaati xalq qo‘shiqlaridagi nola ohangini eslatadi. Bu takroriylik matnga musiqiy ritm beradi va ona mehrining cheksizligini ta’kidlaydi. Ikkinchi jihat – lirik kontrast. Ona bir tomondan yurt taqdirini eslatadi: “U g‘ozsiz ko‘p yomon bo‘lardi, Boysun-Qo‘ng‘irot tamom bo‘lardi, Alpomish chohda qolardi…” Bu umumiy epik vazifa. Ijodkor Kampirni darhol o‘z shaxsiy iztirobiga qaytaradi: “Ammo sensiz menga bu dunyo qorong‘u!” Shu tarzda matnda yurt va ona qalbi o‘rtasidagi qarama-qarshilik lirizmni kuchaytiradi. Uchinchi jihat – ramziy qatlam. Ona o‘zini “xudoning kuygan bandasiman” deb ataydi. Bu tasviriy ifoda uning iztirobini ramziy darajaga ko‘taradi: u nafaqat farzand dog‘ida kuygan ona, balki taqdir oldida ojiz inson timsoli. To‘rtinchi jihat – intonatsiya va ohangdorlik. Parcha ichida qisqa jumlalar, takroriy murojaatlar, iztirobli ohanglar mavjud. Bu nasrni she’riy nutqqa yaqinlashtiradi. Ayniqsa, “Ammo sensiz menga bu dunyo qorong‘u!” jumlasi lirizmning cho‘qqisi bo‘lib, ona qalbining butun og‘irligini ifodalaydi. Bu parcha hikoyaning epik oqimidan ajralib, sof lirik monologga aylanadi. Unda ona mehrining cheksizligi, yurt fidoyiligi va taqdir oldidagi ojizlik birlashib, she’riyatga xos ohangdorlik va ramziy ma’nolarni yuzaga chiqaradi.

Hikoyada oriyat va g‘urur masalasi markaziy o‘rinda turadi. Asarda betob farzandining boshida parvona bo‘lib, uni oyoqqa turg‘izish uchun ona tomonidan ko‘rsatilgan fidokorona harakatlar tasvirlanadi. Onaning vaqtni ham unutib, kunni kun, tunni tun demay shifo izlab, najot istab va ozgina bo‘lsa-da umid qidirib, juda olis yo‘llarni bosib o‘tishi – bu holat “Ona” degan nomga munosib har qanday ayolning qismati sifatida talqin qilinadi. Shu sababli kampirning folchi Bo‘lgan Kal oldiga borishi, undan foyda bo‘lmagach, tabib Luqmoni Hakim huzuriga uzoq masofa bosib borishi hikoyaning dramatik kuchini oshiradi.

Ushbu parchada kampir bilan Luqmoni Hakimning suhbati quyidagicha tasvirlanadi:

“– Nega menga egilding, odamlarning ulug‘i? – dedi og‘rinib. – Aksincha, men senga ta’zim etmog‘im darkor edi. Men hayotimda mingta, maqtanib aytsam, o‘n mingta odamni hayotini saqlab qoldim. Sen bo‘lsa... E-he!..

Chol kampirning haqiqiy ulug‘vorligini ko‘rsatmoqchiday, ikki qo‘lini yoyib butun dunyoni ko‘rsatdi. Bechora kampir chidab turolmadi – Luqmoni Hakimga umid bilan tikilib, poyiga yiqilib, yoshiga yoqasi ho‘l bo‘lib, xunobasi mo‘l bo‘lib izillaverdi”[1].

Mazkur parchada onaning ichki iztirobi badiiylashtirilgan holda ifodalanadi va lirik ohangdorlik kuchaytiriladi. “Yoshiga yoqasi ho‘l bo‘lib, xunobasi mo‘l bo‘lib izillaverdi” tasviri onaning ruhiy dunyosidagi chidab bo‘lmas dardni, ichki sinishni va mehrning eng tabiiy ifodasi bo‘lgan ko‘z yoshni ko‘rsatadi. Izillash esa uning ruhiy sinishi va dardining tashqi ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi.

Hikoya yakunida onaiyzorning Xudoga qilgan nolasi asarning eng dramatik va badiiy cho‘qqisi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif bu sahnada insoniy iztirob, ona mehrining cheksizligi va fidoyilikning oliy darajasini poyetik ohangda ifodalaydi. Ona hech qayerdan davo topolmaganidan so‘ng, oxirgi umid sifatida Xudoga yuzlanadi:

«Xudoyim! Mening nolamga ham bir bor quloq sol! Hech bo‘lmasa, Qo‘ng‘irotday bir yurtning duosini inobatga ol! Sochim supurgi, qo‘lim kosovlikda umrim kechdi. Bir farzand o‘stirdim. Bir taqdir qushini o‘limdan saqlab qoldim. Endi bolam o‘ladigan bo‘lib yotibdi. Tog‘dan pastga tusholmay turibman. Qo‘rqamanki, meni benajot qaytganimni sezgan bolaginamning bu dunyoda qarori qolmaydi... Xudoyim! O‘zing qo‘llagin! Rahmat nurin boshimdan soch. Meni g‘ozga aylantir-da, keyin inon-ixtiyorimni o‘zimga ber!.. Xudoyim!..”[2].

Mazkur parchada bir necha badiiy qatlamlar mujassam:

Lirik ohangdorlik – Onaning Xudoga murojaati she’riy monolog tusini oladi. Bu murojaat oddiy so‘zlashuv emas, balki ichki iztirobning poyetik ifodasidir.

Ramziy qatlam – Onaning g‘ozga aylanishi ramziy ma’noga ega. G‘oz xalq dostonlarida elchi, xabar yetkazuvchi qush sifatida talqin qilinadi. Bu yerda esa u ona mehrining, fidoyilikning va millat taqdiriga sadoqatning ramziga aylanadi.

Epik asos va dramatizm – hikoya xalq dostonlariga xos epik asosda qurilgan bo‘lsa-da, aynan shu sahnada dramatizm kuchayadi. Ona o‘zining jismoniy ojizligini ruhiy kuch bilan yengib, o‘zini farzandiga qurbon qilishga tayyor bo‘ladi.

Estetik tamoyil – Muallif oddiy voqeani yuksak badiiy-estetik darajaga ko‘taradi. Onaning so‘zlari orqali insoniy munosabatlar, ona va farzand o‘rtasidagi mehr, milliy qadriyatlar va fidoyilik oliy qadriyat sifatida tarannum etiladi.

Ona niyatining amalga oshib, g‘ozga aylanishi va mergan o‘g‘lining yoniga uchib borishi hikoyaning ramziy yakunini belgilaydi. Bu sahna orqali muallif insoniy mehr va fidoyilikning ilohiy darajaga ko‘tarilishini ko‘rsatadi. Ona o‘zini farzandiga qurbon qila-

[1] Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 7-jild. Hikoyalar, U.Azim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 576 b. 10 b.

[2] Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 7-jild. Hikoyalar, U.Azim – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 576 b. 8 b.

di, shu orqali milliy ruh, ona mehrining ulug‘vorligi va insoniylikning oliy qadriyat sifatida tasdiqlanadi. Hikoya voqealari xalq dostonlariga xos epik asosda qurilgan bo‘lsa-da, unda lirik monologlar, ona va farzand o‘rtasidagi iztirobli suhbatlar, xalqona murojaatlar she’riyat ohangini beradi. Bu uyg‘unlik Usmon Azimning nasrni poetik darajaga ko‘tarish mahoratini ko‘rsatadi. Adibning nasrida epik va lirik qatlamlarning birlashuvi, ramziy tasvirlar va xalqona ohanglar orqali milliy qadriyatlar ulug‘lanadi. Shu tariqa, hikoya nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki milliy ruh va ma’naviy qadriyatlarni ifodalash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Asarning asosiy g‘oyasi oddiy insoniy munosabatlar fonida butun xalq taqdirini, unga bo‘lgan mas’uliyat va burchni oliy qadriyat sifatida tarannum etishdir. Bu jihat Usmon Azimning nasr va she’riyatidagi umumiy badiiy tamoyillarni birlashtiradi. Uning o‘nlab she’rlari va dostonlari mavzu, janr va uslub jihatidan turlicha bo‘lsa-da, jo‘shqinlik, shiddat va beg‘uborlik bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, asarlarda hayotning o‘ziga xos dramatizmi va fojeaviyligi kuchli tarzda aks etib, o‘quvchini hayajonga soladi, uni fikrlashga undaydi. Eng muhim jihati shundaki, Usmon Azimning she’r va dostonlarida ona Vatanga muhabbat, xalq tashvishlari va kelajak muammolari turli badiiy shakllarda ifodalanadi: goh zamonaviy mavzular orqali, goh tarixiy-qiyosiy yondashuvda, goh folklor an’analarining ruhida. Shu tariqa, uning ijodi chuqur realistik ifodaga ega bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash va uni asrab qolish yo‘lida adabiyotning yuksak estetik vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Usmon Azim ijodida milliy qadriyatlarga tayangan holda yaratilgan asarlar nafaqat millatning o‘zligini asrab qolish, balki uni anglash va teranroq idrok etish masalalarini ham yuksak badiiy ohangda ifodalaydi. Adibning xalqona ruhda yozilgan asarlarida mardlik, fidokorlik, nomus va oriyat kabi fazilatlar ulug‘lanadi, ular milliy ruhning ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, oilaning muqaddasligi, farzandga bo‘lgan mehr, yurtga sadoqat singari qadriyatlar qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning hayotiy tanlovlari orqali yanada batafsil ochib beriladi”[1].

Rezyume. Mazkur maqolada Usmon Azim nasrida she’riyatga xos tasviriy vositalar, lirik ohang va ramziy qatlam tahlil qilinadi. Shuningdek, “G‘oz” hikoyasi misolida she’r va nasr o‘rtasidagi umumiy badiiy tamoyillar ochib beriladi.

Резюме. В данной стате анализируются присущие поезии изобразителные средства, лирический тон и символический слой в прозе Усмона Азима. Кроме того, на примере рассказа «Гус» раскрываются общие художественные принсипы, об’единяющие стих и прозу.

[1] Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент:. Илм-зиё заковат, 2020. Б.35

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

THE DEPICTION OF INTERNAL MONOLOGUE AS A FORM OF ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE NOVELS OF THE BRONTE SISTERS

Feruza Rasulovna Rashidova,
Namangan State University, PhD, Associate Professor
Email: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Introduction

In the process of fully shaping a character in fiction, it is essential not only to depict the character's external appearance but also to provide an analytical portrayal of their inner spiritual world. Behind a person's outward actions lie their internal experiences, emotions, and thoughts. Therefore, writers have consistently sought to reveal the inner world of their characters in literary works. In this regard, artistic psychologism plays a significant role[1]. Artistic psychologism serves as a means of illuminating the complex aspects of human nature through the depiction of a character's psychological experiences, inner conflicts, and stream of thoughts.

One of the principal devices used to express artistic psychologism is the *interior monologue*. An interior monologue is a character's inward-directed speech that is not articulated aloud but reveals their psychological experiences. It enables the reader to directly perceive the character's thoughts, emotions, and inner suffering.

Interior monologue has been known since ancient drama and began to be widely employed from the Renaissance onward. Through this technique, writers gained the opportunity to express directly the psychology of their characters, including their internal struggles and emotional experiences. Consequently, interior monologue became one of the principal artistic devices for revealing a character's inner world and emerged as a leading mode of expressing artistic psychologism in the works of the Bronte sisters.

In English literature in particular, Charlotte Bronte, Emily Bronte, and Anne Bronte elevated the technique of interior monologue to a high artistic level. In their novels, they illuminate moral choice, love, freedom, and inner struggle through the inner voice of their characters.

Especially in Jane Eyre, Villette, and Wuthering Heights, interior monologue provides a profound portrayal of the characters' psychological experiences and spiritual development.

Literature Review and Methodology

The issues of interior monologue and artistic psychologism have a long history in world literary studies. One of the first scholars to attempt a systematic study of this topic was Édouard Dujardin, who, in his work Le Monologue intérieur, laid a scholarly foundation for understanding the formation of interior monologue and its role in literature[2]. His research made it possible to interpret interior monologue as a natural flow of human thought.

Furthermore, in the twentieth century this line of inquiry was further developed in Stream of Consciousness in the Modern Novel by Robert Humphrey. He clearly distinguished between interior monologue and stream of consciousness, defining interior monologue as a controlled and syntactically structured type of discourse[3]. Similarly, in Transparent Minds, Dorrit Cohn compared interior monologue with various literary forms representing consciousness and evaluated it as one of the most effective means of psychological analysis[4].

Within the Russian school of literary criticism, Mikhail Bakhtin (1984) analyzed the polyphonic nature of inner speech and the principle of multivoicedness in the works of Fyodor Dostoevsky[5]. This approach made it possible to interpret interior

[1] Rashidova F.R. *Viktoriya davri adabiyotida badiiy psixologizm umumiy muammo sifatida. // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika.* – 2024. – 3-maxsus son. – B. 169–178.

[2] Dujardin E. *Le Monologue intérieur: Son apparition, ses origines, sa place dans l'œuvre de James Joyce.*- Paris: Librairie de l'Art Indépendant, 1931.

[3] Humphrey R. *Stream of Consciousness in the Modern Novel.*- Berkeley: University of California Press, 1954.

[4] Cohn D. *Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction.*- Princeton: Princeton University Press, 1978.

[5] Bakhtin M. *Problems of Dostoevsky's Poetics.*- Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.

monologue not merely as an individual reflection, but as an internal dialogue between social and ethical positions.

Turning to Uzbek literary scholarship, Dilmurod Quronov, in his work Adabiyotshunoslik atamalar lug'ati (2013), defines interior monologue as "the non-materialized, inward-directed speech of a character that occurs within; a direct form of artistic psychologism"[1]. This definition identifies interior monologue as a central element of artistic psychologism.

Methodologically, the present article employs comparative-analytical and psychological interpretation methods. The study examines examples of interior monologue in the works of the Bronte sisters - Charlotte Bronte, Emily Bronte, and Anne Bronte-and analyzes the emotional and moral states of their characters as expressed through this device. Particular attention is given to the role of inner speech in revealing character psychology in Jane Eyre, Villette, and Wuthering Heights.

In the course of the research, the artistic and functional role of interior monologue, its psychological expressive potential, and its transitional forms between realism and modernism are identified. On this basis, the place of the Brontes' works in the development of the English psychological novel is determined.

Main Results and Discussion

It would not be an exaggeration to state that the works of the Bronte sisters marked a new stage in the artistic analysis of human psychology in English literature. In their novels, interior monologue emerges as a powerful device for revealing the deepest layers of the human soul. The characters express their emotions, decisions, doubts, and sufferings precisely through inner speech.

As evidence, in Charlotte Bronte's novel Jane Eyre, the author employs interior monologue to portray the protagonist's psychological growth and her aspiration to become an independent individual. At every dramatic turning point of the novel, Jane's inner speech plays a crucial role. She searches for herself amid trials, love, and moral choices:

"I will keep the law given by God; sanctioned by man. I will hold to the principles received by me when I was sane, and not mad-as I am now. Laws and principles are not for the times when there is no temptation: they are for such moments as this, when body and soul rise in mutiny against their rigour… If at my individual convenience I might break them, what would be their worth?"[2]

Through this interior monologue, the heroine's moral steadfastness, inner conflict, and spiritual strength are vividly revealed, demonstrating how artistic psychologism functions as a central structural element in the novel.

In this interior monologue, not only Jane's emotional state but also her moral decision is illuminated. She undergoes an intense inner struggle; however, the decisive voice is that of her conscience. In this way, interior monologue expresses the formation of the heroine as an independent and self-determining individual.

Another novel by Charlotte Bronte rich in interior monologue is Villette. In this work, the reader observes how Lucy Snowe strives to keep her emotions under control through inner speech. She frequently analyzes herself and conceals her feelings, yet through her interior monologue the reader perceives her psychological pain:

"Reason is firm; she holds the reins, and will not let them slip; to give my feelings freedom would be weakness."[3]

For Lucy, interior monologue functions as a means of self-protection. Through this device, Bronte draws attention to the complexity of female psychology: a person not only experiences emotions but also strives to regulate and discipline them. This aspect introduced a new approach to the psychological analysis of the Victorian female character, deepening the artistic exploration of women's inner lives in nineteenth-century fiction.

Alongside Charlotte Bronte, her sister Emily Bronte transforms interior monologue in her novel Wuthering Heights into a means of expressing instinctive and unconscious experiences. The famous words of the protagonist Catherine Earnshaw clearly illustrate this:

